

R.OYMATOV

**KARTOGRAFIK
DIZAYN**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

Oymatov Rustam Kamariddinovich

KARTOGRAFIK DIZAYN

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan oly o'quv yurtharining 5311500 – Geodeziya,
kartografiya va kadastr (suv xo'jaligida) ta'lim yo'nalishi talabalari
uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

**«O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat» nashriyoti
TOSHKENT – 2018**

UO·K: 528.9 (075.8)

KBK: 26.17

O 39

Oymatov R.K.

O 39 Kartografik dizayn [Matn]: o'quv qo'llanma / R.K. Oymatov. — Toshkent: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. — 244 b.

UO·K: 528.9 (075.8)

KBK: 26.17

Ushbu o'quv qo'llanma oliy ta'lif muassasalarining 5311500 – Geodeziya, kartografiya va kadastr hamda 5313400 – Geodeziya va geoinformatika ta'lif yo'nalishi bo'yicha tahlil olayotgan talabalariga mo'ljalangan bo'lib, unda Kartografik dizayn fanning rivojlanish tendensiyasi; Kartalar dizayni; Kartada matnli materiallar va ularni jihozlash; Kartografik dizaynda rang; Kartalarning geografik va kartografik asosi; Yerning koordinata to'ri va proyeksiyalar; Shartli belgilarni tasvirlash asoslari; Geografik ma'lumotlarni jihozlash kabi mavzular bayon qilingan.

Taqrizchilar:

S.Sh. Ibragimova – «Kartografiya» ilmiy-ishlab chiqarish davlat korxonasi bosh direktori;

E.Yu. Safarov – O'zMU, «Geodeziya va kartografiya» kafedrasи mudiri, professor

ISBN 978-9943-5488-5-5

SO'ZBOSHI

«Yer aylanasi uzunligini sahroni kezib yurmasdan quydigicha aniqlash mumkin: buning uchun dengiz sohilidagi yoki tekis joyda qad ko'tarib turgan baland toqqa ko'tarilib quyosh chiqishi yoki botishi oldidan quyosh gardishining yarmi usq orasida bo'lgan vaqtida doirali armillyar asbobi bilan uning pasayish burchagi o'lchanadi».

— Abu Rayhon Beruniy (973–1048)

Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-fevraldag'i «Fan, ta'lim, sog'liqni saqlash va sportni rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari dasturi» ijrosini ta'minlash maqsadida Toshkent irrigatsiya va melioratsiya institutining 5311500 – Geodeziya, kartografiya va kadastr bakalavriat yo'nalishi o'quv rejasiga yangi fan sisfatida qo'shildi va shunga asosan o'quv qo'llanma sisfatida ilk bor tayyorlandi. O'quv qo'llanmani tayyorlashda xorijda va respublikamizda faoliyat yuritayotgan geodeziya va kartografiya sohasidagi olimlarning darslik, o'quv qo'llanma va maqolalari hamda muallif tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarga tayanildi. Jumladan: Tyner, A. Judith «Principles of map design»; Dent, D. Borden «Cartography: thematic map design»; T. Mirzaliyev «Kartografiya»; T. Mirzaliyev, E. Safarov, A. Egamberdiyev, J. Qoraboyev «Kartashunoslik»; E. Safarov, Sh. Prenov «Tabiiy kartalarni loyihalash va tuzish»; T. Mirzaliyev, E. Safarov, A. Egamberdiyev, J. Qoraboyev «Atlas kartografiyasi»; E. Safarov, R. Oymatov «Geoinformatsion kartografiya».

Yuqorida va respublikamizdagi geodeziya va kartografiya sohasidagi yaratilgan ilmiy, o'quv-uslubiy qo'llanmalarini inkor qilmagan holda ushu o'quv qo'llanma, ya'ni «Kartografik dizayn» kartalarning dizayni, kartalarni loyihalash, yaratish jarayonida kartada tasvirlanadigan voqe'a va hodisalarni tartibli, jozibador, kartadan foydalanuvchiga undagi ma'lumotlarni sodda qilib yet-

kazib berish, kartadagi yozuvlar, joy nomlarining joylashishi, generalizatsiya, matematik asos elementlarining joylashuvi, kartada foydalaniladigan ranglar va ularning tabiatи to'g'risida bahs yuritadi. Bundan tashqari ushbu o'quv qo'llanma kartalarni tartibli loyihalashtirish bilan birgalikda ularni keng doirada «jozibador» ko'rinishda ishlab chiqarishni ham o'rgatadi. Kartografik dizayn kartalarni loyihalash, tuzish va nashr qilish jarayonida qarorlar qabul qilish, ya'ni masshtab tanlash, proyeksiya tanlash, ma'lumotlarni toplash, shartli belgilar, ramzlar tanlash, rang tanlash va bir maqsad uchun samarali karta yaratishni o'z ichiga oladi.

O'quv qo'llanma yetti bobdan iborat bo'lib, *1-bob – Kartografik dizayn fanining rivojlanish tendensiyasi*, *2-bob – Kartografik dizayn*, *3-bob – Kartada matnli materiallar va ularni jihozlash*, *4-bob – Kartografik dizaynda rang*, *5-bob – Masshtab, kompilyatsiya va generalizatsiya*, *6-bob – Yerning koordinata to'ri va proyeksiyalar*; *7-bob – Shartli belgilarni tasvirlash* asoslariiga bag'ishlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltirilgan manbalar orqali o'quvchilarda qo'shimcha ma'lumotlarga ega bo'lish imkonini beradi. Bundan tashqari proyeksiyalar haqida ma'lumot, glossariy va manbalar ro'yxati keltirilgan.

Ushbu o'quv qo'llanma amaliy mashg'ulotlar bajarish uchun mo'ljallanmagan, unda kartografik kompyuter dasturlarini ishlash va ulardan foydalanish haqida ma'lumotlar berilmagan, lekin kartalar yaratish tamoyillarini o'z ichiga oladi.

O'quv qo'llanma bilan tanishib chiqib, o'z mulohazalari bilan o'quv qo'llanmaning sifatini yaxshilashga yordam bergan barcha professor-o'qituvchilarga va soha ishlab chiqarish korxonalarining yetakchi mutaxassislariga muallif o'z samimiy minnatdorchiligini bildiradi.

O'quv qo'llanma o'zbek tilida ilk bor nashr etilayotganligi sababli, unda ayrim kamchiliklar va xatoliklar bo'lishi mumkin. Muallif ushbu o'quv qo'llanma haqidagi barcha fikr va mulohazalarni mamnuniyat bilan quyidagi elektron pochta manziliga yuborishingizni so'raydi: *rustam.oymatov@mail.ru*

I-bob. KARTOGRAFIK DIZAYN FANINING RIVOJLANISH TENDENSIYASI

1.1. Kirish

Kartografik dizayn kartografiya fanining bir bo'limi sifatida ana'naviy va zamонавиу kompyuter vositalari yordamida kartografik asarlarni badiiy loyihalash va jihozlash nazariyasi hamda metodologiyasini ishlab chiqadi va o'rganadi. Kartalarga dizayn berish jarayonida quyidagi bir-biriga bog'liq vazifalar bajariladi:

- *kartografik belgilarning samarali tizimini loyihalashda, tasviriy vositalarni tanlash va baholash;*
- *badiiy uslub va usullardan foydalanish (rang, tasvirning plasti-kasi va boshqalar);*
- *kartografik asarlar jashqi ko'rinishining dizaynnini ishlab chiqish;*
- *kompyuter texnologiyalari grafikalaridan foydalanish.*

Ushbu vazifalarni amalga oshirish har bir kartografik asarning xususiyatidan kelib chiqish, bularga kartaning masshtabi, turi, vazifasi, xarakteri, tasvirlanayotgan hudud tasvirining o'lchami hamda nashr texnologiyalari va poligrafiya ishlab chiqarishi kabilar kiradi. Karta va atlasmalarni badiiy loyihalash dizaynning umumiyligi talablarini bajarishi zarur, ya'ni bularga kartaning mazmuni, shaklning qulayligi, iqtisodiy va yuqori darajadagi estetik sifat kiradi.


Kartografik asarlarni jihozlash, ularning vazifalari va estetik bahosi turli xil davrlar davomida o'zgarmagan. Ular umumiyligi qarashlarga, ya'ni kartaga fan va san'at sifatida qarashlariga mos holda o'zgarib borgan. Jihozlash uslublari o'zining konsepsiya-si, ilmiy va amaliy qiziqishlari bilan kartografiyaning rivojlanish davrlarida har doim o'zining o'rniiga ega bo'lib kelgan.

XV—XVI asrlar kartografiyaning gullab-yashnagan davri bo'lib, unda kartalarga fan va san'at sifatida qaralgan hamda buning natijasi o'laroq kartalarda ko'rakli, hashamatli jihozlash

ishlari olib borilgan. Gravirlash (o'ymakorlik, naqsh solish) texnikalarining rivojlanishi evaziga kartalarning ramkalari va yozuvlardagi nafisligi, rasmlardagi yuqori badiyiliqi bilan farqlanib bordi. O'sha davrdagi kartalarni jihozlanishiga o'z hissasini qo'shgan: Albrexta Dyurer, Gansa Golbeyn, Leonardo da Vinchilar kartografik asarlarda haqiqiy badiiy izlarini qoldirishdi. Rang-barang yozuvlar, dekorativ ramkalar, badiiy rasmlar, reja asosida va perspektiv shartli belgilar tizimi kartalarning ko'rchkamligi, uning tashqi ko'rinishining yanada joyzibador bo'lismiga asos bo'ldi. Badiiy elementlar kartaning ichki qismiga, bo'sh joylarga joylashtirilib, uning ma'lumot berish darajasini oshirdi va umumiyligini kompozitsiyasini yaxshilashga erishildi.

Yorqin dekorativ jihozlash ishlarida (badiiy ramkalar, sarlavhalarga beriladigan lavhalar, naqshlar) O'rta Osiyo, hududi tasvirlangan kartalar ham mavjud. O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston egallagan hudud tarixiy kartalarda va turli mualliflarning asarlarida umumiyligida O'zbek va O'zbekiya nomlari bilan tilga olingan. XVI–XVIII asrlarda G'arbiy Yevropa mamlakatlari va Rossiyada tayyorlangan tarixiy-siyosiy va etnik kartalar hamda globuslarda mazkur uchta xonlik egallagan hudud O'zbekiston deb e'tirof etilgan. Ana shunday kartalardan biri «Nova Maris Kaspii et Regionis Usbeck» («Kaspiy dengizi va O'zbek mamlakati kartasi») deb nomlanadi. Ushbu karta Pyotr I saroyida xizmat qilgan gollandiyalik kartografiya Abraham Maas tomonidan yaratilgan hamda 1735-yilda Nyurnberg shahrida chop etilgan. Mazkur tarixiy kartada butun O'rta Osiyo hududi, ya'ni Turkiston deb atalmish tabiiy-geografik mintaqaning hududi pushti rang bilan bo'yalgan va USBEK nomi bilan qayd etilgan [Maas, 1735]. Hozirgi vaqtida 200 dan ortiq ana shunday karta va globuslar mavjud bo'lib, ularda butun O'rta Osiyo hududi Usbek (Usbec, Usbeck, Uzbek), Usbekia (Usbechia, Uzbekia), O'rta Osiyoning ayrim qismlari esa, Usbek Bucharia, Usbek Bochara; Usbek Chowaresmia, Usbek Mawaralnahra, Usbek Turkistan, Usbek Turan, Usbek Tartaria, Usbek Zagatay kabi nomlar bi-

lan atalgan. Shuni ta'kidlash lozimki, barcha nomlar siyosiy birlikning – davlat yoki mamlakatning nomlari sifatida keltirilgan.



1.1-rasm. «Nova Maris Kaspii et Regionis Usbeck» («Kaspiy dengizi va O'zbek mamlakati kartasi»).

Gretsiyalik sayohatchi va kartografi Vasilio Vatache [Battatzis] tomonidan 1730-yilda yaratilgan karta ham o'ziga xos qiziqish uyg'otadi. 1727–1730-yillarda u Kaspiy dengizi yoqasida joylashgan mamlakatlar bo'ylab sayohat qilgan va o'z sayohati haqida grek tilida yozib qoldirgan. Ko'plab grek va lotin yozuvlari bitilgan ushbu noyob kartaning asl nusxasi London-dagi Qirollik Geografiya jamiyatida, nashri esa Britaniya kutubxonasining kartografiya bo'limida saqlanmoqda. Vatachening kartasida Orol dengizidan to Pomir tog'lari gacha bo'lgan hudud **ӨЗМПЕГІСТАН** (Uzbekia), ya'ni O'zbekiston nomi bilan atal-

gan. Ushbu mamlakatning tarkibida EZMETIOΛOU (Xorazm), MPOUXAPIA (Bucharia), ya'ni Buxoro va MPEΔEΞAN (Badachsjan) Badaxshon viloyatlari, shuningdek XIBA (Chiva), ya'ni Xiva, ΣAMAPKANT (Samarcanda) Samarqand, MPALX (Balch) Balx kabi yirik shaharlar hamda KAPΣI (Carsi) Qarshi, XOTCANΔ (Chogiland) Xo'jand, XΘNΔΘZ (Conduz) Qunduzdan iborat kichikroq shaharlar joylashgan. Kartada ΘZΜΗΕΓΙΣΤΑΝ (O'zbekiston) nomi qolgan barcha viloyat nomlariga nisbatan ancha yirik harflar bilan ajratib ko'rsatilgan, bu esa O'zbekiston nomi kartada qayd etilgan barcha boshqa viloyatlar orasida o'ziga xos o'rın egallaganini va ehtimol butun O'rta Osiyo hududining siyosiy markazi bo'lganini bildirar edi. Usbeck va Usbekia toponimlari XVI–XVIII asrlarda qo'llanilgan va grek kartasida qayd etilgan ΘZΜΗΕΓΙΣΤΑΝ mamlakatining lotincha ekvivalentlaridir. Ushbu mamlakat keyinchalik Buxoro, Xiva, Qo'qon va Balxda o'z markazlariga ega bir qancha mustaqil o'zbek xonliklariga bo'linib ketgan Shayboniyalar va Ashtarxoniyalar davlatlarining hududini o'z ichiga olar edi. Ushbu kartada o'sha davrغا xos bo'lган dizayn ishlарini, kartani yaratish jarayonida o'ziga xos ranglar va yozuv turlarini ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston yoki O'rta Osiyo hududlari kartasini yaratishda faqatgina xorijiy olimlar emas balki mahalliy olimlar ham o'zlarining katta hissalarini qo'shganlar. Bunga misol qilib, o'rta osiyolik Muhammad Muso Xorazmiy, Ahmad al Farg'oniy, Jayhoni, Balxiy, Beruniy, Mahmud Qoshg'ariy, Hafizu Abru, Bobur, Haydar Mirzo kabi ajoyib olim va geograf sayyohlar geografiya va kartografiyaning rivojlanishiga juda katta hissa qo'shganlarini aytish mumkin.

IX asr boshlarida podsho Ma'mun hukmronlik qilgan davrda (813–833-yillar) Bag'dodda «Olimlar akademiyasi», «Bayt al-hikma» («Donishmandlar uyi») tashkil qilinib, unda juda ko'p o'rta osiyolik olimlar ijod qilgan. Shu vaqtida Muhammad Xorazmiy Bag'dod rasadxonasining Yer yuzi aylanasining uzunligini o'lchash uchun 1° yoy uzunligini aniqlash bo'yicha ekspeditsiya-siga (Mesopatamiyada) rahbarlik qilgan.

O'zbekiston kartografiyasiga tegishli juda muhim asar «Hudud ul-olam» («Olamning chegaralari») X asrda (983-yilda) yaratilgan bo'lib, muallifi noma'lumdir. Unda o'sha davrga tegishli juda ko'p geografik ma'lumotlar berilgan. Shu ma'lumotlarni professor H. Hasanov hozirgi zamonda kartasi asosiga tushirib, o'sha davrda yozilgan mazkur asarning g'oyat mukammalligini isbotlab berdi (1.2-rasm).



1.2-rasm. «Hudud-ul-olam» (983-yil) kitobida tasvirlangan joylar hozirgi kartaga tushirildi.

Ushbu kartalarda ham o'ziga xos badiiy usullardan foydalangan. Bunga misol qilib, ulardag'i yozuvlarning joylashishi, shakli hamda ranglardan to'g'ri foydalaniqligini aytishimiz mumkin.

XIX asrda kartalarga texnik nazar bilan qarash rivojlandi va buning natijasida texnikanining rivojlanishi kartalarda ham o'z aksini topa boshladi. Bu jarayonga kartalarning mazmunini boyi-

tadigan rasmlarning tasvirlanishi, har xil ranglardan foydalanish va ularning bosma nusxalarini ko'p miqdorda chop etish imkoniyatining paydo bo'lganini misol qilib aytish mumkin. Albatta texnikaning rivojlanishi kartalarda tasvirlangan qimmatbaho va bahaybat bezatishlar o'rnnini naqsh solingan ramkalar va yozuvlarning badiiy shriftlarda yozilishiga bo'shatib berdi.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida dengiz va harbiy kartografiyaning rivojlanishi natijasida kartalarning amaliy ahamiyati yanada oshdi. Ulardagi mazmun va tasvirlarning geometrik aniq tasvirlanishiga nisbatan talablar ortib bordi. Vaqt o'tishi bilan kartalarni dekorativ jihozlash nisbatan kamayib bordi va ko'p yillar davomida bir xil standart shaklga ega bo'ldi. Ular oddiy geometrik ramkalar va shriftlardan tashkil topdi. Estetikadan ozod qilingan holda bir xil andazalarda yaratila boshlandi va bu topografik kartalarda o'z aksini yaqqol topdi. Va nihoyat, kartalarga dizayn berish jarayonining, zamonaviy davrga kelib, kartalar uchun yangi vazifalari belgilab olindi. O'zining estetik ahamiyatini saqlagan holda, u kartaning mazmunini to'ldirib va boyitib bordi. Buning natijasida kartalarni tashqi va ichki mazmunini jihozlash yagona tendensiyaga ega bo'ldi.

Fan va ishlab chiqarishda zamonaviy kartalardan keng foydalanish ularning umumiy shakllari va estetikani idrok qilishga e'tiborni kuchaytiradi. Kartaning tashqi ko'rinishi undan foydalanuvchiga qulay ishlash ta'minotini berishi va tejamli bo'lishi kerak. Avtomatik nashr qilish vositalari va usullaridan foydalanish natijasida, kartografik asarlarni jihozlash, ya'ni badiiy jihozlash ularning estetik ko'rinishlariga nisbatan talablarning oshishiga olib keldi. Ko'plab mahalliy va xorijda nashr qilingan karta va atlaslar kartografik dizaynning yuqori darajadagi tasviriy madaniyatiga misol bo'la oladi.

1.2. Tasviriy vositalar

Kartografik dizaynning tasviriy vositalari – bu badiiy va texnik grafikaning bir butunligidir. Kartalarda grafik vositalar ko'p

holatlarda, geometrik shakllarda hajmli va tekis yuzada tasvirlangan. Bu holatda ma'lumotlarni uch o'lechamli ko'rinishda tasvirlash, kartalardagi voqe va hodisalarning balandligi va chuqurligi haqidagi o'lechamlarni olish imkoniyatini berdi. Bundan tashqari tasviri vositalar har xil turdag'i badiiy elementlarni ham o'z ichiga oladi. Eng asosiy tasviri vositalardan biri bu rang hisoblanadi. Tasviri vositalarning kuchi va hajmining birikishi natijasida kartografik belgilar tizimini loyihalash imkoniyati yaratiladi. Shartli belgilar tizimini loyihalash va qabul qilish, ko'rish qonuniyati bilimlariga va ularning tabiatiga bog'liq bo'ladi.

Tasviri vositalardan to'g'ri foydalanish, shakllarning shakli va o'lechamlarini aniqlash, grafik elementlarni kombinatsiyalash, bularning hammasi kartalarning o'qilishini soddalashtirish, ulardan samarali foydalanish, fazoviy ma'lumotlarni yuborish va ularni ilmiy jarayonlarda qo'llash uchun yo'naltirilgan.

Kartaning hamma grafik elementlari: shtrixli (ularga shriftlar tegishli), har xil ranglar bilan bezatilgan ko'rgazmali chiziqlar, shtrixli, nuqtali va rangli-fonli maydonlarga bo'linadi. Bu bo'linish har xil vazifadagi shtrixli va fonli elementlarning vazifalariga asoslanadi hamda ularning tasviri imkoniyatlari ana'naviy va zamonaviy texnikalarning imkoniyatlari bilan bog'liqdir. Bundan tashqari har xil ravshanlikda bajariladigan ranglarning och tusli elementlariga ajraladi. Mos holda kartalarni kompyuterda yoki qo'lda tuzishda shtrixli nusxalar tayyorlanadi, ya'ni shtrixli elementlar, rangli nusxalar, ranglar bilan bezak berish va boshqalar.

Kompyuter texnologiyalari har qanday tasviri vositalarning (masshtabli, masshtabsiz, maydonli, harakatlanuvchi) yangi ko'rinishlarini boyitilgan holatda, tez va sisatli ishlab chiqishni ta'minlaydi. Bu albatta ranglardan samarali foydalanishning shiddat bilan rivojlanishini ham ta'minlab kelmoqda. Ranglarni optik kesishтирish va ranglarni elektron bo'lish orqali murakkab darajadagi toza tusli rangli gammalarni ishlab chiqish imkoniyatini kengaytiradi. Buning natijasida 150 rang turidan iborat bo'lgan murakkab karta legendalarini ishlab chiqish imkonii-

yati paydo bo'ldi. Masalan, geologik, geobotanik va landshaft kartalarini misol qilib ko'rsatishimiz mumkin. Tabiiy ravishda hozirgi kundagi kartografik dizayn (ya'ni zamoniviy kompyuter texnologiyalari asosida olib borilayotgan kartografik dizayn) ana'naviy kartalarni jihozlash va poligrafik uslublarga asoslanadi. Masalan, XVIII asrda ishlab chiqilgan analitik otmivka prinsipi ko'p vaqtlar davomida ko'p ish hajmini talab qildi va bu muammoni hozirgi kunda kompyuter texnologiyalari juda oson hal qilmoqda. Zamonaviy kompyuter texnologiyalari asosida yaratilgan ba'zi karta va atlaslar tasviri yuksak madaniyatning namunasini hisoblanadi.

1.3. Dizayn omillari

Kartalarning kompozitsion tartibi, jihozlashning o'ziga xosligi, uning uslubi va badiiy mukammalligi, dizayner-kartografsning maqsadni to'g'ri qo'ya olishi, abstrakt va ko'rgazmalilik o'rtaсидаги munosabatning samaradorligini oshirish, estetika va uyg'unlikni ta'minlash kabilarga bog'liq bo'ladi.

Yuqorida ko'rsatilganidek tasvirlash vositalarining rivojlanish darajasi, texnik va badiiy grafikalar imkoniyati hamda nashr qiluvchi poligrafiya texnologiyalariga bog'liq holda muhim rol o'yinaydi. Kartografik asarlarning dizayniga ta'sir qiluvchi asosiy omillar quyidagilar:

- kartografik asarlarning ko'rinishi (alohida kartalar, kartalar seriyasi, atlas);
- foydalanish mazmuni va xarakteri;
- mavzu.

Individial yoki umumiy loyihalashtirish, bezatishga yondashuv kartografik asar turini aniqlaydi. Agarda gap alohida karta haqida bo'lsa, bezatish individial bo'lishi mumkin. Ushbu karta mazmuni bilan bog'lanadi va uyg'unlashadi, uni to'ldiradi va boyitadi, umumiy ma'noli va estetik sifatlarini kuchaytiradi.

Kartalar seriyasini bezatish – juda murakkab masala. Har bir kartaning mavzular individualligini bir vaqtning o'zida asosiy

fikrni taqqoslash, butun seriyaning birligini aks ettirish lozim. Qoidadagidek, bugungi kunda kartalar seriyalari uchun tashqi bezatish ishlab chiqilmoqda.

Atlas tizimli kartalar yig'indisi sifatida, umumiyl dastur bo'yicha, bajarilgan bezatish ishlari ichki birdamlikni talab qiladi.

Bo'lim ichidagi bir mavzuda kartalarni muvofiq bezatish bilan amalga oshirilmaydi, alohida mavzuli bo'limlar va atlasning tashqi ko'rinishi: eng samarali jildi, titul varaqasi va vazifasi bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. Shuning uchun atlasmarni bezatishda umumiyl loyihani ishlab chiqishning estetik tomonini hisobga oladi.

Ma'nolilik, jozibadorlik va mazmun nuqtayi nazaridan birlashish tahsilning qulayligi, atlasni turli mavzuli bo'limlarini va kartaning ishlatilishini o'z ichiga oladi. Kartografik asarni ishlatish tabiatni va vazifasi tasviriy vositalarini hamda kompozitsiya usullarini tanlashda, bezashning aniq uslubini yaratishda juda katta ta'sir ko'rsatadi.

Masalan, maxsus va xo'jalik masalalarini yechish uchun mo'ljallangan kartalar loyihalashtirilgan, operativ-xo'jalik navigatsion, aniq tarmoq mutaxassis amaliyotchilariga oriyentir olish, kartani badiiy bezashga qiziqib qolmay, balki tasvirni aniqligi va ravshan bo'lishida xizmat qiladi. Shu vaqtning o'zida mafrifda, ilm va madaniyatda ishlatiladigan kartalar turli miqdordagi tayyorgarlikka va keng doiradagi iste'molchilariga ega (ilmiy xodimlar, yurqori malakali mutaxassislardan toki boshlang'ich sinf o'quvchilariga) badiiy kompozitsion usullarning turligini ta'minlaydi. Bir turdag'i karta guruhlari (o'quv, boshlang'ich, o'rta, oliy maktab uchun ilmiy-ma'lumot, madaniy-ma'rifiy, turistik va boshqalar) o'ziga xos xususiyatga ega va har bir voqeada alohida bezash usulini nazarda tutadi.

Kartografik asarlarni bezashda, uning vazifasini inobatga olgan holda, karta va atlasmarning ko'p maqsadligini hisobga olish kerak. Jumladan, rejalashtirishda va loyihalashtirishda, xo'jalik boshqarishda va qurilishda, ilmiy tadqiqotlarda.

Kartografik asarlarning mavzulari umumiy bezashda o'ziga xos xususiyatga ega. Yirik va o'rta masshtabli umumiy geografik kartalar uchun (topografik va obzor-topografik) tashqi bezash ishlari bir xil bo'lib, tegishli qo'llanma va dasturlar bilan mustahkamlangan. Tabiiyki, ular vaqt o'tishi bilan o'zgarmasdan qolmaydi va voqeа-hodisalarning o'zgarishi bilan asta-sekin takomillashti. Mayda masshtabli umumgeografik kartalar uchun tasviriy vositalar va kompozitsion uslublar tanlash qarama-qarshiliklarsiz amalga oshiriladi, ammo ular uchun ham tashqi bezash elementlarining to'plami unchalik ko'p emas. Mavzuli kartalar turlicha bo'lib, ba'zi turlari kompozitsiyasi va umumiy bezash tasviriy vositalari bo'yicha juda murakkabdir. Ular aksariyat holda ko'plab qo'shimcha elementlariga ega bo'lgan turli diagrammalar, grafiklar, o'yib ishlangan suratlar, rasmlar va boshqa illustratsiyalarga ega bo'ladilar.

Eng qulay joylashtirishga ega bo'lish uchun barcha elementlarning ko'rgazmaliligi va ifodaliligi juda katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash kerak. Bundan tashqari kartografik dizayn ko'nikmalariga va tajribalariga ega bo'lgan holatda ham tajribaviy ko'nikmalarga ham ega bo'lishni talab qiladi.

Dizayn tushunchasi va uning mohiyati.

«Dizayn» so'zining ifodasi italyancha «disego», ya'ni dastlab Renessans asridan loyiha, chizma, tasvirlar va ish jarayonidagi g'oyalar haqidagi tushunchalarni ifodalovchi so'zdan yuzaga keldi. Keyinchalik XVI asrda Angliyada «design» tushunchasi yuzaga kelib, g'oya, chizma, bezak, shuningdek loyihalash va konstruksiyalash kabilarni ifoda eta boshladi. Dizaynnning torroq ma'nodagi, ya'ni kasbiy tushunchasi yuqori iste'mol va estetik sifatga ega sa-noat mahsulotlarini yaratish, inson uchun komfortli hayot muhitini – ijtimoiy, madaniy, ishlab chiqarish, buyum va jihozlar muhitini tashkillashtirish bo'yicha badiiy loyihalash faoliyatidir.

Dizayn bir necha faoliyat turlari, ya'ni badiiy loyihalash, muhandislik loyihalash dasturlari, ommaviy sanoat kabilarning o'zaro uyg'unlashuvi natijasida tug'ildi. Bugungi kunda dizayn inson

hayot faoliyatining barcha sohalarini keng ko'lamda qamrab olib, tabiiy, nazariy, texnik, gumanitar, ijtimoiy bilimlar, ishlab chiqarishdagi narsalar olamini shakllantirishga qaratilgan sohalararo badiiy loyihalash faoliyatidir.

Dizaynning markaziy muammosi bo'lib, estetik baholash nuqtayi nazaridan olib qaralganda, bu madaniy va antropometrik jihatdan mos buyumlar dunyosini yaratish hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki loyihalashda muhandislik, texnikaviy, tabiiy va nazariy bilimlar, falsafa, madaniyatshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, semiotika va boshqa ijtimoiy fanlar vositalaridan foydalanish dizayn uchun o'ta muhimdir. Chunonchi ana shu bilimlar badiiy loyihalashning modellashtirish jarayonida o'zaro integratsiyalashadi.

Dizaynning yuzaga kelish shart-sharoitlari.

Badiiy loyihalash fabliyatining alohida turi sifatida dizaynning paydo bo'lishi XIX asr oxirlariga to'g'ri keladi. Bu vaqtida sanoatdagi tub o'zgarishlar hamda ommaviy ishlab chiqarishning rivojlanishi natijasida mehnatning bo'linishini vujudga keltirdi.

Sanoat ishlab chiqarishi sharoitida ishlab chiqaruvchilar tovar va mahsulotlar tashqi ko'rinishining jozibadorligi, xilma-xilligi, shuningdek, mahsulot ishlatilishidagi sifati va qulayligi kabi jihatlariga alohida e'tibor qarata boshlandi. Natijada nafaqat iste'molchi talablariga javob beradigan, jozibador tashqi ko'rinishga ega mahsulot shaklini yarata oladigan, shuningdek konstrukturlash masalalari va mashina ishlab chiqarish texnologiyasini yaxshi tushunadigan maxsus mutaxassislarga ehtiyoj vujudga keldi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, faqatgina injenerlik-texnikaviy va badiiy masalalar majmuaviy hal etilsagina raqobatbardosh mahsulot yaratish mumkin.

Sanoat dizaynining shakllanishi texnika rivojlanishi tarixi bilan chambarchas bog'liq. Bug' qozoni, ichki yonuv dvigateli, elektromotor, havoda uchish apparat (dirijabl)lari kabi kashfiyotlar mashinasozlikning yangi jabhalarini ochib berish bilan birga dizayn rivojlanishida tarixiy bosqichlardan bo'lib xizmat qildi.

XIX asr hayratlanarli darajada yuksalish asri bo'ldi. Bu vaqtida texnikaviy mo'jiza o'rnnini boshqasi egallay boshladi. Asr boshida odamlar oddiy yozuv perosi va oddiy aravadan foydalangan bo'lsa, asr oxirida ular o'rmini yozuv mashinasi va avtomobillar egalladi. Telegrafning ketidan telefon, keyinchalik esa «simsiz telegraf», ya'ni radio ixtiro qilindi. Insonlar rassom yordamisiz naturadan aniq tasvir va nusxa yaratish usullarini, havoda og'ir apparatlar da uchishning ilk ko'rinishlarini, inson ovozini yozib olish va uni saqlashni, harakatlanuvchi rasm, ya'ni kino san'atini kashf qilishdi.

Hunarmand mehnati, buyum shakllarini yaratish jarayoni uning tayyorlanishi bilan bevosita bog'liqdir. Sanoatlashtirish asri davrida mahsulotning chizmalar, modellari va tajriba namunalari ko'rinishidagi nusxa (prototip)lari yaratila boshlandi. Keyinchalik ko'plab miqdordagi mashinalar yordamida ulardan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Shunday qilib, bir asrlik vaqt davomida ishlab chiqarish jarayonida mehnatning bo'linishi vujudga keldi. Dizayn va badiiy loyihalash faoliyatning alohida ko'rinishi sifatida ajralib chiqdi hamda «dizayner» deb nomlangan yangi mutaxassislik shakllana boshladi.

1.4. Kartalarni tuzishning turli bosqichlarida dizayn

Karta yaratishdag'i to'liq davriy ishlar tizimli bosqichlardan tashkil topadi: loyihashtirish, tuzish, kartani nashrga tayyorlash va uni nashr qilish. Ushbu jarayonlarda, ya'ni karta bezashga taalluqli hamda uni yaratishdag'i har bir bosqichida amaliy ishlar bajariladi. Kartaning loyihasini ishlab chiqishda asosiy masala yechiladi, ya'ni mazmunning har bir elementi va kartografik belgilarning bir butun tizimini ishlab chiqish, keyinchalik loyihalash uchun tasviriy vositalar tanlanadi.

Shartli belgilar loyihasining qulayligi rangli bezashdag'i tajriba namunalarida tekshiriladi. Ushbu bosqichda kartani tashqi bezagi ishlab chiqiladi: ramkalarning shakli, sarlavha uchun shrift o'lehami va turi, mazmuni, qoshimcha elementlari (karta ga naqsh solib yozishlar, diagrammalar va boshqalar).

Keyin umumiy kompozitsiya aniqlanadi, tasvirga nisbatan barcha tashqi elementlar joylashadigan o'rni belgilab qo'yiladi. Bunda dizaynerning asosiy muammosi – kartaning muvofiqligi, tashqi ko'rinishni loyihalash, tashqi elementlarni mantiqan va tejamkor joylashtirish, badiiy uslublarni ishlatalish, kartografik asarni o'ziga xos xususiyatini, uslubini ta'kidlashdan iborat bo'ladi. Ushbu jarayonda kartografning konstrukturlik faoliyatida, ayniqsa yirik kartografik asarlarni loyihalash (kompleks asarlar-da) uchun keng maydon ochiladi.

Karta tuzish bosqichi, uning asl nusxasini, grafigini tuzishdan iborat bo'lib, mazmun elementlarini umumlashtirish va ijodiy tanlash jarayoni bilan bog'liq obyektlarni to'g'ri tanlash orqa-li, elementlarini aniq joylashtirish va bir vaqtda karta elementla-rini shtrix bilan chizkosh, imzo va nomlarini tushirishdan iborat bo'ladi. Qo'l bilan bog'liq bajariladigan ishlarda chizmachilik as-boblari va moslamalar ishlataladi, kompyuter dizaynida dasturiy vositalar to'plami talab qilinadi, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa, ishning sifatini ta'minlaydi.

Ushbu bosqichda eng asosiy jarayon – kartani grafik legen-dasini tuzish, shartli belgilarni aniq tizimda va ketma-ketlikda joylashtirish, guruhlar hamda alohida belgilarning masofasi-ni hisoblash, shrift o'lchamlarining o'zaro nisbatini, sarlavhalar va shartli belgilarni tushuntiruvchi yozuvlarni aniqlash ishlari olib boriladi.

Kartani nashrga tayyorlash jarayonida, bezash ishlarining asosiy qismi bajariladi – bunda kartaning asl nusxalarini tayyorlash, ularning bosma shakllarini olish uchun maxsus belgilangan vositalardan foydalaniлади. Ushbu bosqichda bezash masalasi shundan iborat bo'ladiki, rangli uyg'unlikni oshirilishigacha bo'lgan ishlab chiqish, fon elementlari uchun uyg'un ranglarni tanlash, asosiy nusxa rangini tayyorlashdan iborat. Bo'lajak karta va uning qadr-qimmati haqida to'liq tasavvur berish imkonini beruvchi poligrafik qayta tiklash jarayoni ranglarni tanlash uchun xizmat qiladi. Ranglar bo'yicha yechimni yaxshiroq topish uchun

(ayniqsa murakkab kartalar uchun) ranli bezashning bir necha variantini bajarishdan iborat bo'ladi.

Kartaning tashqi ko'rinishi haqidagi yakuniy fikrni bir nusxa-da bajarilgan rangli namuna beradi. U kompyuterdag'i rangli kartaning asl nusxasini yoki qo'lda bajarilgan rangli nusxani qaytadan tiklashni tekshirishga kerakdir. Karta tayyorlashning yakuniy bosqichida ham bezatish ishlarida tuzatishlar talab qilinadi, fon elementlari uyg'unligini o'zgartirish, rangli tusni (ton) kuchayti-rishga yoki kamaytirishga olib keladi. Shunday qilib, dizayn ja-rayoni bo'yicha ishlar karta yaratishning hamma bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Bir tomondan, ular chuqur ijodiy xarakterga ega badiiy ma-horat talab qiladi, ikkinchi tomondan texnik grafika uslublari va dasturlari murakkab bajaruvchi vositalarga ega bo'lishi kerak.

1.5. Karta va atlaslarni maqsadga ko'ra dizayn qilish

Yuqorida aytilganidek, karta bilan ishslash sharoiti va vazifasi dizaynning o'ziga xosligiga va xususiyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa aniq maqsadli, masalan, o'quv, madaniy-ma'rifiy, harbiy, turistik asarlarga taalluqli.

O'rta va boshlang'ich muktab o'quv kartalari va atlaslarini bezash uchun badiiy elementlarni ishlatalishadi — rassomlik surati va plastik rasmlar, rejali perspektiv fotosuratlar. Ular joy xususiyatlarini real tasavvur etishga imkon yaratadi, obyektlarni maydonda joylashishi o'quvchiga kartani o'zlashtirishga, shartli belgilarni eslab qolishga, obyektlarni real tasvirlashga yordam beradi.

Yaqqollik, oddiy lashtirish, eslab qolish, geografik fikrlashni rivojlantirish — muktab kartalari va atlaslarini bezashda asosiy talablardan biridir. Ushbu maqsadda ularni tashqi bezash ham mos keladi, muqova, titul varaqasi va boshqalar. Misol bo'lib o'rta muktabning 6–10-sinflari uchun o'quv atlaslari xizmat qiladi.

Nomlarning badiiy shriftlari, dunyoni uslubiy tasviri va «har yerda» fotosuratlarni kartada joylashishi atlaslar mavzularini

ta'kidlaydi, masalan, 8-sinflar uchun «O'zbekistonning tabiiy geografiyasi» va 10-sinflar uchun «Dunyoning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi».

O'quv kartalari uchun bezashning xarakteri o'ziga xosdir, ularda tasvirni mavhum uslublari ko'pdir: maydon va hajm diagrammalari, grafiklar, profil (ko'ndalang kesimi) va boshqalar. Bunday bezash umumiy maqsadli kartaning ichki mazmun tuzilishi bilan uyg'unlashadi, asosiy va qo'shimcha mazmun katta hajmni ta'minlaydi. Bezashdagi yaqqollik rangli fonlarning keskin farq qilishi va shtrixli rasmlarni joylashtirish hisobiga erishiladi.

Umumiy geografik turdag'i ma'lumotli karta va atlaslar tashqi bezagi bilan farqlanadi, ular o'z ichiga nomlar, masshtablar, shartli belgilar va ma'lumotlarni oladi. Bunday holatda jadval shaklida va matnli tushuntirish shaklida qo'shimcha ma'lumotlar beriladi.

Ko'rgazmali belgilar — rasmi bo'yicha tasvirlanayotgan obyektlarni esga soladi. Ularning ichidan ramziy (simvolik) va naturalistik (asliga qarab olingan)lari ajratiladi. Ramziy belgilarning shakli tasvirlanayotgan obyekt bilan birorta bir-birini eslatadigan o'zaro bog'lanish borligini ko'rsatadi.

Ilmiy-ma'lumotnomali atlaslar va kartalar (asosiy mavzu) ko'p maqsadga mo'ljallangan bo'lib xalq xo'jaligini loyihalashtirish, rejalashtirish, boshqarish uchun ilmiy tadqiqotlarda xizmat qiladi va oliy maktablarda qo'llaniladi. Keng sharoitda qo'llanilishi va iste'molchilarining yuqori malakasi kartografik asarlarni bezash usulida aniq iz qoldiradi. Qoidaga ko'ra, bunday turdag'i kartalar katta hajmdagi qo'shimcha elementlarni o'z ichiga oлади (grafiklar, kartalar, o'yib yozishlar, diagrammalar, statistik ma'lumotli jadvallar). Ularning umumiy maqsadi — asosiy kartaning mazmunini boyitish, alohida qismlarini aniqlash, ya'ni bog'liqligini va qonuniyatini ochishdan iborat.

Tasviriy vositalarning tanlanishi ilmiy, ilmiy-ma'lumotli belgilanishga bo'ysinadi hamda ular uchun tejamkor va axborot grafik vositalari kam joyni egallaydi. Shuning uchun ham jihoz-

lash jarayonida mavhum tasvirlar ko'p joyni egallaydi. Ilmiy-ma'lumotnomali kartalar stol ustidagi qo'llaniladigan kartalardan shtrixli rasmning yupqaligi, grafik va diagrammalar yig'indisi, shriftlarning nafisligi bilan ajraladi. Ilmiy-ma'lumotnomali asarlarni tashqi bezashdagi yaqqollik diagrammalar qo'llanishini kuchaytiradi hamda ularni rasmi va rangi tasvirlanadigan obyektlarni ramziy ma'noda ifodalaydi (masalan, neft qora rangda beriladi, gaz moviy, o'rmon yashil), bunda diagrammalar oddiy geometrik shaklni saqlab qoladi. Ilmiy-ma'lumotnomali atlaslar dizayni, jild va bo'limlar titul varaqlarini badiiy bezashda namoyon bo'ladi. Bu zarur bo'lgan mavzuni soddalashtiradi va yengillashtiradi hamda bir vaqtning o'zida atlasni jihozlaydi, unga o'ziga xos badiiylik bag'ishlaydi. Jild atlas haqida dastlabki taassurotni beradi. Uni dizaynida aniq usul, jozibadorlik, reklamalik muhimdir.

Atlasning nomini jihozlashda, bezash elementlari uyg'unligida (gerb, naqsh, fotomontaj va boshqalar) badiiy shriftlardan foydalilanadi. Ko'p holatlarda atlas mazmunining o'ziga xosligi ta'kidlanadi, ayniqsa geografik joylashuvi va maydonlardan xo'jalik maqsadida foydalanishda.

Kartalar dizayni va atlaslarning majmuaviyligining asosiy jihatlaridan biri bu – karta yoki atlas varag'ining kompozitsion uslubini ishlab chiqishdir. Shunga o'xshash usullarning bir nechta turlari mavjud va ular varaqda bir nechta kartalarni joylashtirilishi bilan murakkablashtiradi.

Bunday holatda kartalar ahamiyati, sujetlarning ketma-ketligi, mantiqiyligi, mavzularni bir-biriga tobelligini aks ettirish lozim. Ko'p holatlarda sifatli va miqdorli rang usulini qo'llashaadi. Asosiy kartalar oq, qo'shimchalar pushti, grafik va diagrammalar sariq fonda tasvirlanadi. Bu sodda usul diqqatni jamlashga yordam beradi, qaror qabul qilishni yengillashtiradi va yoqimli estetik ko'rinishni yaratadi. O'lakashunoslik va ilmiy ommabop turdag'i karta va atlaslarning qiyofasini badiiy bezash o'ziga xos bo'lib, ko'rish qiyofasining shakllanishini, kartografik obyekt-

larning esda qolishini va ularni idrok qilishni osonlashtiradi. Bunda teng holatda badiiy va mavhum grafik vositalarni uygunlashtiradi. Ilmiy-ommabop atlaslarda turli shakldagi bezash tablab qilinadi. Masalan, kartografik tasvir asl nusxadagi badiiy rasmlar bilan uyg'unlashadi. U yoki bu tuman landshaftining o'ziga xosligini va qiyofasini ko'rsatadi. Varaqlarda karta yonida tushuntirish matnlarini, fotosuratlar, badiiy bajarilgan diagrammalar va profil (ko'ndalang kesim) joylashtiriladi. Shunday qilib, atlas kitoblari shakllanadi, ya'ni rangli, yaqqol tabiat va joy xo'jaligini tasvirlaydi.

Turistik karta va atlaslar dizayni, qoidaga ko'ra, standartga oid emasligini, kompozitsiyaning har xilligi va asliligi bilan farqlanadi. Ehtimol bu turdag'i kartografik asarlarni bezashda yuqori darajada kompozitsiyani standartga mos aks ettirilishi namoyon bo'ladi. Tabiat chiroyini, jozibadorligini va shahar, tumanlarning turistik marshrutlarini, diqqatga sazovor joylarini aks ettiradi. Har bir kartani tashqi bezash ishlari unda tasvirlanadigan yerning konfiguratsiyasini ifodalaydi, bunda yer ustida joylashgan lanshaft turining madaniy arxitekturasi ahamiyatga ega. Turistik kartalarni bir-biridan rangli uslub, jozibadorlik, rassomlik san'ati va oddiy bezashlar ajratadi.

1.6. Multimediyali kartografik asarlar

Multimediya – kompyuter texnologiyalari yig'indisi bo'lib, turli vositalar integrallashuvini saqlash, axborot interaktivligi va almashishni qaytdan tiklash (shu jumladan uch o'lchamli model va animatsiyalar) aero va kosmik suratlar, fotosuratlar, rasmilar, boshqa video sujetlar, matnlar va tovushlarning jo'r bo'lishidan iborat bo'ladi.

Materiallarning turi, asarda aniq mantiqiy qoidalar bo'yicha ichki bog'lanadi. Obyektni uyg'unlikda tasavvur etishga imkon yaratadi. Kartografik mahsulotni shunday tashkil qiladiki, iste'molchi uni maksimal qulay usul bilan ko'radi. Assotsiatsiya bo'yicha ba'zi holatlarda shunday fikr ham bildiradiki, mul-

timedia kompyuter dizaynnini bir yo'nalishi sifatida yaratilgan, ba'zan dizaynni keng multimedia sohasining qismi sifatida ko'ri shadi. Kompyuter kartografiyasining imkoniyatlari keyingi bob larda batavsil berilgan. Kompakt disklar multimedia mahsulotlarini tashuvchilari sifatida axborotning katta hajmdagi, yuqori sifatini ta'minlaydi, ular ixcham, juda qulay o'qishga va har bir kompyuterda sanash (hisoblash) moslamasi bilan jihozlanganligi bois ishonch bilan kartografik amaliyotga kiritiladi. Multimedia texnologiyalarini asosan ensiklopediya, darsliklar, qo'llanmalar, ma'lumotnama, turistik yo'llanmalar, shuningdek yirik kartografik asarlar, turli xil atlaslarda joy yoki obyektni aks etti radigan audio axborot va matnli integratsiya tasvirlarida ishlatalidi. Bunda multimedia texnologiyalari kartalarni bezashdagi an'anaviy kartografik prinsiplar va tajribaga suyanadi.

Turli xildagi va sifatli kartografiya materiallari ovozli matn bilan jihozlanayotgan statistik kartalar va animatsiyalar Rossiya va chet el multimedia ensklopediyalarida uchraydi.

Har bir multimedik asarni yaratish uning mакетini ishlab chiqishdan boshlanadi. Ularning o'ziga xos xususiyati shundaki, foydalanuvchining xohishi bo'yicha ekranda bitta yoki bir nechta rasm va matnlarni joylashtirishi mumkin.

Ba'zi holatlarda, agar shunday imkoniyat bo'lmasa, an'anaviy atlas varaqlarini to'plagan prinsiplardan foydalanish kerak. Shuning uchun kartaning mакетida kerakli materiallarning bo'lishi, bo'lim bo'yicha tarqatish va yig'ishi uchun zarur hisoblanadi.

Jihozlashning bir tizimda olib borilishi juda yaxshi aspekt (nuqtayi nazar) hisoblanadi. Buning natijasida multimedik asarning individual uslubi yaratiladi. Atlas yoki kartaning jildi, muqovasiga bezak berish va kartalar seriyasining hajmi va ularga keng qamrovli dizayn elementlarini kiritish natijasida hech qanday cheklovlar bo'lmaydi, chunki elektron tashuvchilar katta hajmga ega va qog'oz materiallaridan ancha arzon turadi.

Kompyuter grafikalari kartalarning badiiy ranglarda bezalishi va yuqori grafik sifatini ta'minlaydi. Atlas yoki kartaning maz-

muni, uning dizayni orqasida yo'qolib qolmasligi uchun kompyuter grafikalaridan ehtiyojkorlik bilan foydalanish kerak.

An'anaviy kartografiyadagidek, matnlar multimedik asarlarning ajralmas qismi bo'lib qoladi. Ular geografik tavsiflar kartalarni ishlatalish bo'yicha metodik tushuntirishlar, ma'lumotlar, geografik nomlar ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi. Matnlar kartalarni tarixiy va madaniy xarakterdagi ma'lumotlar bilan tushuntiradi va to'ldiradi. Bundan tashqari karta tuzish uslublari va manbalarini ko'rsatadi, undagi axborotni baholashga yordam beradi hamda ilmiy amaliy yo'nalishda ishlatalishga yo'naltiradi. Matn va kartalar o'rtasidagi bog'liqlik turli matnlarni taqqoslashga yordam beradi va uning takrorlanishini istisno qiladi. Matnlar esa, rasmlar, diagrammalar, fotosuratlар bilan bir xil darajadagi vaznga ega hisoblanib, aksariyat holatlarda ular bir-birlarini to'ldirib boradilar. Multimedik asarlardagi matnlarni ishlab chiqarishda an'anaviy atlaslarga ishlab chiqarishdagi kabi dizayn yondoshuvidan foydalaniladi, bu esa, kartani samarali jihozlashga imkon yaratadi. Ana'naviy kartalardan farq qilgan holda, raqamli kartalarda joylashtirilgan matnlar haqida interaktiv tartibda ma'lumot beruvchi va ularni ekranga chiqarish imkonini beruvchi dasturlar mavjud. Ular oddiy tekstdagi snoska (soha ostidagi izoh) va izohlarga teng, lekin multimedia variantida shunday paydo bo'ladiki, qachon foydalanuvchi bunga muhtoj bo'lsa. Kursorni ajratib qo'yilgan so'zga olib kelinsa (tegilsa) yordam chiqadi («suzib chiqadi»). Ekranda multimedia texnologiyalari katta hajmdagi axborotni va badiiy, ilmiy tavsiflarni yashiradi, video materiallar bilan matnlar, diagrammalar va fotosuratlarni shifrlash, kartalarga turli ko'rinishlar kiritgan. Bundan tashqari tovushli «yordam berish» uchun ham ishlatiladi, masalan, turistik kartada arxitektura obyektining sazovor joyini tasvirlash uchun cursor bilan ko'rsatiladi, uning nomi inshoot yo'li va arxitektura nomi bilan namoyon bo'ladi. Musiqiy tovushlar yordamida mamlakat madhuyasining yangrashi yoki qushlar va yovvoyi hayvonlar joylashgan qo'riqxonalardagi hayvonlarning ovozini berish mumkin.

Obzor kartalarda punktlar berilgani, ular haqidagi batafsil ma'lumot berilishini anglatadi va maxsus belgilar (rejalar yoki yirik masshtabdagi kartalar, fotosuratlar, suratlar, panoramalar) bilan ajratiladi. Shahar kartalarining alohida kartalarida (oynada) shaharning markaziy qismini muzey yoki teatrlar ajratilgani berilgan. Kursor bosilganda muzey belgisi «yonadi» va uning yoniga tushuntirish matni suzib chiqadi. To'ldirish sifatida ekranga legenda va tugmachalar chiqadi, bundan tashqari boshqa karta va atlaslarga o'tishni ta'minlab beradilar.

Multimedik asarlarning dizaynini va loyhasini ssenariylar kiritiladigan kartalarning to'liq ro'yxati (maqlolar, rasmlar, video, audio sujetlar) ularning bo'limlar bo'yicha joylashtirishni nazarda tutadi.

Har bir hujjatga kirish loyhasining imkoniyatlar ro'yxatini (kartalar va rasmlarni chop etish berilgan xususiyatlar bo'yicha obyektlar masshtablarini izlash, legendalarni tasvirlash) taqdim etiladi.

1.7. Kartografiya sohasi

Kartani tuzish nima? Ushbu savolga qisqa va oddiy javob berish mumkin: qog'ozda tasvirlangan kartalardan uyimizga yoki manzilimizga yetib borish uchun foydalanamiz. Buning uchun biz Internetdan zarur bo'lgan kartani kompyuterga yuklab olib, unga manzilimizga yetib olish marshrutini qalam bilan chizish orqali o'zimiz uchun rasmiy kartaga ega bo'lamiz. Ijodkorlar va rassomlar kitoblar, jurnallar uchun kartalar yaratishadi va kartalardan foydalanish, ular uchun o'ziga xos ramziy ifoda bag'ishlaydi. Bu esa sohada asosiy o'zgarishlar mavjudligining nishonasi bo'lib, endi karta haqida ma'lumotga ega bo'lgan kishilar kompyuterlar yordamida professional darajadagi kartani yaratishlari mumkin. Biz kartani ma'lumotlar bazasidan foydalanib, bir nechta kompyuter dasturlari orqali yaratishimiz mumkin.

Hozirgi zamonaviy geografik axborot texnologiyalari (GAT) dasturlarining rangli illustratsiyalari ana'naviy usullarga nisba-

tan xushbichim kartalarni yaratishga yordam beradi. Geografik axborot tizimlari asosan keng jamoatchilik uchun mo'ljallangan. Albatta, kartografiya sohasi bo'yicha tayyorgarlikdan o'tgan mutaxassislar borki, ular boshqa karta tuzuvchilardan ko'ra mukammal hamda ilmiy, ommabop kartalarni yaratishadi.

Kartografiya, GAT, vizualizatsiya, kartalarni tuzish.

Ushbu atamalarning barchasidan kartani tuzish jarayoniga ta'rif berishda foydalaniladi. Ular sinonim so'zlar hisoblanmaydi. Kartografiya fani xalqaro kartografiya jamiyatি (assotsiatsiya) tomonidan «ilmiy hujjatlar va san'at asarlari ko'rinishi bilan birgalikda kartalarni yaratish texnologiyasi san'ati» deb ta'riflangan. Shu bilan birgalikda «ishlab chiqarish, ya'ni kartalarni loyihalash, tuzish, tarqatish va ko'paytirish sifatida belgilangan» (Metatel, 2008, 250-bet).

Geograflar dunyoviy va regional tadqiqotlarda karta turlarini ajratish uchun geografik kartografiya atamasidan foydalanshadi. Bundan maqsad, shahar muhandislik ishlari, kanalizatsiya tarmoqlari, gaz quvurlari va loyihalash ishlarida foydalaniladigan kartalarni o'rganuvchi fan va texnikani kartografiyadan farqlashdir. Ikkalasida ham qo'llaniladigan prinsiplar bir xil bo'lib, ular faqat masshtablar bilan farq qiladilar hamda geoinformatsion fan va geoinformatsion tadqiqotlarda juda ko'p ishlatiladi. Lekin, umumiyligi kelishilgan va aniq xulosalar mavjud emas. Shunday bo'lsada, GAT oilasiga bog'liq bo'lган matnlar, undagi atamalarni aniqlashga urinib ko'rishmaydi. Oldimizga qo'yilgan maqsad bo'yicha GATni aniqlashtiradigan bo'lsak, undan quyidagi holarda foydalaniladi: kompyuter dasturlari ma'lumotlar bazasini yig'ish, boshqarish, tahlil qilish, modellashtirish, geografik ma'lumotlarni tasavvur qilish hamda keng doirada qo'llash mumkin. Geografik tizim bu – GATdan instrument sifatida foydalanishni o'rganuvchi fandir. GAT bu – kompyuter dasturlaridan foydalanib karta tuzish degani emas. Ushbu texnologiyalar fazoviy ma'lumotlarni tahlil qilishning kuchli quroli hisoblanadi; shu vaqtida kartalar GAT tomonidan karta sifatida ishlab chiqarilishi mum-


kin, ularning asosiy kuchi analitikligidadir. Olimlar o'zлari uchun birinchi navbatda GATni kartalarni loyihalash, tuzish va yaratish deb hisoblamaydilar. Oxirgi, ya'ni natijaviy mahsulot sifatida ishlab chiqarishsada, ammo ularning asosiy maqsadlari ma'lumotlarni tahlil qilish hisoblanadi. Aslida esa, yaqin vaqtlargacha, ya'ni geoinformatsion tizimlar paydo bo'lgunga qadar, kishilar ma'lumotlarni fazoda qanday qilib, tasavvur qilish ustida o'yashadi. Kartadagi voqeа va hodisalarni shartli belgilar bilan tasvirlash ancha murakkabliklarni yuzaga keltirgan hamda chegaralangan edi, lekin o'sha vaqtdagi asosiy yo'naliш yangi turdagи shartli belgilarni yaratishdan iborat bo'lgan. Buni esa kompyuter dasturlari yordamisiz amalga oshirib bo'lmас edi. Kartografiya kartaning maqsadi va mazmuniga bog'liq bo'lmagan holatda, har qanday uslublarda ana'naviy yoki kompyuter dasturlari yordamida kartalarni tuzishning umumiy tushunchasini tasavvur qiladi.

Keyingi vaqtarda, geografik axborot texnologiyalari joriy qilinganidan keyin, kartografiyaning muhimligi doirasida bahs-munozaralar bo'ldi. Ushbu bahs-munozaralar natijasida GAT atamalari va tarixini qayta o'rganish va muhokama qilish ba'zi tushunmovchiliklarga olib keldi.

Kompyuterlar yordamida kartalar yaratila boshlaganda, universitet bo'limlari uchun maxsus kartografiya sinflari tashkil qilingan, ushbu sinflar asosan qo'lda bajariladigan, ya'ni qalamlar va boshqa chizish, o'lhash asboblari yordamida turli jarayonlar amalga oshirilgan. Bundan tashqari o'sha vaqtda avtomatlashtirilgan dizayn va ishlab chiqarish vositalari bo'lgan maxsus kompyuter dasturlaridan ham foydalanilgan. Bu jarayonni «kompyuter kartografiyasi» deb atashgan. Oxir oqibat kompyuter kartografiyasi sinflari GAT sinflariga aylana boshladi hamda kartografiya sinflari GAT kompyuter dasturlari bilan ta'minlandi, masalan, illustratsiyalar taqdimotlar ko'rinishida namoyon bo'ldi. Lekin kishilar kartografiyani o'sha ana'naviy usullarda, ya'ni kartalar qo'l yordamida chiziladi, loyihalanadi va yaratiladi deb faraz qilishardi.


Vizualizatsiya yoki geovizualizatsiya ham kelishilgan aniqlikka ega emas. Vizualizatsiyalar fazoviy ma'lumotlarning tarkibini va ularning aloqasini aniqlash uchun «xususiy» faoliyatning bir qanchasiga tenlashtiriladi.

ESRI korporatsiyasi vizualizatsiyani «ma'lumotlarning tabiatdagi ko'rinishini yoki shaklini tasavvur qilish» kabi aniqlashtirildi. Qoidaga ko'ra, vizualizatsiyani aniqlashtirish o'zida interaktiv kartalarga va kompyuter texnologiyalariga (ssilka) havola berishni talab qiladi. Vizualizatsiya va kommunikatsiyani tushuntirish uchun ikkita model tavsiya etilgan va ular mutaxassislar tomonidan keng qabul qilindi. «Xususiy» tadbir va «jamiyat» faoliyati sifatida vizual fikrlash va vizual kommunikatsiyani bir-biridan farqlash mumkin.



1.3-rasm. DiBiase modeli yordamida vizual fikrlash va vizual kommunikatsiyani bir-biridan farqlash. DiBiase, Devid (1990-y.).

DiBiase modeli (1.3-rasm) vizual fikrlash va vizual kommunikatsiyani bir-biridan farqlash uchun xizmat qiladi. Bunda vizual fikrlash ma'lumotlarni tadqiq qilish va vizual kommunikatsiya kelajakda ma'lumotlarni tasvirlash uchun xizmat qiladi. «Kub – diagrammadagi kartografiya» deb nomlanuvchi hamda vizualizatsiya va kommunikatsiyani tasvirlovchi MacEachren modeli (1.4-rasm) vizualizatsiyani o'sha vaqtning o'zida kommunikatsiyani umumiy, interaktiv bo'limgan holatda interaktiv, individual va noaniq ma'lumotlarini namoyish qilishdan iborat. Shunday bo'lsada, ushbu modellar qoida bo'yicha vizualizatsiyani yaxshi tushuntirishga yordam beradi, masalan animatsiya kartalari, ya'ni «flythroughs»larni vizualizatsiya deb atashadi. Ushbu kitobda rejalashtirish maqsadida hamda jamiyat bilan bog'liq kartalar onlayn rejimida tasvirlanganda va nashr qilinganda ularning umumiyligining bog'liqligi haqida bahs yuritiladi.



1.4-rasm. Kartografik kubdagi MacEachren modeli. MacEachren, Alan M. (1994-y.).


Ushbu kitobda kartografiya atamasi har qanday usulda karta-larni tuzish uchun foydalaniladi, GAT esa zarur holatlarda, ya'ni foydalanishi shart bo'lgan holatlarda foydalaniladi.

Karta (xarita) nima?

Ushbu savolga oddiy javob berish bilan maqsadga erishib bo'lmaydi. Biz bilamizki, karta mavjud lekin u kishidan-kishiga, madaniyatdan-madaniyatga o'zgarib boradi. 50 yil oldin masshtab asosida tekislikda yerning umumiy yoki qismlari grafik tas-virlanganligi aniqlangan. Shunga ko'ra bir qancha savollar paydo bo'ldi: Oy va Yerdan tashqari planetalar haqida tasavvur qanday edi? Agar u karta ko'rinishida bo'lganda, uning masshtabi haqida ma'lumotlar yetishmagan bo'lar edi, ya'ni bu karta-mi? Balki annotatsiya qilingan, sputnikdan olingan tasvirni karta deb hisoblaymizmi? Shar karta hisoblanadimi? 3D tasvirlar ha-qida nima deb o'ylaysiz? Puristlar esa, «agar karta mashtabga ega bo'lsa, 3D tasvirlar modellari sxema hisoblanmaydi» deb ta'kidlaydilar. Shunga ko'ra, Oy va boshqa sayyoralarini aniqlashni yuqoridagi usullarda tasvirlashimiz mumkin edi.

Lekin keyinchalik G'arb mamlakatlariga oid bo'lмаган madaniyat «rasmiy» ma'lumotlarga ega bo'lмаган joylar haqida axborotlar berilgan, bu kartaning funksiyasi (vazifasi)ga ta'sir qilmagan. Navaxo (ispancha buklama pichoq) Marshall orollari grafikasi uch turdag'i tayoqlardan hosil qilingan. Chig'anoqlar va palma tayoqlari oqimni, to'lqinni va orollar ko'rinishini aks ettirgan (1.5-rasm). Bundan tashqari og'zaki kartalar, men-tal kartalar va ishlab chiqarish kartalari ham mavjud, ushbu kartalarning aniqligini qanday aniqlashtiramiz? J.H.Andrews tomonidan 1694-yildan 1996-yillar oralig'ida yaratilgan 321 mavzudagi kartalarning ro'yxati ishlab chiqilgan (Andrews, 2009). Bundan kelib chiqadiki, kartografiya seminar, konfe-rensiya va kichik suhbatlarda cheksiz bahs yuritiladigan fan hisoblanadi. Ushbu fanni shunchaki, osonlik bilan o'zlashtirib bo'lmaydi, bunda ma'lum darajadagi kartografiyaga oid bilim-larga ega bo'lish lozim.

Ushbu o'quv qo'llanmaning maqsadidan kelib chiqqan holda, karta ma'lum vazifalarga ega bo'lsa, ya'ni fazoviy ma'lumotlarning munosabatlarini tasavvur qilish uchun grafik vositalardan foydalanish zarur ekan, biz uni o'sha vazifalari bo'yicha o'rGANAMIZ.



1.5-rasm. Marshall orollari grafikasi uch turdag'i tayoqlardan hosil qilindi. Chig'anoqlar va palma tayoqlari oqimni, to'lqinni va orollar ko'rinishini aks ettirgan.

O'quv qo'llanmada qum rasmlari yoki harakatlanuvchi grafiklarni o'rganib chiqmaymiz. Tekislikdagi kartalarni o'rGANISHDAN chegaralangan holda, ko'zi ojiz kishilar uchun kartalar, veb-sahifalaridagi kartalar va kompyuter dasturlarida yaratiladigan kartalar haqida babs yuritamiz.

Kartalarning turlari.

Fazoviy komponentlarni o'z ichiga oladigan, barcha voqealarni tasvirlab beradigan yuzlab karta turlari mavjud. Ular bir nechta guruuhlar va kategoriyalarga ajratilgan. Bularning ham-

masi kartaning (funksiyasi) vazifasidan kelib chiqadi. Kartalar funksional kategoriyalarga ko'ra uchta asosiy turlarga bo'linadi: umumgeografik kartalar; maxsus kartalar va mavzuli kartalar. Ushbu kategoriyalar bo'yicha kartografiya mutaxassislari tomonidan aniq yoki to'liq to'xtamga kelinmagan.

Umumgeografik kartalar o'zining nomidan kelib chiqib, aniq bir turdag'i kartalarni belgilab bermaydi, ular har xil turdag'i geografik hodisalarini tasvirlab beradi (siyosiy chegaralar, magistral yo'llar, shaharlar, daryolar va boshqalar) va maydonning umumiyligini hosil qiladi. Ulardan loyihalashtirish va joyning geografik o'rni haqida ma'lumotlar berish uchun foydalaniлади. Qoidaga ko'ra davlat, respublika, viloyat, shahar va tuman kartalari hamda topografik kartalar umumgeografik karta turlariga kiradi.

Kartalarning vazifasi – kartalarni loyihalashtirish va tuzishning asosiy omilidir. U maxsus maqsad, ma'lum sharoit va iste'molchilar uchun kartalar yaratishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra, maxsus ilmiy va amaliy masalalarni hal etish hamda obyektiv haqiqatni anglash uchun foydalaniладиган maxsus kartalarning alohida guruhi yuzaga keldi.

Maxsus kartalar o'zining mavzusi bo'yicha umumgeografik va mavzuli kartalarga bo'linishi mumkin. Mavzuli va maxsus kartalarni tuzish jarayoni o'ziga xosliklarga ega. Ular tasvirlash usullari va kartografik shartli belgilar tizimini tanlash va umumlash-tirish xususiyatlari tufayli kartografik proyeksiyalarni hosil qilish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Bunday turdag'i kartalarni yaratishda dastlab geografik asos tuzilib, unda ma'lum to'liqlik va tafsilotlar bilan (kartaning vazifasiga ko'ra) tabiiy geografik elementlar tasvirlanadi.

Bitta hududning mavzuli va maxsus kartalar seriyasi uchun namunaviy geografik asos ishlab chiqiladi, kartaning maxsus tarkibiy qismi, originali yoki maketi yaratiladi. Bu esa, geografik asos va maxsus kartaning originalini tayyorlash imkoniyatini beradi.

Ko'rib chiqilgan hamma kartalar vazifalari bo'yicha umumiyligini maqsaddagi kartalar guruhiга kiritilishi lozim. Bu guruuhga shu-

ningdek relyef kartalari ham (uch o'lchamli kartografik model-lar) kiritilishi mumkin. Shu bilan birga ulardan maxsus vazifada-gi kartografik asar sifatida foydalaniladi.


Ulardan foydalanish bo'yicha maxsus kartalar guruhi 2 ta ki-chik guruhlarga bo'linadi: 1) amaliy faoliyatning turli sohalarida-gi ma'lum masalalarini hal etish bo'yicha umumiy bo'lgan maxsus kartalar va 2) ma'lum masalalarini iste'molchilarning ma'lum gu-ruhi o'rtasida hal etish uchun mo'ljallangan kartalar.

Birinchi kichik guruhg'a inventarizatsiya, baholash, bashorat va analogik kartalar kirib, ulardan atrof-muhitni o'rganish, o'zlash-tirish, muhofaza qilish va qayta hosil qilish uchun hamda boshqa ilmiy va xalq xo'jaligi masalalarini hal etish uchun foydalaniladi. Xuddi shuningdek, rejorashtirishda kartalardan xalq xo'jaligining turli tarmoqlarini qamrab olish uchun ishlab chiqilishi mumkin va bir-biridan qator ko'rsatkichlar va tasvirlanayotgan tavsiflari bilan farq qiladi.



1.6-rasm. Havo yo'llari yoki dengizda harakatlanish maxsus kartasi.

Ikkinci kichik guruh kartalariga navigatsion kartalar kirib, ulardan aeronavigatsion masalalarini hal etish uchun foydalanish mumkin. Ko'rib chiqilayotgan guruhlarning kartalarini loyihalashtirish va rejalahtirishda maxsus tarkibiy qism originallari bilan bir qatorda umumgeografik elementlarning originallari (geografik asos)ni yaratish mumkin. Hamma turdag'i marshrutlarni belgilab beruvchi, karta turlarini o'zida mujassamlashtiruvchi navigatsion kartalar, ya'n'i aeronavigatsion kartalar, yo'l kartalari ham maxsus mazmundagi karta turiga kiradi, lekin ko'pchilik soha vakillari ushbu kartalarni «alohida turga ega bo'lishi kerak bo'lgan kartalar» deb hisoblashadi (1.6-rasm). Maxsus mazmunga ega kartalar agentliklar va korporatsiyalarda foydalaniladi.



1.7-rasm. Mavzuli karta fragmenti (Tuproq kartasi misolida).

Mavzuli kartalarni ko'plab nomlar bilan atab kelishgan (maxsus, fan, statistik, tarqalish va ma'lumotli kartalar), lekin «mav-

zuli» atamasi umumiy foydalaniladigan atama hisoblanadi. Odatta, mavzuli kartalar faqat birgina mavzuga yoki munosabatga mo'ljallangan bo'ladi, bundan tashqari har qanday boshqa ma'lumot hamda tasvirlanadigan ma'lumotlar bazasi fazoviy fon sifatida, ma'lumotlarni taqqoslash uchun xizmat qiladi. Mavzuli kartalarda miqdor va sifat xarakterlari bo'lishi mumkin. Ular yerdan foydalanish, aholi soni, havo harorati va boshqa mavzuli mazmunga ega bo'lgan kartalarni o'z ichiga oladi (1.7-rasm). Ushbu kitobda mavzuli kartalarni loyihalash prinsiplari va barcha turdag'i kartalarga e'tibor beriladi. Dastlab mavzuli kartalardan XIX asrda keng foydalanilgan. Ushbu kartalar ishlatalishiga ko'ra atlasmalar tarkibida keng qo'llaniladi. Ushbu kartalar gazeta, jurnal, hisobotlar va o'quv qo'llanmalarda asosiy qo'llaniladigan kartalar hisoblanadi.

Mavzuli kartalarning maqsadi.

Mavzuli kartalar u yoki bu uyg'unlikdagi tabiiy va ijtimoiy vogeliklarni o'zida aks ettirib, ular bo'yicha hal etiladigan masalalar, tasvirlanayotgan obyektlar va vogelikning aloqalari va o'ziga xosliklari, kartaning vazifasi va mavzusi usbu kartalarning yaratilishiga sabab bo'ladi. Mavzu bu – kartalarning nomlanishi-da turli xil darajada to'liqlik ifodasini topadi.

Mavzuli kartalarning o'ziga xosliklari ularning ma'lum aniq mavzu bilan belgilanishi hisoblanadi. Asosiydan tashqari har qanday mavzuli kartaning mavzuli tarkibiy qismi ma'lum hajmda unda joylashgan obyektlar bilan o'sha real yuzasini ifodalovchi umumgeografik majmuuning elementlariga tasvirlash beradi.

Mavzuli kartalar nafaqat Yerning yuza qismi uchun yaratiladi, balki boshqa fazoviy jiqlarning yuza qismlari uchun, shuningdek, alohida yirik geografik obyektlar bo'yicha, alohida hududlar uchun ham yaratiladi. Ular alohida kartalar ko'rinishida yoki ularning majmualari (guruhlari), seriyasi, mavzuli va majmuaviy atlasmalar ko'rinishida nashr qinlinadi. Mavzuli kartalarning asosiy vazifasi xalq xo'jaligi va ilmiy vazifalarni hal qilish, shuningdek o'rab turgan borliqni umumiy maqsadlarda tad-

qiq qilish uchun iste'molchilarini tabiiy muhit va ijtimoiy-iqtisodiy obyektlar va vogeliklar haqidagi mahalliy mavzuli axborot bilan ta'minlash hisoblanadi. Mavzuli kartalarda muvofiq keluvchi ilm-fan orqali erishilgan obyektlar va vogeliklar haqidagi bilimning zamonaviy darajasi o'z aksini topishi kerak. Mavzuli kartalarda tarkibiy qismlarning to'liqligi va batavsilligi kartaning masshtabi va vazifasiga muvofiq kelishi shart.

Mavzuli kartalardan ilm-fan va ishlab chiqarishning ko'p tarmoqlarida keng foydalaniladi. Mavzuli kartografiyaning rivojlanib ketishiga ko'plab tarmoq masalalarini hal etishning qulay sharoitini ta'minlashga harakat qilishi va shu bilan bog'liq ravishda yangi ibora – tarmoq uchun mavzuli karta iborasini paydo bo'lishiga imkon yaratadi.

Mavzuli kartalarning mavjud xilma-xilligida ularni loyi-halashtirishni bajarish sharoitini tizimlashtirish va bu kartalarning turlarini aniqlash hisoblanadi. Shuningdek, umumiy ko'rinishda tasvirlangan mavzuli va umumgeografik kartalarning o'zaro aloqalarini ham hisobga olish zarur.

Bunday tizimlashtirishni o'tkazish, mavzuli kartlarning ikkilamchi ekanligini oydinlashtiradi hamda majmuaviy kartalarni yaratish va foydalanishning turli xil aspektlarini aniqlashtirish imkoniyatini beradi.

Mavzuli kartalarni:

- *tarkibiy qismlari (mavzusi) bo'yicha;*
- *kartografik tasvirlash usullari bo'yicha;*
- *vazifasi bo'yicha;*
- *masshtabi va hududiy qamrovi bo'yicha tasniflash mumkin.*

Bo'linishning mazkur sxemasida umumiy (majmualar, integratsiya, tipologiya, rayonlashtirish va shu kabilar) va xususiy yoki tarmoq kartalariga bo'linadi. Kartografik tasvirlash usullari bo'yicha mavzuli kartalarning: izoliniyalari, kartogrammlar, nuqtali va boshqalarga, kartasi tuzilayotgan obyektlarning interpretatsiyasi bo'yicha esa, masalan, dala kartasiga bo'linishi

ma'lum. O'rnatalayotgan hodisaning turli tomonlarini ifodalovchi ko'rsatkichlar doirasini kengaytirish bilan kartalar tuzilishining o'zaro aloqasi, dinamikasi, hududiy differensiyasini farqlay boshlaydi.

Tarkibiy qismlari bo'yicha mavzuli kartlarning tavsifi shu belgisi bo'yicha kartalarning umumiy tasnifiga ko'ra amalga oshiriladi. Resurslarni va baholovchi mavzuli kartalarni rejalashtirish, bashorat qilish uchun turli maqsaddagi kartalarni paydo bo'lishini ta'kidlab o'tamiz. Masshtabi va hududiy qamrovi bo'yicha mavzuli kartalarni tasniflashda, ularga geografik kartlarni tasniflashning umumiy tamoyillari qo'llaniladi. Kartografik obyektlarni tasniflashni aks ettiruvchi kartalar, jumladan, u yoki bu belgililar bo'yicha hududni rayonlashtirish tipologik kartalar deb nomlanadi. Kartalarni tasniflash bilan birga ularning turlari o'rganilib, ular turli xil belgilari bo'yicha aniqlanadi.

Tadqiq qilish usullari bo'yicha tavsiflarni tasvirlash analitik, sintetik, shuningdek majmuaviy kartalarga ajratiladi. Mavzuning kengligi bo'yicha (umumiy va tor mavzu), uning tarkibi bo'yicha (bitta mavzuga ega sujeti), kartografik tasvirlashning murakkabligi bo'yicha (elementlar, majmuaviy) ajratiladigan karta turlari ham farqlanadi, bunda tasvirlanayotgan obyektlarni majmualashtirish tamoyillari o'rnataladi. Yangi turdag'i kartalarga majmuaviy, tabiiy-ijtimoiy kartalar, ularning xilma-xilligi (tabiatni muhofaza qilish, tabiiy sharoitlarini baholash va boshqa kartalar) misol bo'ladi.

Kartalarning kamchiliklari (nuqsonlari).

Kartalarning foydalilik jihatidan tashqari ularga nisbatan qator chegaralar mavjud. Kartadan foydalanuvchilarning aksariyati ushbu cheklolar haqida bilmaydilar (nashr qilingan kartalarning kamchiliklari haqida izohlar deyarli kam berilgan). Muammo shunday yakunlanadiki, ko'pchilik kartadan foydalanuvchilar kartani rasmda qanday bo'lsa, shu tasvirni namoyish qiladi deb o'ylashadi. Past uchuvchi samolyotlardan olingan rasmda ko'z ko'rishi mumkin bo'lgan obyektlarni ko'rish mumkin (uylar, ko'chalar, avtomobillar, uy hayvonlari va kir quritish jihoz-

lari). 1.8-rasmida Long-Bich porti va undagi kemalarning izlarini ko'rish mumkin.

Kartalar rasm hisoblanmaydi. Bu, albatta to'g'ri fikr, lekin ularni bir-birlaridan farqlash muhim ahamiyatga ega. Rasmalar o'zining razresheniyasidan kelib chiqib tanlangan bo'lmaydi, ya'ni rasmga tabiatning qaysi bo'lagi olinsa, xuddi shu tasvirning o'zini ko'ramiz, ularda obyektlarning o'lchami mavjud bo'ladi. Bu esa, samolyot yoki yerning sun'iy yo'ldoshlar imkoniyatlari ga va ulardagi rasmga olish uskunalariga bog'liq bo'ladi. Kartalarda esa, tabiatning bir yoki butun qismi umumlashtirilib, grafik vositalarda, shartli belgilarda tasvirlanadi. Kartalar mavjud barcha ma'lumotlarni ham tasvirlamaydi. Chunki, kartalar o'zining mavzusiga oid bo'lgan ma'lumotlarni tasvirlashga xizmat qiladi. Kartada obyektlarni tasvirlash uchun shartli belgilardan foydalaniladi. Masalan, 1.6-rasmda tasvirlangan maydon 1.9-rasmda ham tasvirlangan. Kartalar hayot uchun eng zarur bo'lgan omillarni alohida tasvirlash uchun xizmat qiladi. Ba'zi omillar haqidagi boshqa manbalarda ma'lumot berilgan bo'lishi mumkin, lekin ular kartografik tasvirlash usullarida tasvirlanmagan bo'lsa, bunday kartografik ma'lumotlarni o'qishning iloji yo'q. Masalan, joyning aniq tavsiyatini olish, ya'ni joy haqidagi sifat va miqdor ko'rsatkichlari haqida ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin.


Keyingi yillar ichida alohida qiziqish bildirilib, o'rganilayotgan generalizatsiya jarayoni ham yuqorida fikrlarni yoritishda ilmiy ahamiyatga ega. Kartograflar, karta nashr qiluvchi agentliklar yoki mijozning talabini qondirish, bir qancha obyektiv va subyektiv omillarga bog'liq muammolarga duch keladilar. Barcha kartalarda obyektlarning qay darajada tasvirlanishiga qarab, kamchiliklar mavjud. Bundan kelib chiqib, barcha kartalar noto'g'ri yoki noaniq tuzilgan deb hisoblanmaydi.

Karta xalq xo'jaligini rejalashtirishda, geologik qidiruv ishlarida, qurilishlarni loyihalashda, mamlakat ishlab chiqaruvchi kuchlarini to'g'ri taqsimlashda va hududlarni har tomonlama rivojlantirishda foydalilanligan asosiy manbalardan biridir. Geo-

grafik karta mактабдаги о‘кувчиларга география ва тарих фанларини о‘рганишда асосиyo ко‘ргазмали bilim manбayи bo‘lib xizmat qila-di. Kartaning legendasi aniq, mantiqli hamda qisqa bo‘lishi zarur.



1.8-rasm. Kosmik surat.



1.9-rasm. Generalizatsiya qilingan va shartli belgililar bilan jihozlangan karta.
1.6-rasmida tasvirlangan hududning topografik kartasi.

Ikkinci chekhanish bu masshtab hisobida vujudga keldi. Odatda, masshtab ta'siri obyektiv hisoblanadi. Real voqelikni masshtabga solish jarayonida, bir qancha elementlar yo'qotiladi. Qanchalik voqeja va hodisalarini tasvirlash kichraytirilsa, shunchalik ma'lumotlar generalizatsiya qilinadi (umumlashtiriladi).

Uchinchi omil, bu aniq omillardan chegaralanish, ya'ni Yer sferik ko'rinishda bo'lsa, karta tekislikda tasvirlanadi. Bu sferik ko'rinishga ega bo'lgan Yerni shunchaki tekislikda — kartada tasvirlab bo'lmaydi. Bunga esa, albatta, proyeksiya tushunchasi orqali maqsadga erishamiz. Har qanday karta yoki ularning majmualarini yaratishda, kartalarda turli xil masalalarni yechishda samarali yechimlarni ta'minlovchi kartografik proyeksiyalarni tanlash va aniqlash muhim ahamiyatga ega. Kartografik proyeksiyalarni tanlash ko'pgina omillarga bog'liq. Ularni 3 ta guruhga ajratamiz:

Birinchi guruhga kartalashtirish obyektini tavsiflovchi omillar kiradi. Bu kartalashtirilayotgan viloyat hududi bilan qo'shilishini tasvirlash darjasи va ahamiyatlilik shakli (konfiguratsiya), tasvirlanayotgan hududning geografik holati, uning hajmidir.

Ikkinci guruh yaratilayotgan kartani tavsiflovchi omillarni, undan foydalanish usullari va shartlarini o'z ichiga oladi. Bu guruhga kartaning vazifasi va ixtisosligi, masshtabi va mazmuни bo'yicha yechiladigan masalalar (kartometrik, navigatsion va boshqalar) va ularni yechishning aniqligi bo'yicha talablar, kartadan foydalanish usullari (stoldagi, devoriy), kartografik ma'lumotlarni tahlil qilish (EHM yordamida yoki EHMsiz), karta bilan ishlash sharoiti (hududning geografik holati, ularning maydoni va shakli), hududning kommunikatsiyasi va ularning hudud bilan aloqalariga qo'yiladigan talablar va boshqalar kiradi.

Uchinchi guruhga olinadigan kartografik proyeksiyadan foydalilanadigan omillar kiradi. Bu xatolik, minumum xatolikni ta'minlash sharoiti va uzunlik burchaklar hamda maydonlarni yo'l qo'yilgan maksimal xatolik tavsifi, ularning taqsimlanishi, geodezik chiziqlarni tasvirlash qiyaligi, loksodromiya, boshqa turdagи chiziqlarni tasvirlash holatlari, proyeksiyalarning stere-

grafikligi (maydonlarni tasvirlash darajasi), kartografik to'rlarda chiziqlarni tasvirlash qiyaligi va ularning ortogonalligiga qo'yiladigan talablar, meridianlar va parallellarning tasvirlari o'rtasida-gi to'g'ri burchakdan chetlanishning berilgan qiymatini ta'minlash, ularning teng bo'linganlik tavsifi, qutblarni tasvirlash, o'rta meridian va ekvatorga nisbatan kartografik to'rning simmetrik sharoiti (agar ular chiziqlar bilan tasvirlansa, o'rta meridian va qutblarga nisbatan ekvatorni tasvirlash o'lchamlari), tasvirlashni ko'rib qabul qilish sharoiti, sferik effektning mavjudligi, kartografik tasvirlash uchastkalarining to'siqlari (takrorlanishi) tavsifi va shu kabilardir.

Kartografik proyeksiyani tanlash 2 ta bosqichda amalga oshiriladi:

a) birinchi bosqichda proyeksiya (yoki ularning xususiyatlari) yig'indisi o'rnatiladi, bundan maqsad muvofiq tarzda ularni tanlab olish;

b) ikkinchi bosqichda aniqlanayotgan proyeksiya topiladi.

Yuqorida ko'rsatilgan omillar mazkur vazifani yechishga har xil ta'sir ko'rsatadi.

Qoidaga ko'ra, birinchi guruhning hamma omillarida qat'iy berilganlar asosida hisoblanishi kerak. Ularni hisoblash avvalo, ularning markaziy nuqtalari, markaziy chiziqlari kam o'zgaradigan masshtab yaqinida bo'lgan proyeksiyani tanlashni ko'zda tutadi, bu kartalashtirilayotgan hududning markazida bo'ladi, markaziy chiziqlar esa, bu hududning eng ko'p tarqalgan yo'nalishi bo'yicha joylashadi. Shuning uchun ko'plab kartalarda:

- hudud ekvator yaqinida, unga nisbatan simmetrik tarzda joylashganda va hudud uzunligi bo'yicha cho'zilganda silindrik proyeksiya;

- xuddi shunday hududni, lekin ekvatorga nisbatan simmetrik bo'limgan hududni tasvirlash uchun yoki o'rta kenglikda joylashagan hudud uchun konussimon proyeksiya;

- doira qilingan belgilarga ega hudud va qutb hududlarini tasvirlash uchun azimutli proyeksiyadan foydalaniladi.

Shu asnoda, bu guruh omillarini hisobga olish qidirilayotgan proyeksiyani maqsadga muvofiq tarzda aniqlanadigan proyeksiya (yoki ularning xususiyatlari) yig'indisini oldindan o'rnatish imkoniyatini beradi. Kartograflar, kartada katta maydonning sifat va miqdor ko'rsatkichlarini batafsil ko'rsata olishlari zarur. Bunda kartaning aniqlik darajasi ham yo'qolmasligi ta'minlab beriladi.

Kartaning maqsadi.

Kartalar tabiatdagi voqe va hodisalarni grafik vositalar orqali tasvirlovchi kuchli quroq hisoblanadi. Kartalar o'zlarining aniqligi tomonidan foydalanuvchilar tomonidan kamdan-kam holatda savollarga uchragan. O'quvchi tomonidan kartadagi jadvallar, matnlarga nisbatan shubha qilinmasa, boshqa tomonlama, ya'ni o'zlarining ilmiy va tadqiqot ishlarida ulardan foydalanib kelangan, toki teskari tekshirish orqali bunga erishmaguncha. Asosan GAT dasturlari orqali tuzilgan kartalarda bunday holat deyarli kuzatilmaydi. Ushbu kartalarni, ko'pchilik kartadan foydalanuvchilar, yuqori aniqlikda tuzilgan kartalar deb hisoblaydilar.

Kartalarning foydali tomonlaridan tashqari, karta bilan bog'liq yomon voqealar ham sodir bo'lgan, 1998-yil Italiyada 20 ga yaqin fojiali voqealar sodir bo'lgan. Uchuvchilar uchun mo'ljallangan kartadan foydalangan past-balandolikda uchuvchi samolyot «qorda uchuvchilar»ning po'lat lentasiga urilib, qulab tushgan, ushbu po'lat lenta kartada ko'rsatilmagan edi. Kartalarda bo'ladi-gan kamchiliklar, xatoliklar ko'pincha inson omili ta'sirida paydo bo'ladi.

Hududlarni ajratishdagi muamolarni hal qilishda yo'l kartalaridan foydalanishadi, bu esa samarali loyiha va ishlarni amalgaloshirishga to'sqinlik qiladi. Holbuki, bizning asosiy maqsadimiz kartani to'g'ridan to'g'ri mazmuniga mosini tuzish emas. Kema navigatorlari yo'l qurilishida hech qanday ahamiyat kasb qilmaydi hamda navigatsiya uchun jiddiy xavf solmaydi. Agarda biz yo'ldan chiqib ketsak, muammolarni keltirib chiqarmaydi, bu faqat og'ir yuk tashuvchi avtomobillar uchun noqulayliklar olib keladi.


Kartalar, hukumat ishlarida yuzaga keladigan muammo-larni yechishda, ko'chmas mulkni loyihalash hamda kishilar-ning o'zlariga mos joylardan uy yoki yer maydonlarini tanlash va sotib olishda qo'llaniladi. Hozirgi kunda kartalar Internet tarmog'iga joylashtirilgan bo'lib, ushbu kartalarda yer uchastkalari, uylar va turli xil yer maydonlari hamda uylarning bahosi, yer so- lig'i, o'lchovlari va, hattoki, ularning oldingi egasi kim bo'lgan va qanday narxlarda oldi-sotti qilinganli haqidagi ma'lumotlar bor. Bunday ma'lumotlarni dunyoning har qanday burchagidan Internet tarmog'iga ulanib ko'rish mumkin. Bu ham o'ziga xos xavf-xatarga olib keladi. Bundan kelib chiqadiki, biz yaratayotgan kartalarning ijtimoiy oqibatlarini ham inobatga olishimiz zarur.

Kartalashtirish jarayoni.

Kartalashtirish jarayoni bir tizimga solinib, o'rganilmaydi, le-kin kartalashtirish jarayoniga tegishli bo'lgan materiallar tizim-ga solingan. Eslatib o'tamizki, vaqt o'tishi bilan kartalashtirish jarayonlarini bir vaqtning o'zida bir nechta turini ko'rishimiz mumkin. Kartalarni tuzishni dissertatsiya va kitoblardagi ma'lumotlar bilan solishtirish mumkin. Ushbu jarayon to'rt kategoriya ga bo'linadi: rejallashtirish, tahlil, tasvirlash va ishlab chiqarish/ qo'llash (1.10-rasm). Rejallashtirish bosqichida kartograf karta-ning mavzusi va maqsadidan kelib chiqib, kimlar uchun mo'ljalanganligini tasavvur qila olishi kerak. Buning natijasida esa, kartamiz uchun qanday ma'lumot turlarini yig'ish kerakligi ham aniq bo'ladi. Tahlil qilish o'z oldiga ma'lumotlarni yig'ish, sin-tez qilish va tahlil qilishni maqsad qiladi. Ma'lumotlar statistik ma'lumotlardan, kartalardan va Internetdan olinishi mumkin. Ushbu jarayonda ma'lumot turlarining barchasi qo'llanilishi mumkin. Ma'lumotlar statistik uslublardan foydalanilgan holda, GAT dasturlarida tahlil qilinadi va shartli belgilar tizimiga o'giri-ladi. Kartaning o'quvchanligini oshirish uchun legenda, ma- ket-komponovka, karta qirqim, masshtab, oriyentatsiya, qo'shim-cha va yordamchi elemenlar, matnlar va boshqa grafik va yozuvli ma'lumotlar bilan boyitiladi. Ushbu bosqichda kartograf karta-

ning chop etilgan nusxasi kompyuter monitorida (yoki monitorda qanday ko'rinishda) bo'lishini tasavvur qila olishi kerak. Va, ni-hoyat, karta tuzilgandan keyin uning nashr qilinishigacha undagi yozuvlar hamda kamchilik va xatolarni to'g'irlash maqsadida, uni tahrirdan o'tkazish zarur. Undagi ranglar, yozuvlar, chiziqli, maydonli va nuqtali obyektlar to'g'ri joylashtirilganmi yoki yo'qmi? Tahririy ishlar oxiriga yetganidan so'ng kartani nashr qilish mumkin.

Kartani nashr qilish, uning nusxalarini ko'paytirish uchun maxsus nashr qiluvchi moslamalar, ya'ni printerlardan foydalanadi. Karta o'lchamiga qarab printer turlari yoki markalari tanganadi.



1.10-rasm. Kartalashtirish jarayoni.

1.8. Zamonaviy kartografiyaning vujudga kelishi va rivojlanishi

Kartografiyaning uzoq tarixida vaqt-i-vaqti bilan katta o'zgarishlar bo'lib o'tdi. O'zgarishlar davri ko'plab o'n yilliklarni yoki undan ko'proq vaqtini qamrab oldi. Ba'zi o'zgarishlar shunchalik uzoq vaqt davom etdiki, ularni «qayta o'zgarishlar» deb atasak xato qilmaymiz. O'zgarishlar uchta omil bilan xususiyatlansadi: texnologiyalar, ma'lumotlar va ijtimoiy/falsafiy o'zgarishlar. Revolyutsiyaning yirik bir davri g'arb dunyosining rene-

sansi bo'ldi (1350–1650). Asosiy texnologik omillardan biri bu nashr qilish uskunalarini kashf qilinishi bo'ldi. Natijada, kitoblar va kartalar ko'plab kishilarning foydalanishi uchun qulay bo'ldi, chunki nashr qilish uskunalari yordamida kishilar ularni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldilar. Yevropalik tadqiqotchilar g'arbiy va janubiy yarimsharlar hamda kontinentlarning tashqi ko'rinishlari haqidagi tasavvurlarini, ma'lumotlarini ommaga taqdim qildilar. Karta xususiyatlarining rivojlanishida Ptolomeyning olib borgan tadqiqotlari, ijtimoiy va falsafiy xarakterga ega bo'ldi. Ushbu bajarilgan ishlarning hajmini XX asrda, aniqrog'i XX asrning oxirgi yarim yilligida karta haqidagi bilimlarni egallanishiga tenglashtirib bo'lmaydi. Bu esa, kartalarni o'rganishda yirik hajmdagi ishlar bajarilganidan darak beradi. Bu haqidagi hamma bajarilagan ishlar bibliografik ma'lumotlarda to'liq aks ettirilgan.

XX asrda kartografiyaning rivojlanishi.


XX asrning yarmida kartografiyaning rivojlanishi eng yuqori darajaga chiqdi. Har qanday revolyutsiyada bo'lgani kabi kartografiyada texnologiyalar, ma'lumotlar va falsafaning jadallashishi bilan namoyon bo'ldi. Ikkinci Jahon urushi esa kartalarning zamonaviy darajaga yetishiga turki bo'ldi. Shu paytda kartalarni soni juda ko'p va ularni qisqa vaqtda tuzish kerak edi. Shu jarayonlar jadallahsgan vaqtida AQSHda minglab odamlar kartalardan foydalanish uchun kartografiya va fotogrammetriya fanini o'rganishga kirishdilar. Urushdan keyin ushbu fanlarni o'zlashtirgan mutaxassislar shu soha bo'yicha ishlarni davom ettirish istagini bildirdilar (asosan ayollar).

Urushdan keyin geografiya fakultetlari kartografiya fanini o'qitishni boshladi. Ular tasvirga olishlar, injenerlik kartografiyasini emas, asosan geografik kartografiya va mavzuli kartografiya ga ixtisoslashgan edi. O'sha vaqtarda geografiya fani kartalar bilan bog'liq bo'lganligi sababli, bir qancha vaqt «kartograf» va «kartografiya» so'zlari bilan sinonim hisoblangan. Holbuki 1950-yilning oxirigacha geograflar kartografiyanı fan sifatida emas balki, karta tuzish asbobi yoki hunarmandchiligi deb hisob-

lashgan. Bunga o'sha paytdagi kartografiyaga oid o'quv qo'llanmalarining kam miqdordaligini misol qilishimiz mumkin. Geografik jurnallarda kartografik proyeksiyalar va kartaning tarixi, shartli belgililar tizimi haqida maqolalar berilgan bo'lsada, kartografik dizayn haqida hech qanday ma'lumotlar yo'q. Bunga esa, Ikkinchiji Jahon urushidan keyin o'zgarishlar kiritildi. Kartografiya fani to'g'risidagi asosiy adabiyot 1938-yilda AQSHda Erwin Raisz (pronounced Royce) tomonidan yaratilgan va «Umumiy kartografiya» deb nomlangan. Raiszning fikricha kartografiya fani ma'ruza ko'rinishida bo'ladi, lekin unda amaliy va laboratoriya darslari albatta bo'lishi shart. Kitob kartografiyaning tarixi, kartalarda yozuvlar va tahririy-tayyorgarlik uskunalarini haqidagi ko'nikmalarga ega bo'lishi mumkin.

Strategik xizmatlarni boshqarish bo'limi boshlig'i lavozimida ishlagan Artur Robinson urushdan keyin Ogayo shtatidagi universitetga qaytib geografiya fanlari bo'yicha aspiranturani davom ettirdi. Uning dissertatsiyasi boshqa ilmiy ishlardan keskin farq qilmasada, unda karta dizayni ko'rib chiqilgan edi. Uning dissertatsiyasi 1952-yilda nashr qilinib unda kartaning tashqi ko'rinishi qanday bo'lishi haqida ilmiy izalanishlar keltirilgan bo'lib, unda kartada qanday ranglar tanlanishi, uning tuzilishi qanday bo'lishi va kartalarni nashr qilish haqida fikrlar yoritilgan. Robinson Viskonsin shtatidagi universitetga o'qituvchi lavozimiga ishga tayinlanib, kuchlantirilgan kartalar ustida tadqiqot dasturi ustida (dissertatsiya ustida) ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bordi. Ushbu dissertatsiyada Robinson kartografik shartli belgilarning psixofizik omillari va izoleptalar ustida tadqiqotlar olib bordi. Robinson 1953-yildan 1995-yilgacha «Kartografiyaning elementlari» nomli (6 marta nashrdan chiqqan) kitob yaratgan. Ushbu jarayonda, Ikkinchiji Jahon urushi davrida kartalashtirish jarayonida ishtirok etgan boshqa olimlar universitetlarda o'qituvchi vazifasida ishlab, kartografiyaning fan sifatida shakllanishida o'z hissalarini qo'shib bordilar. Shulardan Kanzas universiteti kartografi Djordj Djenks va Vashington universiteti kartografi Djon Sher-

manlar kartalarning funksiyalari haqida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar.



1.11-rasm. SYMAP (Synagraphic Mapping System)da tuzilgan karta.

Kartografik texnologiyalar va ularning rivojlanishi.

1960-yil yangi texnologiyalar inqilobi davri bo'ldi. Raqamli ma'lumotlardan tarkib topgan kartalarni yaratish qobiliyatiga ega kompyuter dasturlari ishlab chiqarildi. 1960-yilda Harvard laboratoriyasida kompyuter grafikalari uchun SYMAP (dasturi) ishlab chiqildi. Kartalarga unchalik ishlov berilmagan bo'lsada, ularni o'qish mumkin edi. Dastlabki kunlarda printerlar faqat chiziqli printerlar bo'lib, ular avtomat yozuvchi mashinalar sifatida bo'lib, ular kartadagi shartli belgilarni alfavit-harfli ko'rinishda tasvirlagan (1.11-rasm). SYMAP kartalari namoyishlar uchun yaroqsiz bo'lsada, ma'lumotlarni tezlik bilan tahlil qilish va tasavvur qilish uchun foydalanishga yaroqli bo'lgan. Yana bir asosiy texnologiyalarning taraqqiyotini masofadan zondlash texnologiyalarida ko'rishimiz mumkin. Yerning sun'iy yo'ldoshlari, ya'ni yuqori darajadagi sifatli suratlarni ishlab chiquvchi apparatlar kashf qilinishiga qadar (sputniklar), Ikkinci Jahon urushi vaqtida aerofotosuratlardan foydalanib keltingan. Ushbu sputnikdan olingan suratlar metrologik kuzatuvlarni olib borishda va boshqa tadbirlarni rejalashtirishda yordam beradi. Ush-

bu namunalar kartografik ma'lumotlarni bir bo'lagi hisoblanadi. Geografik axborot texnologiyalari haqida tushuncha shaffof plast-massa qatlamlarini joylashtirish yo'li bilan geografik tahlil o'tkazish vaqtiga to'g'ri keladi. Zamonaviy GATda esa, ma'lumotlarni tahlil qilish uchun virtual qatlamlardan foydalaniladi.

Kommunikatsiya nazariyasi.

Robinson, Djenks, Shermanlar tomonidan olib borilgan tad-qiqotlarda nazariyadan kommunikatsiyaga o'tish g'oyalari tug'ilgan, ya'ni «Bu kim uchun samarali deb ayta olamanmi?» (Koe-man, 1971) degan savolni o'rtaga tashlaganlar. Bu qarashlar kartograflar tomonidan yaratilgan kartalar oldingilaridan keskin farq qilishini o'quvchilar qanday qabul qilishlari asosiy muam-molardan biri edi. Ushbu paradigmani e'lon qilganda, o'quvchilar kartalardan nimani olishadi va bu ular uchun samarali bo'lishini kartograflar aniqlik kiritishlari kerak edi. Alovida shartli bel-gilar, ya'ni tugallangan aylanalar va izopletlar fan samaradorligini oshirishga qanday ta'siri borligi haqida test o'tkazilgan. Hozirgi kunda ham bunday tadqiqotlar animatsiya va multimedya karta-lari uchun qo'llanilmoqda.

Paradigmalarni vizualizatsiyalash.

1990-yillarga kelib mutaxassislar kartografiyanı «yagona, sa-marali tasavvur qilish metodologiyasi» deb ta'rif berganlar. Para-digmalarни vizualizatsiyalaydigan va ma'lumotlarni interaktiv tadqiq qiladigan murakkab kompyuter dasturlari ishlab chiqilgan edi. GAT uchun vizualizatsiya tushunchasi yangi konsepsiya hisoblanmaydi. Agar biz vizualizatsiyaning noma'lumlarini tadqiq qilish, ma'lumotlarini o'zida mujassamlashtirgan xususiy faoliyat deb faraz qilsak, unda mavzuli kartografiya vizualizatsiyani uzoq vaqt davomida o'rganilgan bo'ladi. Oldingi vaqtida vizuali-zatsiya kompyuter dasturlari yordamida tahlil qilinmagan. Ular rangli qalamlar, kalka qog'ozlari yordamida amalga oshirilib, ma'lumotlarni o'rganishgan va tasvirlar ustida tajribalar o'tkazishgan. Kompyuterlar kashf qilingandan keyin vizualizatsiyani ilmiy o'rganish jarayoni tezlashib ketdi.

Kartografiyaga tanqidiy qarashlar.

Kartalarni tuzishga uzviy bog'liq bo'lgan kommunikatsiya va vizualizatsiyani tadqiq qilish mavzusi evaziga kartografiyaga nisbatan tanqidiy nazariyalar paydo bo'lishni boshladi. Kartograflar kartalardagi xatoliklar haqida 100 yillardan buyon tadqiqotlar olib bordilar va Ikkinchi Jahon urushi davrida kartalardagi xatoliklari ustida tadqiqotlar olib bordilar; 1980-yillarda Brian Harleyning olib borgan tadqiqotlari ushbu yo'naliш bo'yicha yangicha qarash hisoblanadi. Brian Harley kartalarni o'rganish davrida adabiyotlardagi nazariyalarga asoslanib ularni, ya'ni kartalarni matn si-fatida o'rganib chiqdi. Bu jarayon dastlab eski yaratilgan kartalar ustidan amalga oshirildi lekin zamonaviy kartalarni tahlil qilishdagi asosiy mavzu bu kartalarni ijtimoiy oqibatlari hisoblanadi. Denis Wood's o'zining «The Power of Maps» kitobida shu mavzu bo'yicha bahs yuritgan. Boshqa mavzular feministik kartografiya, yerga egalik huquqini beruvchi hissiyat kartalari va boshqlardan tashkil topgan.

Takrorlash uchun savollar:

1. Maxsus kartalar guruhi qanday kichik guruhlarga bo'linadi?
2. Maxsus kartalar o'zining mavzusi bo'yicha nechta turga ajratiladi?
3. MacEachren modeli haqida tushuncha bering.
4. Kartalashtirish jarayoni nechta asosiy bosqichni o'z ichiga oladi?
5. Kartografik proyeksiyani tanlash nechta bosqichda amalga oshiriladi?

2-bob. KARTOGRAFIK DIZAYN

Karta tuzishdan ko'ra oddiy yoki oson ish bo'lmasa kerak, lekin ularni yetarli darajada tuzishdan ko'ra murakkab ish ham yo'q. Kartalarni yaratishda tabiat va san'atni uyg'unlashuvchi kartograf va geograf esa undanda no-yob kishilardir.

— Jacques-Nicolas Bellin
(1744, quoted in Mary Pedley,
The Commerce of Cartography, 2005)

2.1. Kartalar dizayni va uning muhimligi

Dizayn elementlari joylashuvi va kartani loyihalash.


Kartalarning dizayni bo'yicha ishlar olib borilganda ikki asosiy jarayonga e'tibor qaratishimiz zarur, ya'ni bular: dizayn elementlarini kompanovka qilish va kartani loyihalash. «Loyihalash jarayonida karta nomini qayerga joylashtirish kerak, legenda va masshtab qanday bo'lishi kerak?» kabi savollar yechimini o'z ichiga oladi. Bu san'atda kompozitsiya deb nomlanadi. Dizayn bitta chiziq chizilmasdan oldin boshlanib, kartaga qanday axborot kiritish, ta'sir ko'rsatish, masshtab va shartli belgi turlarini tanlash haqidagi qarorlarni o'z ichiga oladi. U karta yaratishning eng markazida turadi. Bu bobda biz dizaynning ikki jihatini ko'rib chiqamiz. Kartadan foydalanuvchilar tuman, hudud, dunyo yoki butun olam kartalariga ko'ra, joy haqidagi tasavvurlarini shakllantiradilar; kartalardan esa, I-bobda ko'rib chiqqanimizdek, qarorlar qabul qilishda foydalaniladi. Kartada taqdim qilingan axborotlar uzoq vaqt saqlanadigan voqelikka ega bo'lib, bu kartografga juda katta mas'uliyat yuklaydi. Kartografning maqsadi imkon qadar aniq va haqqoniy karta tuzishdir. Shu bilan birgalikda ijod qilish uchun yangi yondashuvlar va metodlar bilan harakat qilishda erkinlik mavjud. Aks holda karta dizaynida hech qanday o'zgarishlar bo'lмаган bo'lardi. Yangi texnologiya XIX asrdagi litografik bosmada (1796-yilda kashf etilgan) yuksalish bo'ldi yoki

XX asrda kompyuterlaridan foydalanish, kartalarning tuzilishiga va ulardagi ramzlarga o'zgarishlar kiritdi.

Dizayn bir butun jarayondir; til esa chiziqli jarayon hisoblana-di. Men kartografiyada qabul qilinishi mumkin bo'lgan ma'lum bosqichlarni aniqlashtira olishiga qaramay, bu bosqichlar ma'lum tartibga rioya qilishi shart emas, aslida ularning ba'zilari bir vaqtning o'zida qabul qilinishi mumkin. Shunga qaramay, hisobotda dizaynning hamma jihatlarini birato'la ko'rib chiqsa olmaymiz, ularni bosqichlarga bo'lish kerak. Dizaynning maqsadi har qanday dizayn bu – karta yoki bino dizayni bo'lsin ma'lum maqsad-larga ega: aniqlik, tartib, muvozanat, qarama-qarshilik, birlik va uyug'unlik.

Aniqlik.

Agar karta aniq bo'lmasa, u hech qanday qiymatga ega bo'lmaydi. Aniqlik, karta bo'yicha axborot olishni yaxshilaydigan hamda Yer yuzidagi muhim voqeя va hodisalarni ta'kidlab, karta maqsadlarini o'rganishni o'z ichiga oladi. Ma'lumotlarni olib tashlash so'nggi chegaragacha olib borilsa ham kartani tashviq qilish holatlarida, har bitta daryo nomini yozish, aholi sonini karta yuritishni orttirib, mavzuga oid axborotni unumli tasvirlaydi (2.1-rasm).



2.1-rasm. Ushbu kartada juda ko'p «tartibsizlik» tasvirlangan. Daryolar, avtomobil yo'llari va aeroport kartaning mavzusiga to'g'ri kelmaydi.

Tartib.

Tartib kartaning mantig'iga tegishlidir. Vizual (ko'rish) tarbililik yoki chalkashlikning mavjudligi. Turli xil elementlar mantiqan joylashtirilgani. Kartani ko'rish kerakli tarzda ekanligi? Kartta seriyali emas sinoptik bo'lganligi tufayli kartograflar o'quvchi birinchi navbatda karta nomini legendani va shu kabilarni tah-lil qila olmaydi. Ko'zlar harakatini tadqiq qilish shuni ko'rsatadi-ki, juda ko'p harakatlar mavjud. Rudolf Angelning ta'kidlashicha shakl yo'nalishi o'ziga tortadi, kerakli sahifadagi elementlarning shakl yo'nalishi ta'minlovchi o'qlarni hosil qiladi. Ya'ni vertikal chiziqlar ko'zlarni karta yuqorisiga va pastiga tomon olib boradi, gorizontal chiziqlar esa o'ng tomonga buradi.

Tenglik.


Kartaning har bir elementi vizuval og'irlikka ega. Bu og'irlik sahifaning optik markaziga nisbatan bir tekis taqsimlangan bo'lishi kerak, bu amaldagi markazdan biroz yuqoridagi nuqta hisoblanadi, aks holda karta hamma tomondan bir tomonga tortilgan yoki barqaror bo'limgan bo'lib qoladi (2.2-rasm). Garchi bu kartaning o'qilishi yoki foydaliligiga ta'sir qilmasa ham, bu uning paydo bo'lishi omillaridan biri hisoblanadi.

Qoidaga ko'ra, kadr doirasidagi vizual og'irlik, joylashuv o'rni, o'lchami, rangi, shakli yo'nalishiga bog'liq bo'ladi.

Arixeymga ko'ra, vizual og'irlik quyidagi tarzda farqlanadi:

- markazga joylashgan elementlar bir tarafda joylashgan elementlarga qaraganda kamroq og'irlikka ega;
- yuqori qismdagi obyektlar quiq qismdagi obyektlarga qara-ganda og'irroq;
- o'ng tomonda joylashgan obyektlar chap tomonda joylash-ganlarga nisbatan og'irroq;
- og'irlik ko'rinishiga ko'ra, markazdan uzoqlashgan sari or-tib boradi;
- alohida elementlar guruhlashdirilgan obyektlarga qaragan-da katta og'irlikka ega;
- katta elementlar katta vizual og'irlikka ega.

- qizil ko'k rangga nisbatan yorqin ranglar to'q ranglarga qara ganda og'irroq;
- oddiy shakllar noto'g'ri shakllarga qaraganda og'irroq ko'rinishi;
- ixcham shakllar tartibsiz diffuziyali shakllarga qaraganda kattaroq vizual og'irlilikka ega;
- vertikal yo'nalishga ega shakllar egilgan shakllarga qaraganda og'irroq tuyiladi.




2.2-rasm. Kartaning haqiqiy markazidan visual ko'rinish markazi birmuncha yuqorida joylashgan.

Oppoq bo'sh joy muvozanat bilan yaqindan bog'langan. Karta doirasidagi har qanday oppoq bo'sh joy kadr bo'lib, bu joy chizilmaydi. Oppoq bo'sh joyning ma'lum miqdori hamma sahifalar da emas, balki qoidaga ko'ra karta qiymati bo'yicha bitta sahifa da qoldirilib, bunda karta nomi, legendasi va masshtabi kabi talab qilinadigan boshqa elementlar uchun joy qoldiriladi. Ko'puncha katta bo'limgan kartani ko'rish mumkin, sahifalarining qolgan

qismi esa gabaritli bo'limgan og'irlilikning shimoliy tomoni katta strelkalar bilan, illustratsiyalar bilan to'ldirilgan (2.3-va 2.4-rasm-lar).

Karta aniqligining katta qismi qarama-qarshilikdan ke-lib chiqadi. Qarama-qarshiliklar yorqinlik va to'qlik, qalin va ingichka, og'ir va yengil o'rtasidagi farqdir. Faqatgina bitta chiziqning og'irlik koeffitsienti, bitta shrift o'lchami va bitta shrift bilan yaratilgan kartaga qarama-qarshilik (kontrast) yetishmaydi, ko'rish uchun zerikarli va o'qish qiyin bo'ladi (2.5-rasm). Ba'zi ilk kompyuter kartalarida kontrast yetishmagan, kerakli o'sha vaqtida foydalanilgan ploterlarning perosi bitta o'lchamli bo'lgan; chiziq kengligi faqatgina dasturlar va buyruq berishda juda katta qo'shimcha ishlarni bajargandagina o'zgartirilishi mumkin bo'lgan. Hozir albatta, murakkab dastur ta'minoti mavjud va zamonaviy printerlar juda katta xilma-xillikdagi shriftlar va chiziqlarni berish imkoniyatini beradi, shuning uchun kontrast bo'lmashagini hech ham oqlab bo'lmaydi.



2.3-rasm. Chap tomonagi komponovka yaxshi muvozanatga keltirilmagan o'ng tomonagi sahifada ko'p elementlar mavjud, lekin predmet sahifasi juda kam bo'sh kenglikni egallagan.

Kartaning butunligi (to‘liqligi).



Kartaning bir butinligi elementlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqaga tegishlidir. Markirovka ajralgan holatda tanlanmaydi. U har qanday fon ranglari va rang turlarida o‘qiladigan bo‘lishi kerak, tanlab olingan rasmlarni rad qilmasligi va karta mavzusiga muvofiq kelishi kerak (2.6-rasm). Bir butunlik shuni anglatadiki, tasvir bir-biriga bog‘lanmagan bitlar va bo‘laklar to‘plamidek emas bitta butun narsadek tasvirlanadi.




2.4-rasm. Bu kerakli kenglikdan samarali foydalanish va joylashtirishdir.

Uyg‘unlik.

Hamma elementlar birgalikda yaxshi ishlaydimi? Tanlab olingan ranglar to‘qnashuvi bormi? Ko‘zga og‘irlilik qiladigan modellar mavjudmi? Bir-birini to‘ldiradigan matnda shriftlar bormi? Karta yoqimli tashqi ko‘rinishga egami?



2.5-rasm. Rasmda chap tarafdan karta kontrasti yo'q; o'ng tarafda figura yaxshi kontrastga ega.




2.6-rasm. Kartaning hamma elementlarining bir-biriga bog'liqligi.

Bu geografik muammoni tahlil qilish uchun yaratilgan. Kartalarning muammo bo'lmasi mumkin, agar bu karta katta auditoriya uchun mo'ljallangan bo'lsa, kartaning ko'rinishi, uning ma'lumotlari yoki kartaning auditoriya tomonidan qabul qilinmasligi ahamiyatga ega. Qisqa qilib aytganda kartadan foydalananuvchilar yoqimli kartani avzal ko'radilar.

2.2. Dizaynga plan sifatida qarash. Planni shakllantirish

Dizayn qarorlar kartalar qabul qilish jarayonidir.

Ko'plab tanlovlardan vizualizatsiya yoki prezentsiya uchun samarali kartalar yaratilishiga xizmat qiladi. Dastlab so'rash uchun bir qator savollar mavjud. Bu savollarning javoblari proyeksiya va ramzlarni aniqlaydi, masshtab, rang, to'r va boshqa komponentlarni tanlab olishni belgilaydi. *Karta bu muammoning eng yaxshi yechimi hisoblanadi*. Karta eng yaxshi mahsulotmi? Shunday holatlar bo'ladiki, bunda jadval yoki grafik qulay bo'ladi. Umuman, agar subyekt kenglik komponentiga ega bo'lsa yoki kenglik munosabatlari muhum ahamiyatga ega bo'lsa karta yaxshi yechim bo'ladidi.



2.7-rasm. Bu kartalarni turli maqsadlari dizaynda o'z aksini topgan. Chap tomondagagi kartada oddiyigina hujud tasvirlangan, o'ng tomondagagi kartada esa mahsulot ishlab chiqarish tasvirlangan.

Kartaning maqsadi nima? Kartadan qanday foydalaniladi? Kartalar tadqiqot natijalarini ko'rsatish, axborotni saqlash, konsepsiyanini ko'rsatish uchun ishlab chiqilganmi?

Agar kartografi kartaning maqsadi haqida ma'lum tasavvurga ega bo'lmasa axborot ham aniq bo'lmaydi. 2.7-rasmida turli maqsadlar uchun mo'ljallangan bir xil asosiy predmetning ikkita kartasi ko'rsatilgan. Aksentlardagi farqlarga e'tibor bering.

Kartaning predmeti yoki mavzusi nima hisoblanadi?

Novigatsiya kartasi shunchaki joylarni tasvirlaydigan yoki aholi zichligini ko'rsatadigan kartadan ko'ra ko'proq talablariga ega. Mavzu va proyeksiyaning turi, masshtabni tanlash va umumlashtirish darajasiga bog'liqdir. Taqsimlash kartalari maydonlarning chegarasi buzilgan joylarini tasvirlashni talab qiladi, bug'doy taqsimotini ko'rsatuvchi kartada batafsil qirg'oq chegaralarini ko'rsatish shart emas, o'rtacha kenglikka ega hududlarni, masalan silindrsimon proyeksiyalarda taqdim qilish yaxshiroqdir. Bu mavzularning har biriga muvofiq keluvchi boblarda batafsilroq muhokama qilinadi.


Kartaning maqsadi nima? Karta tushuntiradimi, tarixdan hikoya qiladimi, ishontirish yoki tasvirlash uchun foydalaniladimi?

Kartalar ekspozitsion, ta'riflovchi, ishonchli yoki tavsiflovchi bo'lishi mumkin. Karta ilmiy va tadqiqot maqolalariga kiritilishining sababi, undan tushuntirish maqsadlari uchun foydalanildi; kartalar tarixni tushintirish va tarix haqida so'zlab berishi mumkin; siyosiy jurnal, reklama yoki gazetalardagi kartalardan ishontirish uchun foydalaniladi va ba'zi kartalar shunchaki tasvirlanishi mumkin, «Siz shu yerdasiz» degan ma'noda ham tasvirlangan bo'lishi mumkin. Bu mavzular rang, umumlashtirish va ramzlar (shartli belgilar)ni joylashtirish haqidagi boblari-da yana ko'rib chiqiladi. Ko'rinish turibdiki kartaning maqsadi, mavzusi va nimani nazarda tutishi bir-biri bilan yaqindan bog'langan.

Tinglovchilar kimlar? Tinglovchilarning o'ziga xosligi qanday? Tinglovchilarning yoshi qanday bo'lishi mumkin? Ular kartaning

*mavzusi bilan qanchalik tanish? Ular kartani qanchalik bilishadi?
Ularning ko'rish qobiliyati qanaqa?*

Ko'rish qobiliyati yaxshi bo'lмаган одамлар учун молжалланган карталар ко'rish qobiliyati yaxshi bo'lgan одамлар учун мұжассамланган карталар билан қиысландында улара түрліча талаблар қо'yилади. Мектеб дәрсلىктер учун түзилген карталар илмій ішледе қо'llаныладын карталардан ко'ра бoshqa талабларга ега (2.8-рasm).



2.8-rasm. Картада дизайни тингловчиларга сабаб о'згаради. О'нг таррафдаги карта мектеб о'кувчилари учун және изохловчи иборалар билан қорының аниқлауды; шап таррафдаги карта талаблар учун молжалланған және Kyoppen қорын шартлы белгилардан польдаланған.

Foydalanuvchilarning talablari qanday? O'quvchilar kartadan qanday foydalanadilar? Ular kartadan qayerda foydalanadilar? Kartani o'qish uchun sharoit qanday?

Стол атродида о'tирб картадан маслаҳаттар олинадими, машина һайдаб кетаютгандами, велосипед пойгасидами юки эталон сифатда польдаланыладими? Бу карталардан польдалувчиларга ети-ко'рларига ко'ра түрли хил талабларга ега болади. Машина һайдада маслаҳат олинадын такси һайдовчиси учун түзилген карта

turistik so'qmoq bo'ylab sayr qilishi uchun mo'ljallangan kartaga qaraganda boshqacha talablarga ega. Ko'p hollarda kartograflar o'zining tinglovchilarini nazardan qochiradilar. Bu kartadan kim foydalanadi va nima uchunligi kartograflarning ko'z oldida turishi kerak. Bu kanalizatsiya liniyalarini ko'rsatadigan karta-mi, joriy voqealarni ko'rsatadigan gazeta kartasimi yoki darslikka mo'ljallangan karta ekanligi yodida turishi kerak. Quruvchi, uchuvchi va talabaning kartaga bo'lgan talablari turlicha.

Kartaning formati nima?

Kartaning formatiga sahifa yoki ramkaning o'lchami va shakli hamda foydalanilgan ranglar kiradi. U karta ishlab chiqariladigan joy bilan bog'liq bo'ladi. Amerika geograflarining Yozuvlar assotsiatsiyasi, professional geograf va SA 915 kabi ko'plab professional jurnallar o'zlarining andozaviy formatiga ega. Usbu andozalar muharrirlar tomonidan jihozlanadi. Ko'plab jurnallarning har bir sonida illustratsiya talablariga binoan chop etiladi. Kitob ishlab chiqilgandan keyin san'at muharriri sahifa formatini belgilaydi. Dissertatsiya uchun kartalar universitet tomonidan o'rnatilgan ma'lum formatlarga ega, gazeta kartalari ustun o'lchamlariga muvofiq kelishi va biznes hisobotlari uchun kartalar hisobot yozilgan sahifaga to'g'ri kelishi kerak. Monitorda ko'rsatiladigan yoki ekranga uzatiladigan kartalar bosmadan chiqadigan kartalardan farq qiladi. GPS ekranlarda ishlatiladigan monitorlar, qo'l telefonlari va mp3 qurilmalari kabi yangi formatlar paydo bo'lgan. Ular kompyuter monitorlarining keng ekranlariga qaraganda boshqacha talablarga ega.

Monitorlarda va rangli printerlarda har doim rangli tasvirlar yaratish imkoniyati bo'lsa ham, bu har doim variant emas, jurnal va kitoblarni rangli nashr qilish hali ham qimmatdir. Ba'zi ilmiy jurnallar muallifdan rangli illustratsiya uchun pul to'lashni talab qiladi. Format vaqtini va pulni iqtisod qilishi kerak. Ranglar tasvirlanishi kerak bo'lgan karta oq-qora rangda ishlab chiqarilishi mumkin emas.

Qanday qilib ishlab chiqariladi?

Ba'zi kartalar ko'p mehnat bilan ishlab chiqarilsa ham, bugungi kunda ko'plab kartalar kompyuterlar yordamida ishlab chiqariladi. Ba'zi holatlarda kompyuter texnologiyalarining yetishmasligi sababli qo'lida chiziladi; boshqa holatlarda kitob illustratsiyasi uchun mo'ljallangan kartalarni rassom o'zi qo'lida chizishni afzal ko'radi. Kartani yaratishda pero va siyoh ishlatiladimi? Murakkab kompyuter texnologiyalaridan foydalanilganda ham dastlab karta haqida tasavvurga ega bo'lish kerak. Karta ishlab chiqarishda kompyuterlar uchun to'rtta turdag'i dastur ta'minoti mavjud: GAT, illustratsiya, taqdimot CADD (kompyuterda loyihalashtirish va tuzish), tasvirlash yoki bularning ba'zi kombinatsiyasi.

GATning dasturiy ta'minoti taqdimot kartalarining imkoniyatlariga ega kuchli analitik quroq hisoblanadi. GAT yordamida ma'lumotlar joylar bilan bog'lanishi va hisob-kitoblar qilinishi mumkin. Bunda ba'zi dizayn cheklovlarini va shartli belgi turlarining cheklovlarini mavjud bo'lib, bularni GAT yordamida yaratib bo'lmaydi. Bu muammolar vaqt o'tishi bilan hal etilishi mumkin.

Ba'zi GAT yordamida yaratiladigan shartli belgilarni qo'l mehnati bilan yoki dasturiy ta'minot yordamida yaratish oson emas. ADOBE/Illustrator yoki CorelDraw kabi taqdimotlar yoki dasturiy ta'minot illustratsiyalaridan grafika bilan shug'ullanadigan rassomlar foydalanadilar va yuqori ijodiy mahsulot olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shunga qaramay, bunday dasturiy ta'minot ma'lumotlarini tahlil qilish, hisoblash yoki joy bilan bog'lashni avtomatik tarzda bajarish imkoniyati yo'q. Agar bu imkoniyatlar zarur bo'limasa, dastur taqdimoti yaxshi tanlov bo'ladi. CADD illustratsiya dasturlari tahlil qilish imkoniyatini bermaydi. GATning cheklangan imkoniyatlariga ega va oddiy tahlil qilish hamda karta yaratish imkoniyatini beruvchi MICROSOFT Map point kabi ba'zi karta tuzish dasturlari mavjud bo'lib, ular loyihalashtirish va kompozitsiya tuzishda moslashuvchanlik imkoniyatini bermaydi. Ortelius va karta Publisher kabi ba'zi yangi karta tuzish dasturlari GAT va dizaynni birlashtiradi. Kimdir maxsus GAT yordamida uni dastur taqdimoti bilan uyg'unlashtirsa

odatda eng yaxshi tahlil va mahsulot taqdim qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday holatda «*Qanday qilib ishlab chiqariladi, bos-madan chiqariladimi yoki ekranda ko'rsatiladimi?*» degan savollariga javob berish kerak.

Uchta asosiy tasvirlash turlari mavjud: karta monitorda tasvir-ланади, ekranda namoyish qilinadi yoki qog'ozga bosib chiqariladi. Karta tasvirlarining taqdimot rejimi foydalilaniladigan ranglarga ta'sir qiladi, shuningdek, joylashuv va formatga ham ta'sir qiladi. Monitorda tasvirlashga mo'ljallangan kartaning ba'zi ranglari yo'qotilmasdan qog'ozda bosib chiqarish mumkin emas, ularda ranglar turlicha ko'rindi. Bu muammolarni hal etish yo'llari keyingi boblarda muhokama qilinadi. Qog'ozda bosib chiqariladigan kartalarni yaratishda, kartalarni nashr qiluvchi mashinalar, lazer printerlar, ofset bosmasida yoki boshqa usullardan foydalaniб nashr qilinadi.

Agar ofset litografiyasi bilan katta miqdordagi kartalar ishlab chiqarilsa, kartograf loyhalashtirish jarayonining boshida nashr texnologiyalari bo'yicha maslahatlar olishi lozim.

Qoidalar va kelishuvlar.

Kartalarni loyhalashtirishning butun bir tizimli an'analari va tavsiyalari mavjud, qoidalar esa uncha ko'p emas. Amaliyot jarayonida shartli belgilari qo'llanganda suv uchun ko'k rang, issiq uchun qizil rang va sovuq uchun to'q ko'k rang tanlanadi. Ushbu an'analarning mantiqiy sababi bor. Masalan, issiqlik uchun qizil rangdan foydalanish, qizil apelsin rangi va sariq ranglar issiq ranglar hisoblanishi hamda ko'k, yashil ranglar sovuq ranglar ekanligi haqidagi fikrlarga asoslangan.


Boshqa an'analar eski tartiblarga asoslangan bo'lib, bir necha yuz yillardan beri shunday ishlatilib kelingan. Masalan, tomlari qizil qoplama bilan yopilgan binolari mavjud tumanlarni qizil rangdan foydalaniб tasvirlanadi.

Kelishuvlarda qoidaga qat'iy rioya qilinmaydi, faqatgina ijobiy sabablarga ko'ra, ularni inobatga olmaslik mumkin. Issiq uchun ko'k rang va sovuq uchun qizil rangdan foydalansila, kartani

o'qishda chalkashlik bo'ladi, okeanlarni apelsin rangda berilishi kartadan foydalanuvchilarning g'ashiga tegadi. Boshqa tarafdan ifloslangan daryolarni jigarrangda ko'rsatish bilan ko'k suvlar an'anasi «buzilishi» mantiqiy hisoblanadi.

Intellektual va vizual iyerarxiya.

Kartadagi hamma obyekt ham bir xil ahamiyatga ega emas. Dizaynni rejalashtirish jihatidan intelliktual iyerarxiya o'rnatiladi. Buning natijasida kartaning maqsadi va vazifasi tartibga solinadi. Agar hamma elementlar bir xil bo'lsa, vizual kartani o'qish qiyin bo'lib qoladi; unda qarama-qarshilik yetishmaydi. Biz ko'rib chiqqanimizdek karta chiziqli hisoblanmaydi va matn kabi yuqoridan pastga va chapdan o'ng tomonga qarab o'qilmaydi. O'lcham, rang orqali vizual iyerarxiyani yaratish, o'quvchiga kartani o'qisida yordam beradi (2.9-rasm). Shu asnoda, kartograf e'tiborini nomga qaratish uchun katta turlardan foydalanadi, sohalarni ta'kidlab qizil yoki qora kabi «og'ir» ranglardan foydalilanadi.



2.9-rasm. Vizual iyerarxiyani o'lhash.

Vizual iyerarxiyaning muhim jihatlaridan biri shakldir. Grafik axborot uzatishda bitta soha shakl sifatida ajratiladi, boshqasi asos yoki fan bo'ladi. Shaklda yer va quruqlik ajratilmasa kommu-

nikatsiya bir xil bo'lmaydi; bu ko'plab optik illuziyalarning asosi hisoblanadi (2.10-rasm).




2.10-rasm. Taniqli optik illuziya. Vazalar soni ikkitami yoki ikkita profilm?


Agar vizual rangning iyerarxiyasi aniq bo'lmasa, fanni xira bo'lishiga olib kelishi mumkin. Mavzuga oid axborot va predmet sohasi kartalari uchun qoidaga ko'ra, shakl va bazaviy axborot asos bo'lib xizmat qiladi. Yer va suv o'rtasidagi farq yerning shakliga tegishli bo'lgan muammoning asosiy omili hisoblanadi. Qoidaga ko'ra, yer rasmida ko'rsatilgandek ajratib ko'rsatilishi kerak, lekin agar yer va suv bir xil vizual jihatga ega bo'lsa, o'quvchi yo'nalishni olishga qiynaladi (2.11-rasm).

Yozuvlar quriqlikda va suvda bo'lganligi tufayli, agar hudud bilan tanish bo'lmasa qaysi yer va qaysi suvligini ajratish mumkin emas (2.12-rasm). Yer usti suvlarining farqlarini ko'rsatishning bir necha usullari ko'rsatiladi. Suv bir necha yuz yilliklar davomida gravirlangan kartada suv ramzini beruvchi oddiy usul bilan berilgan. Agar qadimgi hissiyotlarni yaratishga harakat qilinmasa, bu usul yaroqli hisoblanmaydi. Buni o'qish qiyin va agar ular

hech qanday son ifodalariga ega bo'lmasa, chuqurlik konturini o'qib olish mumkin.



2.11-rasm. Bu rasmda suv-yer o'rtaсидаги farq tushunarli emas.



2.12-rasm. Shakllar va yerni farqlash usullari (yer-suv).

Yana bitta oddiy uslub bo'lib, u asosan qo'l mehnati yordamida oq-qora kartalarni chizish uchun ishlatiladi. Bu oson va yaxshi bajariladi, lekin o'quvchi qumloq uchastkalarni ifodalovchi nuqtalarni interpretatsiya qilib olishi kerak. Chiziqli va to'lqin-simon shakllardan ham foydalansa bo'ladi, lekin ushbu chiziqlar o'quvchi ko'zlar uchun qiyinchilik tug'diradigan noxush vibration effektni yaratadi.

To'lqinsimon va chiziqli shakllar unchalik ma'qul emas, ulardan multfilmdagi kartalar yoki ba'zan illustratsiya uchun mo'ljallangan kartalarni tuzishdagina ishlatiladi. Bundan tashqari to'lqinli qismlarni ko'rish uchun qiyinchilik tug'diradi. Ushbu kartalar bolalar uchun mo'ljallangan bo'ladi.

Yer va suvni farqlash uchun rang va ton eng yaxshi tanlov hisoblanadi. Suv uchun ko'k rang eng ko'p tarqalgan an'anadir. Qora okean kartalarida samarali tarzda ishlatilgan, lekin bunda akvatoriyalarga juda katta e'tibor berilishi va xuddi rasmdagidek ajratib ko'rsatilishi zarur.

Yechimni qidirish.

Kartani yaratish fazoviy masalalarning yechimi hisoblanadi, ushbu ma'lumotlarni qanday qilib samarali tarzda tasvirlash yoki tahlil qilish va foydalanuvchi tomonidan qanday qabul qilinishi, kartograf oldidagi muammolardan biri hisoblanadi.


Ushbu holat uchun samarali hisoblangan bir qator, turli xil yechimlar mavjud. Ba'zi ma'lumotlarda ikkita yoki undan ortiq kartalardan foydalanish samarali bo'ladi. Internet uchun multi-medik yoki animatsiya taqdimotlarini yaratish mumkin. U yerda bitta ham «eng yaxshi» karta yo'q. Agar karta yaratish uchun bitta to'g'ri usul olinsa, unda hamma mamlakatlarni topografik kartalari bir xil ko'rinishga ega bo'lardi. Bu kartalarni ko'rib chiqish shuni ko'rsatadiki, ular ba'zi o'ziga xosliklarga ega bo'lib, Shvetsiya, Amerika, Gollandiya kartalari o'rtasida katta farq mavjud. Masalan, nemis va Meksika topografik kartalarining mazmuni boshqa mamlakatlarnikiga nisbatan farq qiladi. Hamma mamlakatlar o'zining hududi uchun nima (eng samarali) to'g'ri ke-

lishini o'zi belgilaydi. Garchi ba'zilar kartani o'z davlati uchun to'g'ri kelmaydigan karta deb hisoblasa ham bu vazifani bajarish uchun yaroqsiz, yaxshi ishlab chiqilmagan karta, «o'ziga tortadi-gan emas» deganini anglatmaydi.

Shvetsariya topografik kartalari.

Shvetsariyaning tog'li hududlarini chiroyli tarzda tasvirlash mumkin, lekin xuddi shu metod Niderlandiyaning tekis topografiyasini tasvirlashda ish bermaydi.

Kartografik muammolar aniqlanib va tushunib olingandan keyin yechimni qidirish boshlanadi. Hamma kartalar illustratsiya dasturlari yoki GAT yordamida yaratilayotgan bo'lsa ham qo'shimcha eskizlar katta yordam beradi. Bu eskizlar kartaning grafik tasvirini yaratishga yordam beradi. Ilk bosqichda ular juda tushunarli bo'lmaydi, reja shaklga ega bo'lishi bilan bu eskizlar karta maketini shakllantirishi uchun kengaytiriladi. Bunday eskizlarni yaratish vaqtini behuda sarflash emas, balki vizual fikrlash hisoblanadi (2.13-rasm). Albatta, kompyuterlar yechimga tez ishlov berish imkonini yaratadi va elementlar osonlik bilan siljitaladi.



2.13-rasm. Vizual fikrlash eskizlarining miniaturasi.

Yechimlarni nafaqat turli elementlar pozitsiyalari haqida qabul qilishadi, balki bu shartli belgilarning turlari haqida bo'lib, ular

rang, kartaning mashtabi, shunindek turi va o'lchami uchun ishlataliladi. Agar hamma elementlar uyg'un tarzda ishlashini ta'minlash zarur bo'lsa ham yechimlarni qabul qilish tugamaydi, tasvirlash jarayonining har bir bosqichida dizaynni tahlil qilish va uni qayta ko'rish maqsadga muvofiqdir.

Dizaynga qo'yiladigan cheklovlar.

Boshqa grafik dizaynerlar kabi kartograflarda dizayn erkinligi bo'lmaydi. Birinchi cheklov taqdim qilinadigan hudud shakli hisoblanadi. Mazkur formatga to'g'ri keladigan qilish uchun hududning shaklini o'zgartirish mumkin emas. Hudud tanib bo'ladigan darajada qolishi kerak. Sahifadagi turli xil proyeksiya va oriyentatsiyalar ba'zi moslashuvlarni ta'minlaydi, lekin oldindan ishlatib kelingan proyeksiya kartaning maqsadini tasvirlash uchun to'g'ri keladigan bo'lishi kerak.


Format va masshtab ham ushlab turiladigan omil hisoblanaadi. Kartograflar kartalarni ishlab chiqish uchun ma'lum formatga muvofiq keltirishi zarur. Karta muharrir tomonidan rad etilishi kerak emas. Kartograf kartani ma'lum masshtabda yaratishi talab etiladi va bu qanchalik katta maydonni qamrab olishiga ko'ra belgilanadi. Matn hajmi ham karta dizaynida cheklovlarni talab etadi. Ba'zi kishilar kartalar yozuvlarsiz yaxshi ko'rindi deb hisoblaydilar, lekin qoidaga ko'ra, toponimlar, legendalar va matnlar hududning o'ziga xosliklarini oddiylashtiradi va belgilaydi.

2.3. Karta elementlarining dizayni (kompozitsiyasi)

Asosiy elementlar.

Loyihalash va shartli belgilarni tuzishga oid qarorlar qabul qilingandan keyin, karta elementlarining kompozitsiyasi yoki joylashtirish jarayoni boshlanishi kerak. Kartograf kartaning sohasi, nomi, legendasi, mashtabi, koordinatalar to'ri yoki shimol yo'nalishi, qo'shimcha matnlar, karta ramkasi, chegara va joylashtiriladigan obyektlar kabi asosiy elementlari bilan ishlashi kerak (2.14-rasm). Ushbu jarayonda yuqorida keltirilgan va boshqa

qo'shimcha hamda yordamchi elementlarning barchasi bir vaqtning o'zida kartada tasvirlanmasligi mumkin.



2.14-rasm. Karta dizaynini tuzish uchun ishlatalishi mumkin bo'lgan elementlarga ega umumiy karta.

Obyekt maydoni.


Obyekt maydoni vizual iyerarxiyaning asosiy elementidir, ya'ni sahifadagi eng muhim elementlardan biri hisoblanib, sahifaning vizual markaziga joylashtiriladi. Shuningdek, kadr ichidagi kenglikning eng katta qismini egallaydi. Ko'pincha uning intellektual iyerarxiyadagi joyi 2.12-rasmda ko'rsatilgani kabi, predmet sohasining asosini tashkil qilib, uning atrofidagi obyektlardan yuqori ko'tarish uchun ta'minlanadigan grafik metodlar bilan ta'kidlab ko'rsatiladi. Rasmga qarab, yerning quruqlik qismi atrofdagilardan baland ekanligini tushunishi kerak. Karta shuningdek hududning «joy hissiyotini» ta'minlashi kerak.

Kartaning mavzusi.


Ko'plab kartalar o'z nomiga (mavzusiga) ega. Agar karta bita o'zi bo'lsa, uni kitobga emas alohida varaqqa bosib chiqariladi,

kartaning nomi karta varag'iga yozib qo'yilishi kerak. Agar karta kitobga, hisobotga, dissertatsiyaga bosib chiqarilsa, unda kartaning nomi kartada yoki illustratsiyaning pastki qismida sarlavha sifatida aks ettirilishi mumkin. Yozuv kartaning nomini tushuntirish yoki aniqlashtirish uchun xizmat qiladi. Karta nomlarini ko'rib chiqishda 3 ta jarayon mavjud: shakllantirish, joylashtirish va shrift turini aniqlash (tanlash). Dastlab o'quvchi kartaning mavzusini o'qish orqali uning maqsadi va vazifalari haqida tu-shunchaga ega bo'ladi. Kartaning nomini joylashtirish karta marketining bir qismi hisoblanadi.

Ko'pchilik kartaning nomi kartaning yuqori qismiga joylashtirishi mumkin emas deb hisoblasa ham, sahifaning xohlagan joyiga joylashtirishi mumkin, bunda kartaning nomi vizual iyerarxiyada joylashishi talab etiladi. Qoidaga ko'ra bu kartadagi eng muhum shakllantirish va muvozanatlashtirilgan kompozitsiyani yaratish kerak. Karta hududining shakli ko'p holatlarda umumiy kompozitsiyada sarlavha uchun tabiiy joyni ta'minlaydi (2.15-rasm).



2.15-rasm. Ba'zi hududlar bilan dizayn sohasida oson ishlanadi.
1-hududda mavzu va legendalar uchun tabiiy joylar ta'minlanadi,
2-hududda esa bunday emas.




2.16-rasm. Shartli belgilari legendadagi kabi ko'rinishi kerak, aks holda matn yoki karta o'quvchilarni adashtiradi.

Legenda.

Legendalar dizaynning kichik muommolaridan biridir. Sarlavha dizayni kabi legenda dizayni bir nechta qismlarga egadir: mundarija, matn, joylashuv va tur. Birinchidan, legendadagi har qanday shartli belgi kartadagi shartli belgilari kabi ko'rinishi kerak. Masalan, miniaturalashtirish o'quvchini chalg'ishiga olib keladi (2.17-rasm). Odatda bolalar darsliklaridagi kartalarda qilinadigan va ba'zi ilk kompyuter kartografik dasturlarida ko'rilgan kabi kenglik legendasi nomlari shart emas. Bu kartaning nomini «karta» deb qo'yishdek gap; u ortiqcha hisoblanadi. Garchi bu bolalar kartasi uchun o'quv qo'llanma bo'lib xizmat qilsa ham kenglikni bekorga sarf qilishdir. Legendaning nomi karta obyekti haqidagi bat afsil axborotni taqdim qilishi mumkin va materialni legendada tushuntirishi kerak (2.17-rasm). Masalan, agar karta Buxoro viloyatidagi o'rtacha daromadni ko'rsatadigan bo'lsa, legenda «daromad, so'mda» deb nomlanishi kerak yoki agar kar-

taning nomi shunchaki «viloyatdan keladigan daromad bo'lsa» legendanining nomi «o'rtacha daromad, so'mda» bo'lishi mumkin. Legendalarni joylashtirish boshqa dizayn elementlari kabi muvozanat va oppoq kenglik bilan belgilanadi. Garchi ba'zi kompaniya va agentliklar karta seriyalari uchun o'zlarining yo'riqnomalari bilan ta'minlanadi. Tamoyillarni yaratish mumkin bo'lsa ham legendani joylashtirish bo'yicha umumiy qoida yo'q. Legenda yozuvining turi, karta nomlari kabi bo'lishi mumkin emas, lekin shriftlar bir-birini to'ldirishi kerak. Ba'zi shriftlar birgalikda qo'llanilsa, yaxshi samara bermaydi.




2.17-rasm. «Legenda» so'zi (o'ng tarafdagи kartadagi) hech qanday maqsad uchun xizmat qilmaydi va uni ta'riflovchi nom bilan almashtirish yaxshiroq.

Masshtab.

Bu bo'limda biz masshtabni hisoblash va tanlash haqida emas, uning konstruksiyada joylashuvi haqida gaplashamiz; masshtabni tanlash va hisoblash 5-bobda ko'rib chiqiladi. Shkala grafik jihatidan ifodalanishi mumkin; masshtablar yoki chiziqli shkala «l

duym 1 mil ni ifodalaydi» kabi og'zaki tushuntirish sifatida yoki 1:62500 kabi kasr ko'rinishida. Grafik masshtab ko'pincha dizayn muommolarini keltirib chiqaradi. Birinchidan shkala karta fokusi emas. O'quvchi uchun yordamchi hisoblanadi. Ikkita maqsaddan bittasi uchun xizmat qiladi: o'lchamlilik yoki o'lchash.


Mavzuli dunyo kartasida masshtab umumiy o'lchamda ko'rsatiladi, shuning uchun o'quvchiga aniq o'lcham zarur; yirik masshtabli kartalarda o'quvchi aniq masofani bilish kerak bo'ladi.



2.18-rasm. Yirik masshtablar ko'rinishi. Shkalali masshtablar karta uchun yordamchi element hisoblanadi.

Qandaydir kompyuter dasturi masshtabni aftomatik tarzda qo'yadi, bu kartani to'ldiradi va o'quvchi sezadigan birinchi holatdir (2.18-rasm). Shkala zaruriy ko'rsatmalarni berishi uchun yetarlicha

uzun bo'lishi kerak, lekin 6 duymli kartada 4 duymli uzunlikdag'i shkala ortiqcha hisoblanadi. Ikkinchidan masshtab boyitilmagan bo'lishi kerak. Boyitilgan tarzda bezatilgan masshtablar XVIII asrlardagi kartalarda mashhur bo'lган, bu kartalarda shuningdek, suv parisi, dengiz ilonlari va kemalarning rasmlari ham bo'lган. Agar siz qadimgi kartalarni o'xshatishga harakat qilmayotgan bo'lsangiz, bunda hamma bezaklardan qochishingiz kerak. 2.19-rasmda mos keladigan masshtablarga misollar ko'rsatilgan.



2.19-rasm. Grafik masshtablarning turli ko'rinishlari.


Masshtab legendaning sohasiga kiritilishi mumkin yoki u alohida bo'lishi mumkin. Karta nomi va legenda kabi masshtab muvozant hamda oydinlik uchun joylashtiriladi.

Oriyentirlash.

Oriyentatsiya yo'nalishni ko'rsatishga qaratilgan bo'ladi. Bu ko'pincha masshtab turi (kenglik va uzoqlik chiziqlari)ni chizish yo'li bilan yoki shimoliy strelka bilan bajariladi. Umuman olganda shimol kartaning yuqori qismida bo'lishi kerak bo'lsa ham aslida bunday bo'lmasligi ham mumkin. Shimol doim ham kartaning eng yuqori qismida bo'lmaydi. Yevropaning MUNDI kartasi-


ning (dunyo kartasida) yuqoriga sharqiy qism joylashtirilgan, shunga ko'ra kartada «yo'nalishni olish» imkoniyatiga egamiz. Ilk Xitoy kartalarida kartaning janubi eng yuqori qismda joylashtirilgan. Hozirgi vaqtadagi yo'rqi nomalarda agar ko'rsatmalar ko'zi ojiz insonlar uchun bo'lmasa shimol yuqori qismda deb taxmin qilinadi. Bunda qandaydir oriyentatsiya belgisi ham bo'lmasligi kerak. Ushbu holat shimoliy strelkalar yo'nalishini oson va tez ko'rsatish usuli bo'lib, ehtiyyotkorlik bilan ishlatish zarur. Shimol ko'rsatkichlari hamma kartalarga to'g'ri kelmaydi. Shahar yoki shahar tashqarisida katta bo'limgan uchastka uchun ular foydali qo'llanilishi mumkin, lekin dunyo kartasi yoki yirik regionlar uchun ular yaroqli bo'la olmaydi. Agar kartadagi meridianlar (shimoli-janubiy chiziqlar, qing'ir yoki tarqalgan bo'lsa shimoliy strelka bitta nuqta uchun yoki bitta chiziq bo'ylab yagona to'g'ri strelka hisoblanadi. 2.20-rasmda ko'rsatilgan konussimon strelka ishlatishi mumkin emas.

Afsuski shimol ko'rsatkichidan noto'g'ri foydalanish umumiy xatoga olib keladi. Dunyo tomonlarini (shimol, janub, sharq, g'arb) ko'rsatadigan kompasdan navigatsiya kartalari uchun foydaliladi va qoidaga ko'ra mavzuli kartalar uchun to'g'ri kelmaydi.




2.20-rasm. Kartada kenliklar tasvirlangan bo'lsa, shimol ko'rsatkichlari tasvirlanmaydi. Konusli proyeksiyada ular tasvirlanmaydi.

Agar shimoliy strelkalardan masshtab kabi foydalanilsa, bu o'quvchi uchun yordamchi vosita hisoblanadi bu kartada ustunlik qilmasligi kerak. Ko'plab kompaniya yoki agentliklar strelka markazi uchun katta bo'limgan logotipdan foydalanadi va bu samarali bo'lishi mumkin, lekin kartani yopib qo'ymasligi kerak. Turli xil kompaslar bo'lib, ularning yo'nalishlari shimolni ko'rsatadi (2.21-rasm). Agar kartada parallelellar va meridianlar tasvirlangsana shimol yo'nalishlari ortiqcha hisoblanadi.



2.21-rasm. Shimol ko'rsatkichlari va kompas belgilari.


Parallelellar va meridianlar sonini tanlash, karta masshtabi va uning maqsadiga bog'liqdir. Navigatsiya kartasi umumiylas kartasiga qaraganda ingichka to'rlarni talab qiladi. Atlas kartasida masshtab turlari o'quvchiga joyni topishga yordam beradi. Mavzuli kartalarda koordinatalar to'ridan foydalanish mumkin, chunki o'quvchi aniq joylashuv joyini aniqlashga harakat qilmaydi. Agar tik to'rlardan foydalanilsa ular kartaning hamma tomonlarida ko'rsatilishi kerak (2.22-rasm).



2.22-rasm. Kartaga to'rlarni joylashtirish va tasvirlash.

Karta qirqimi.


Karta bo'limgan kartaning qirqimi asosiy karta tarkibida va asosiy karta kadri doirasida ishlatiladi. Kiritilmagan mashtab olish kartaning katta bo'limgan uchastkasiga e'tiborni tortishi yoki kuchaytirishi o'quvchiga tanish bo'limgan sohani o'rganish uchun aniqlashtirishda foydalaniladi. Karta qirqimlari murakkab konstruksiyalarni va kompanovka muommolarining yechimida juda foydali bo'lishi mumkin, lekin ulardan ko'p foydalanib bo'lmaydi (2.23-rasm).



2.23-rasm. Ramkalar ichiga foydali ma'lumotlar va kartalarni o'rnatish.
Bu esa kartaga tartib bag'ishlaydi.

Agar juda ko'p kiritmalar yaratilsa dizayn bir butun ko'rinnmaydi, ya'ni tartibli ko'rinishda bo'lmaydi.


Ba'zi tumanlar berilgan formatda oson chizilmaydigan noto'g'ri shakllarga ega. Alyaska shunday joylardan biridir. Agar butun Alyaska shtatini «portret» formatidagi sahifaga joylashtirilsa karta juda kichkina bo'lib, ma'lumotlarni ko'rsatish qiyin bo'ladidi; Aleutlar uchun kiritmalardan foydalanilsa, unda karta katta bo'lib ketishi mumkin. Agar qirqim assosiy kartadan boshqa mashtabda bo'lsa, o'lchamlardagi chalkashlikdan qochish uchun mashtab kartada ham, qirqimda ham joylashtirilishi mumkin.



2.24-rasm. Karta qirqimining geografik joylashuvi. Karta qirqim kartadan foydalanuvchiga noma'lum obyektlarni o'qish uchun xizmat qiladi.

Alyaska va Gavayi orollari kartalarining qirqimlaridan ko'pincha 50 ta Qo'shma Shtatlarni tasvirlovchi kartalarda foydalanildi. Bu esa, bolalar uchun muammo yaratadi, ular Alyaska va Gavayi 48 ta chegaraviy davlatlardan janubda joylashganligi va Alyaska orol ekanligiga ishonishi kerak. Bu muammo 2 ta davlatlarni ajratib turadigan Shimoliy Amerika va Tinch okeani-


ning qirqmalari yordamida hal qilinadi. Bunday turdag'i qirqim kartalaridan har qanday turdag'i viloyat uchun foydalanilib, buni o'quvchi uchun notanish deb hisoblashimiz mumkin (2.24-rasm). 2.25-rasmida markaziy zona detallarni ajratib bo'lmaydi; agar karta viloyatni batafsil ko'rsatish uchun yetaricha kattalashtirilsa, u formatga muvofiq kelmaydi; agar faqatgina viloyat atrofi ko'rsatilsa, o'quvchi yo'nalish ololmay qoladi. Yechimlardan biri maydonni kattalashtirib, uni qirqim sifatida taqdim qilishdir.



2.25-rasm. Ajratib ko'rsatilgan joy aniqroq ma'lumotni ko'rsatish uchun zarur.

Yordamchi matnlar va illustratsiyalar.

Shunday matnli qo'shimcha elementlar borki, ular kartada joylashishi shart. Boshqa mutaxassislar tomonidan yaratilgan kartalardan foydalanishga asoslangan miqdorli kartalar uchun shaxsiy ma'lumotlar ushbu usul bilan tasvirlanadi. Ushbu amallar kitoblardan ko'chirib olishda ham qo'llaniladi. Yana boshqa qo'shimcha matnlar borki, ular loyihalash nomini va bu orqali kartadan foydalanuvchilar kartadan foydalanish darajasini va aniqligini bilib oladilar. Boshqa kartaning elementlari kabi ular kartaning aniq va ravshanligini ta'minlaydi. Kompyuterlar orqali rasmlar va matnlarni joylashtirish karta va atlaslarning o'zgacha ko'rinishi va ommabopligrini ta'minlaydi.



2.26-rasm. Tasvirlar va rasmlar kartaga nisbatan qiziqish ortishini ta'minlashi mumkin. Montichelldan Virdjinyaning ma'lum qismi pero va tushda qo'l bilan alohida tasvirlangan. Norman J.W.Thrower tomonidan tuzilgan karta.

Bu albatta samarali bo'lishi mumkin, lekin ulardan foydalanishda ehtiyyotkorlik talab etiladi. Keragidan ko'proq ma'lumotlar, kartaning o'qilishiga yoki uni loyihalashtirishga ta'sir qilishi mumkin. Shunday atlaslar borki, ularda kartadan ko'ra matnlar ko'proq. Kartadan foydalanuvchilar bunday karta va atlaslarga boshqacha nazar bilan qarashlari mumkin. Xulosa shuni ko'rsatadiki kartaning maqsadiga ko'ra ma'lumotlarni joylashtirish kerak. Ushbu qo'shimcha tuzilayotgan kartani to'ldiradimi yoki tartibsizlikka olib keladimi? Kartadagi rasmlar kartada predmet sifatida illustratsiyalanadimi yoki ular ortiqchami? Kartografiya tarixida kartalarga dekorativ tasvirlarni ham joylashtirishgan. XVII asrda

«Blaeu» nomlanuvchi atlasning har bir kartasi atrofida binolarni tasvirlovchi chizmalar tasvirlangan; XVII asrning oxiri va XVIII asrning boshlarida yaratilgan kartalarga allegorik shakllar qo'shilgan. XIX asrda yaratilgan atlaslarda esa, tarixiy voqealarni ta'riflab beruvchi tasvirlar mavjud. 2.27-rasmida tasvirlangan kartada pero va ruchka bilan tasvirlangan binolarning andozalari mavjud.

Ramkalar va tartibli chiziqlar.

Tartibli chiziqlar kartani boshqa ma'lumotlardan ajratgan holda ularni karta ramkasining ichiga jamlaydi hamda karta atrofida-gi barcha tavsiyotlarning chegarasidir. Ushbu chiziqlar 2.15-rasmida kartaning umumiyo ko'rinishida tasvirlangan. Kadr va to'g'ri chiziqlardan foydalanish borasida bir qancha qarama-qarshiliklar mavjud. Ko'pchilik karkassiz kartalar ularning varag'iga «ozodlik» bag'ishlaydi desalar, boshqalar esa kadr karta varag'iga barqarorlik beradi deb hisoblaydi. Bularning barchasini ahamiyatlilik darajasi shaxsiy qarashlarga bog'liq bo'lib, bu yerda kartalardan qayerda foydalanish, ulardan kimlar foydalanishi va qaysi kompaniya hamda agentliklar uchun mo'ljallanganligiga qarab, karta seriyalari tuziladi.

Kartaning umumiyo ko'rinishi va o'zaro bog'liqliklar.

Kartograflar kartaning umumiyo tashqi ko'rinishini inobatga olishlari kerak. Kartalarga ko'pgina miqdordagi shartli belgilarni yuklashimiz mumkin, ammo ular kartaning yaxshi o'qilishiga to'sqinlik beradi. Bularning barchasi karta mavzusini illustratsiyalash uchun zarur bo'lishi mumkin. Ko'plab ma'lumotlarni o'zida jamlagan kartalarda mavzularni ajratish va shartli belgililar orasida ziddiyatlar vujudga kelishi sababli o'quvchining diqqatini oshiradi.

Innovatsion uslublar va stillar grafiklarga nisbatan ustun bo'lganda grafiklardan tortib toki nuqtalargacha dizayn qilish oson bo'ladi. Kartada shartli belgilarni jozibador ko'rinishni aks ettiradi, ammo shartli belgilarning sekinlik bilan paydo bo'lishi natijasida ma'lumotlarni yo'qotishga sabab bo'lishi mumkin. Bunday holatda innovatsiyaning yo'qolishi kelib chiqmasligi kerak.

Kartaning manzaraliligi (ko'rkamligi).

Kartaning umumiy tashqi ko'rinishi mavjud jihatlar, ya'ni oxirgi yillarda keraksiz deb topilgan aspektlaridan biri bu kartaning ko'rkamligi (chiroyi)dir. Eski kartalarni devorlarga osishda ularning bejirim ko'rinishlari va ramkaga solinganligiga qarab baholanardi, bunday holatlarda ilgari kompyuterlarda yaratilgan, bir qancha tuzatishlar kiritilishi lozim bo'lgan kartalarning ko'rinishlarini tasvirlash juda mushkul. Albatta, kartalarning chiroyi va ularning ko'rinishlari, standartlarini aniqlash juda qiyin, lekin kartadan foydalanuvchilar uning estetikasiga e'tibor berishadi. Hozirgi zamonaviy kartalarda harflar naqshli ko'rinishlarda, mukammal shartli belgilar hamda boshqa murakkab obyektlarda tasvirlansada, an'anaviy usulublarda (eski kartalar) yaratilgan kartalarning jozibadorligi haligacha saqlanib qolgan. Bir qancha norasmiy kartalarda naqshlarning yetishmovchiligi uchrab turadi, chunki ulardag'i naqshlar o'rinsiz va chalg'ituvchi hisoblanadi. Ushbu kartalar bashang va chiroyli hisoblanadi.

Keng qiziqishdagi predmetlarni tasvirlash uchun ishlab chiqilgan katta formatdagi kartalar, ya'ni «National Geographik» kabi maxsus kartalarni tuzishda naqshlardan foydalanish samarali natija beradi. Ko'rib chiqqanimizdek, naqshlar kartaga vizual jozibadorlik bag'ishlaydi va kartadagi ma'lumotlarning obzorli ko'rinishini saqlab qoladi. Ko'plab kartalar aniq bo'lishiga qaramasdan xira bo'ladi. Sifatli kartalar esa, ko'rish va foydalanish uchun qulay hisoblanadi.

Bir qancha tashkilotlar, geograflarning maxsus kartografiya guruhlari karta dizayniga homiylik qilib, musobaqalar tashkil qilib turishadi. Ularning veb-sahifalari haqidagi ma'lumotlarni Internet tarmoqlaridan topishingiz mumkun.

Kartalarni muhokama qilish.

Foydali odad (va ko'pgina kompaniya va agentliklarning umumiy qabul qilgan amaliyoti), ya'ni tuzilgan karta texnik talablarga mos kelishi uchun nazoratdan o'tkazilishi kerak: ranglardan foydalanish, shriftlar, chiziqlarning vazni, statistik tartibi. Bu kar-

tografga kartani qayta ko‘rib chiqish va yangilash ishlarini kamaytirishga yordam beradi.

Kartalarni tanqid qilish.

Kartalarni loyihalash, tahrir qilish va nashrga tayyorlashning oxirgi vazifasi, bu ularga tanqidiy nuqtayi nazardan qarash hisoblanadi. Bunda kartaning har bir elementini nazorat qilishingiz va oxirgi baholash ishlarini olib borishingiz mumkin.

Takrorlash uchun savollar:

1. Kartalarda dizayn qanday qarorlarni o‘z ichiga oladi?
2. Vizual og‘irlilik qanday tarzda farqlanadi?
3. Kartaning elementlarini sanab bering?
4. Kartaning maqsadi nima?
5. Kartaning formati nima?
6. Legendalarini joylashtirish dizaynning boshqa elementlari kabi qanday elementlar bilan belgilanadi.

3-bob. KARTADA MATNLI MATERIALLAR VA ULARNI JIHOZLASH

Yozuvlarni loyihalash.

Kartalar qoidaga ko'ra simvolik xarakterga ega bo'lsada, ko'pchilik kartalarda matnli materiallar uning mazmunini tashkil qiladi. Kartalarda, yozuvlar to'rtta maqsadga ko'ra xizmat qiladi: (1) tasvirlash uchun, (2) tushuntirish uchun, (3) markaz yoki punktlarni tasvirlash uchun, (4) miqdorli va sifatli miqdorlarni tasvirlovchi shartli belgi sifatida. Kartalardagi yozuvlar geografik kartalarning muhim elementi hisoblanib, katta ma'noni anglatadi. Rasm va shrift o'lchami obyektlarning sifat va miqdor tavsifini aks ettiradi. Kartadagi yozuvlar 3 ta guruhga ajratiladi: topografik, atamlar va izohlovchi yozuvlar. Kartada gidrografiya obyektlari, tuproq, o'simlik qoplami va ijtimoiy-iqtisodiy obyektlarning nomlari yoziлади, бироқ картага юйлаштирилган hamma obyektlar ham o'z nomlari bilan yozilmaydi. Masalan, umumgeografik kartalarda daryo va tog'larning bir qismi nomlari yozilmasdan berilishi mumkin.

Kartalardagi yozuvlarning to'rtta asosiy aspekti mavjud: matnlarni ifodalash, joylashtirish, ajratish va tahrirlash. Izohlovchilarga kartada tasvirlangan obyektlarning turi yoki ko'rinishini ko'rsatuvchi yozuvlar kiradi. Obyektlarning sifat va miqdor tavsifini beruvchi yozuvlar bu daryolar kengligi va chuqurligi, daraxtlarning turi, aholi yashash joylaridagi uylarning soni va shu kabilalar. Izohlovchi yozuvlarga shuningdek, kartalardagi va karta ramkasidan tashqaridagi jihozlashdagi geografik obyektning (dengiz, bo'g'oz, tog' va shu kabilalar) turini belgilovchi geografik iboralar ham kiradi. Agarda matnlarni chuqr o'ylab, loyihalashtirilmasa, ular kartaning dizayniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

3.1. Matnli materiallar


Kartaning mavzusi.

Kartalarning nomlari muvofiq keluvchi kartografik shriftlar bilan yoziladi. Yirik masshtabli topografik kartalarni tuzishda obyektlarning nomlari va ularga tegishli bo'lgan izohlovchi


yozuvlari va tasniflari har bir element tuzilgandan keyin originalga yoziladi. Mayda masshtabli umumgeografik va mavzuli kartalarni tuzishda nomlar butun karta mazmuni tuzilgandan keyin yoziladi. Kartadagi hamma yozuvlari to‘g‘ri joylashtirilishiga va yaxshi o‘qilishiga alohida e‘tibor berish zarur. Yozuvlari muvofiq keluvchi obyektlarning yonidagi bo‘s shoylarga joylashtiriladi. Yozuvlari karta tarkibidagi asosiy elementlarni kesib o‘tmasligiga e‘tibor berish lozim. Nomlarning yozuvlari qo‘l bilan harflarning balandligi, shrift tavsifi va yozuvning uzunligiga rioya qilib kartalarning originalini yaratishda bajariladi. Kartalarni tuzishda geografik obyektlarning yozuvlarini tanlashni 5-bobda bayon qilin-gan kartografik umumlashtirishning asosiy omillari belgilaydi.

Kartalarni tuzishda, ayniqsa, topografik kartalarni tuzishda mahalliy nomlarni to‘g‘ri yozish va boshqa nomlarni to‘g‘ri berish katta ahamiyatga ega. 1:1 000 000 masshtabli kartalarni o‘z ichiga olgan holda topografik kartalarni butun masshtabli qatorlarini yaratishda geografik obyektlar nomlarini to‘g‘ri yozishni o‘rgatish uchun yirik masshtabli mahalliy topografik kartalardan foydalanildi. Bundan tashqari bu kartalardan olingan nomlar eng yangi rasmiy nomlar (ma’lumotnomalar va boshqalar) bo‘yicha tekshiriladi. Mayda masshtabli kartalar uchun nomlar 1:10 000 000 masshtabli karta bo‘yicha o‘rnataladi. Xorijiy geografik kartalarda obeyektlarning nomini to‘g‘ri berish va yozuvlarni joylashtirish uchun karta yaratilayotgan mamlakat tilida nashr etilgan, rasmiy davlat kartasidan foydalaniлади. Улар асосиyo картографик material sifatida foydalaniладиган kartalar hisoblanadi. Xuddi shu maqsadda bir qator tillar uchun boshqa tildagi nomlarni ruscha berish imkoniyatini yaratuvchi me’yoriy lug‘at yaratilgan. Nomlarni yozish hamdo‘stlik davlatlari, avtonom respublikalar, viloyatlar, shuningdek xorijiy davatlarning geografik nomlarini berish bo‘yicha ko‘rsatmalarga muvofiq tarzda amalga oshiriladi. Shu ko‘rsatmalarga ko‘ra hamma boshqa tildagi geografik nomlar kartalarda beshta usullar bilan beriladi: transkripsiya bilan, transliteratsiya bilan, mahalliy, rasmiy, an‘anaviy va tarji-

ma shakllari bilan. Boshqa tildagi nomlarni berishning asosiy usuli (transkripsiya) hech qanday qo'shimcha belgilarni kiritmay rus alifbosining harflaridan foydalanish yo'li bilan aniq talaffuz qilish imkoniyati bo'yicha uzatishdan iborat. Bu usul nomlarni uzatishning fonetik shakli sifatida mashhurdir.



3.1-rasm. Mavzusi noto'g'ri joylashtirilgan karta.



3.2-rasm. Kartaning nomi kartadagi shartli belgilar nomlari bilan uyg'unlashib ketgan.

Kam o'rganilgan yoki yozuvi bo'limgan tillardagi geografik nomlar transliteratsiya yordamida kartalarda beriladi. Bitta mamlakat alfavit harflarining transliteratsiyasidan foydalanishda talafuzni saqlamasdan boshqa harflar bilan almashtiriladi. Boshqa tildagi nomlarni uzatish kartasi tuzilayotgan mamlakatning davlat tili alfaviti yordamida amalga oshirilishi mumkin. Bu usul geografik obyektlarning nomlarini yozish uchun lotin alfavitidan foydalaniladigan mamlakatlar tomonidan qo'llaniladi. Kartalarda boshqa tildagi nomlarni berishning yana bitta shakli an'anaviy shakl hisoblanadi. Zamonaviy rasmiy nomlarni uzatishning an'anaviy shakli ma'lum darajada hozirgi vaqtda qabul qilingan yozish qoidalariga mos kelmaydi. An'anaviy shaklda juda mashhur obyektlarning nomi qadim zamonlardan qanday ko'rinishda yozilgan bo'lsa, xuddi shunday beriladi. Masalan, Suomi o'rninga Finlandiya yoziladi. Ona tilida boshqacha talaffuz qilinadigan nomlar bilan ham xuddi shuni aytish mumkin. Masalan, kartalarda Parij yoziladi, Pari (Paris) deb talaffuz qilinadi. Alovida holatlarda tarjima qilingan nomi global mashtabda ham shunday atash an'anaviy bo'lib qolgan bo'lsa, boshqa tildagi nomni tarjimadagi shaklida uzatishda foydalaniladi, masalan, Qora Dengiz (Black Cea).

Legenda.

Kartaning legendasi uning mazmunini tushuntiruvchi matnlardan iborat bo'ladi. Legenda shartli belgilar tizimidan va tushuntirish yozuvlaridan iborat bo'lib, kartadagi voqealarni tushuntirishni osonlashtiribgina qolmasdan, balki uning mazmunini ham belgilaydi. Legendaning mohiyati alohida belglarni tushuntirish bilan chegaralanmaydi. Unga kartaning mazmuni haqida umumiy ma'lumot olish va kartaga olinayotgan obyektlar bo'yicha tasavvurga ega bo'lish uchun murojaat qilinadi. Legendani mukammal o'r ganish natijasida kartaga tushirilgan hodisalarни ajratish, ularни tasvirlash prinsiplari, umumlashtirish darajasi haqida tasavvurga ega bo'lish, turli ko'rsatkichlar xususiyatlari, hodisalar toifalari orasidagi bog'liqliklar aniqlana-

di. Legendani o'qish bo'yicha kartada tahlil ishlarini olib borish, obyektlarni va ularning ko'rsatkichlarini bir-biri bilan taqqoslash yo'llarini ko'rish mumkin.

Har qanday kartaning legendasiga qo'yiladigan umumiylablar:

Legenda to'liq bo'lishi kerak.

Legendaning shartli belgilari kartadagi shartli belgilar bilan bir xil bo'lishi lozim.

Ishlatilgan tasvirlash usullari legendada yaqqol ifodalanishi va ular aniq tushuntirilishi zarur.

Legendani o'qishda uning mazmuniga asosiy e'tibor qaratiladi. Legenda ushbu fan sohasida ishlab chiqilgan tasnifga asoslangan belgilarning guruhlar bo'yicha mantiqan to'g'ri va qabul qilingan ketma-ketlikda joylashgan bo'lishi, shu bilan bir qatorda, u kartaning asosiy mazmunini ifodalashi zarur.

Legendaning dastlabki varianti muallif ishlarida va kartani loyihalash jarayonida tuziladi. To'liq legenda kartaning mualliflik originalini yoki maketini ishlab chiqishda shakllanadi. Original karta yaratilayotganda, legendani tayyorlash uchun juda ko'p vaqt sarflanadi, chunki bunday kartalar legendasida nazariv konsepsiylar natijasi keltiriladi. Seriyali va majmuali kartalar legendalarini tuzish juda qiyin, chunki ular mazmunan bog'langan, boshqa kartalar legendalari bilan muvofiqlashgan bo'ladi.

Hozirgi paytda tabiiy kartalarda turli xil legendalar ishlatilmoqda, bu esa legendalarni biror-bir tizimga solish zarurligini tabab etadi. Legendalar hajmi va mazmunan murakkabligi bo'yicha quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Elementar legendalar – alohida olingan tabiat komponentlari elementlarini bir tomonlama ifodalovchi, qisqa mazmundagi mavzuli kartalar legendalari. Bunday legendalarni tuzish ko'rsatkichlar xususiyatiga va kartografik tasvirlash usullariga bog'liq, masalan, o'rmonlar kartasida o'rmonda eng ko'p tarqalgan daraxt turiga qarab legenda ishlanadi. Miqdorli ko'rsatkichni beradigan

elementar legendalar qabul qilingan shkalalar oralig'iga qarab, ko'proq teng chiziqlar usulida tuziladi.

2. Birlashgan elementar legendalar. Bunday legendalarda tabiiy obyektlarning ikkita yoki undan ko'p ko'rsatkichlari birlashtirilib ko'rsatiladi. Ular bir nechta elementar legendalardan tashkil topgan bo'lib, o'zida ham sifat, ham miqdor ko'rsatkichlarni jamlaydi. Legendasi mazmunan bir-biriga yaqin bo'lgan bir nechta kartalarni birlashtirib, yangi karta tuzish imkoniyati tug'iladi, masalan, iqlim kartalarida bosim va shamollarning tasvirlanishi. Bu usul atlas kartalarini tuzishda, ularni ixcham joylashtirishda, atlas kartalari sonini kamaytirishda keng qo'llaniladi.

3. Tipologik legendalar – bular ilmiy tasniflarni tasvirlashga asoslangan legendalardir. Legendada tasnifning guruhlari va bo'limlarini tasvirlashda hodisalarning turli ko'rsatkichlari – genezisidan, rivojlanish davrlaridan, joylashish sharoitidan, tarkibidan va boshqalardan foydalanadi. Bunday legenda asosan tuproq, geologik, geobotanik kartalari uchun ishlab chiqildi. Ulardan hodisalarning biror-bir bo'lagi tasvirlangan elementar legendalarni tuzish uchun ham foydalaniladi.

4. Birlashgan tipologik legendalar. Bunday legendalar bir nechta tabiiy komponentlarni birgalikda tasvirlash, o'zaro bog'liq obyektlarni legendada birlashtirib, o'zlariga xos ko'rsatkichlari, masalan, tuproq-o'simlik qoplami zonal tiplari xususiyatlarini; gidrogeologik kartalarda yer osti suvlarini sathini; tog' jinslari suvi sig'imi mineralizatsiya darajasi, kimyoviy tarkibi va boshqalar bo'yicha tasvirlash uchun ishlab chiqildi.

5. Ko'plab ko'rsatkichlarni va tafsiflarni, elementar va tipologik legendalarni birlashtirgan legendalar majmuali (kompleks) legendalar deyiladi. Bunday legendada turli tipologik legendalardan zarur bo'lgan bo'limlar tanlab olinib, hodisalarning bir-biri bilan bog'liq xususiyatlari ifodalanadi. Masalan, agroqlim kartalari legendalarida tuproq turlari hudud ichidagi har xil iqlim sharoitiga qarab ajratiladi. Murakkab majmuali legendanining bo'limlari obyektlar ko'rsatkichlari bilan to'ldiriladi, masalan, daryolar oqi-

mi va rejimi, relyef ma'lumotlari va boshqalar. Legendada har bir hodisani ko'rsatishning alohida kartografik tasvirlash usuli tanganadi. Majmuali legendalarning murakkabligi, ulardagagi shartli belgilar tizimini muvofiqlash bo'limlari bo'yicha tizimli joylash-tirish talab etiladi.

Sintetik kartalar legendasini maxsus guruhgaga kiritish zarur, chunki ular tabiiy sharoitni to'liq tasvirlaydi, tarmoqlar guruhlarini, masalan, landshaft, rayonlashtirish kartalari va boshqalarni birlashtirib ko'rsatadi.

Legendadagi nomlar, matnlar qisqa va tushunarli bo'lishi zarur hamda shartli belgilarni aniq bayon qilib berishi kerak (2.18-rasm).



3.3-rasm. Kartaning predmeti va maqsadidan kelib chiqib, ushbu nomlar maqsadga yo'naltiriladi.

Manbalar va boshqa izohli materiallar.

Ko'pchilik mavzuli kartalar foydalanilgan manbaning ma'lumotiga tayangan holda ko'rsatiladi. Bu yozma adabiyotlarda qo'llaniladigan uslublarga tenglashadi. Hamma kartografik va boshqa materiallarni yig'ish, tahlil qilish va baholashning asosiy

maqsadi – asosiy, qo'shimcha va yordamchi manbalarni yig'ish bo'lib, kartaning tahririy tayyorgarligi va karta tarkibining hamma elementlarini tuzish uchun zarurdir.

Kartografik va adabiyot manbalarini oydinlashtirish va yig'ish muharrirni unga zarur bo'lgan materiallarni korxonaning va boshqa tashkilotlarning ma'lumotnomasi hujjatidagi va kutubxonalardan olish uchun ariza tuzish, dastur bo'yicha ularni yig'ish bilan amalga oshiriladi.

Kartografik materiallarni tahlil qilish, kartaning vazifasi va mazmunidan kelib chiqib, maqsadga muvofiq tarzda o'tkaziladi.

U umumiyligi kriteriyalarga muvofiq ravishda amalga oshiriladi, lekin bunda, yaratilayotgan kartaning xususiyatlari bilan bog'liq, ularning nisbiy ahamiyati aniqlanadi. Shuningdek, kartalashtirilish vazifasidan kelib chiqib, boshqa kriteriyalar ham o'rnatiladi.

Materiallarni baholashning umumiyligi kriteriyalariga zamonaviylik, to'liqlilik va mazmunning batafsilligi, geometrik jihatdan aniqligi, voqelikka muvofiq kelishi, optimal ish texnologiyalarini qo'llash imkoniyati (reproduksiya qilish va shu kabi imkoniyatlar), kartaning ilmiy va ma'naviy qimmati kiradi.

3.2. Yorliqlarni joylashtirish

Yorliqlar bu – kartada shartli belgilar va nomlarning joylashishini shkalalarga biriktirilgan yozuvlarni o'z ichiga oladi. Bunday holatlar «masshtab» yoki uning mildagi birliklarini tasvirlashda grafik vazni uning ma'nosiga bog'liq holda bo'lishi zarur. Bunga «legenda» so'zini harflar bilan ifodalab yozib qo'yish shart emasligi bilan ifodalash mumkin.


Joy nomlarini tarqatishning yetakchi prinsiplari.

Kartaning maqsadi va mazmunidan kelib chiqqan holda, joy nomlarining turlariga bog'liq bo'lgan kelishuvlar hamda kartalardagi yorliqlar va joy nomlarining tarqalishi bo'yicha ortiqcha talablari bo'lmasagan yetakchi prinsiplar mavjud. Ularni tarqatishning eng asosiy omili bu – aniqlikdir. GAT dasturlarida joy nomlarini tarqatishning o'ziga xos xususiyatlarini, ya'ni karta-

ning maqsadi va mazmuniga mos holda nomlarni tanlash hamda nomlarning ko'p turdag'i kutubxonalarini o'z ichiga oladi. Keyin-gisi – bu umumiy qo'llaniladigan yetakchi prinsipidir (3.4-rasm).

1. *Gidrografik obyektlarni* tasvirlashda umumiy kelushuvlarga asosan kursiv shriftlardan foydalaniladi. Daryolarning nomlari shartli belgisi bo'ylab takrorlanib, yoziladi. Maydon hosil qiluv-chi hidrografik tarmoqlar (ko'l, okean, dengiz, suv ombori)ning nomlari esa, ularning egallagan maydoni bo'yicha tarqatilib yoziladi.

2. *Chiziqli obyektlar* (avtomobil yo'llari, temiryo'llar) esa dar-yoning nomi yozilgani kabi ularning nomini yozishda tik shrift-lardan foydalaniladi.



3.4-rasm. Joy nomlarining afzal holda joylashtirilishi.

3. *Regional nomlar* – davlat va mamlakatlarning nomlari yoziladi. Bunday nomlar maydonli obyektning hamma qismini qam-

rab olishi uchun ular maydon bo'ylab 3.5-rasmida tasvirlanganidek, tarqatilib yoziladi. Yozuvlar vertikal holatda joylashadi.



3.5-rasm. Hududni to'liq qamrab olish uchun nomini maydon bo'ylab tarqatib yozish.




3.6-rasm. Tog' tizimlarini tasvirlash uchun yozuvlarning joylashtirilishi.

4. Tog'larning nomlari – tog'lar qanday tarzda joylashgan bo'lsa, regionlar nomlari rasma tasvirlanganidek joylashadi. Boshqa ho-

latlarda ular chiziqli obyektlarga o‘xshab intervallar orqali nomlar takrorlanib tasvirlanadi (3.6-rasm).

5. *Nuqtalar joylashgan o‘rnining nomlari* – ushu holatda tuman, shaharlar markazlari nuqtalar bilan tasvirlanadi. Ular hududlar bo‘yicha bir-birlari bilan chegaralanishi va joylashuviga qarab tasvirlanadi. Birinchi holatda obyektning nomi nuqta turgan holatdan o‘ngda va yuqorida joylashadi. Agarda boshqa imkon bo‘lmasa, ya’ni yuqorida keltirilgan holatda obyekt nomini joylashtirish imkon bo‘lmasa, obyektning nomi shartli belgidan (nuqtadan) chap tomonda joylashtiriladi. Obyekt nomlarining shartli belgi turgan chiziq (sath)da joylashtirish mumkin emas. Agar shartli belgimiz bo‘s (ochiq) aylana ko‘rinishida bo‘lsa, ular yozuvlarga qo’shilib, xatoliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Ushbu nomlar ma’lum bir blok ichida yoyilib ketmasdan mustahkam holatda joylashtiriladi (3.7-rasm).



3.7-rasm. Joy nomlari nuqta tasvirlangan qatorda joylashmasligi kerak.

Agarda shahar daryoning sharqiy qismida joylashgan bo‘lsa, uning nomi ham sharq tomonda joylashtirilishi kerak yoki g‘arbiy tomonda joylashgan qismi esa, g‘arbiy tomonda joylashtirilishi zarur. Bundan kelib chiqadiki, yuqorida berilgan tavsiyalar o‘zini oqlamaydi, ya’ni nomlar shartli belgidan yuqorida joylashi-

shi kerak. Agar ushbu holatda joy nomini nuqtaga yaqin holatda joylashtirish imkoni bo'lmasa, 3.8-rasmida keltirilgan tasvirda ko'rsatilgan holatda tasvirlashimiz mumkin.

6. *Markirovkali yozuvlar* shtrixlardan ko'ra birlamchi yoki muhim hisoblanadi. Chiziqlarga joy ajratish uchun yozuvlarning ustidan o'tkazish kabi holatlarga yo'l qo'yilmaydi yoki ular uzib yozilmaydi. Agar shunday holatlar kuzatilsa, chiziqlarni o'tkazishda buzilishlar yoki ularni yozuvni aylanib o'tish holatlariga yo'l qo'yiladi. Kartada ranglar tasvirlangan bo'lsa, ularni shtrixlar ustidan joylashtirsa bo'ladi.

7. *Asosiy qoida bu* kartada tasvirlanayotgan voqeа va hodisalarning aniqligi. Ya'ni biz, bunday holatlarda kartaning mazmun va maqsadidan kelib chiqib xulosalar chiqaramiz.

Niqoblar va shartli belgilari.

Niqoblar deb kartada to'g'ri burchakli shaklga, ya'ni kartada tasvirlangan ranglardan farq qiladigan shakl ichidagi yozuga aytildi. Ulardan foydalanganda, ehtiyoj bo'lish zarur, chunki ular kartadagi ma'lumotlarni to'sib qo'yishi mumkin. Callout niqoblari bo'rttirilgan chiziqlar bilan tasvirlanib, ular obyektning funksiyalarini ko'rsatadi. Ko'pchilik shakllar bo'rttirib tasvirlash uchun xizmat qiladi. Haloslar harflarning konturlarini yaxshi tasvirlab, soyalar yozuvlarni boshqalardan ajratib turadi (3.8-rasm).

3.3. Geografik nomlar


Xorijiy geografik nomlarni kartalarda tasvirlash kartografiya mutaxassislariga ancha murakkabliklar olib kelishi mumkin. Ushbu muammoning ikkita aspekti bor: (1) lotin alifbosida mavjud bo'limgan, ya'ni arab, xitoy, yapon, grek va rus nomlarning transliteratsiyasi va (2) lotin alifbosida ko'p qo'llanilmaydigan hamda ingliz alifbosida ko'plab uchraydigan nomlar (Vena, Lissabon). Non — lotin alifbosidagi ushbu nom, transliteratsiya prinsiplariga mos holda, har xil tashkilot nomlarini ko'rsatishi mumkin, lekin ushbu nom Amerika Qo'shma Shtatlarida har xil ma'noni anglatishi mumkin. Agarda ushbu nom bilan AQSH-

da mahalliy nomlar bilan atalsa (tasvirlansa), kartadan foydalananuvchilar buni tushunmasliklari mumkin. Agarda kartalar faqat ushbu shaharlar uchun mo'ljallangan bo'lsa, ular unchalik qiyinchiliklar tug'dirmaydi, ammo xorijiy shaharlar uchun yaratilgan kartalarda boshlang'ich mahalliy nomlarni yozishda ularni qavs ichida yozishga to'g'ri keladi. Xorijiy kartalarda bunday nomlardan foydalanish, siyosiy darajadagi munosabatlarni belgilab beradi. «Noto'g'ri» nomlar bilan yozilgan kartalar xorijiy miqyosdagi agentliklarda tortishuvlarga olib kelishi mumkin.

Doimiy muammolar nomlarning statistik bo'limganligidan kelib chiqadi. Ular har qanday sabablarga ko'ra o'zgarib turadi. Yangi davlat rahbarlari yoki savdo palatalari o'z shaharlaridagi nomlarni tez-tez o'zgartirib turishadi. Masalan mamlakatdagi qahramonlar nomlari bilan ko'chalarni, okruglarni va boshqa obyekt nomlarini ataydilar. Bunga o'xshagan misollarni Xo Shi Min Siti shahri oldingi Saygon va Sankt-Peterburg shahri oldin Leningrad deb nomlanganligini aytish mumkin. Bunday holatlar ko'plab kichik shaharlarda uchraydi. Masalan, Kaliforniya shtatidagi «Mother Lode» tumanining ko'plab joylari shaxtyolarning ismlari bilan nomlangan. Vaqt o'tishi bilan ushbu nomlar odamlar tafakkuriga qarab o'zgarib bordi. 1950-yilda Xot-Springs shahri (Nyu-Meksiko shtatida joylashgan shahar) o'z nomini o'zgartirgan.

Ingliz atamalarida shunday nomlar borki, ular nom bo'lib atalishidan tashqari tarjimasi bo'yicha alohida ma'nolarni beradi, masalan, Rio-Grande daryosi yoki Kabo-San-Lukas. 3.1-jadvalda tez-tez uchrab turadigan xorijiy geografik nomlarning (atamlar) ro'yxati keltirilgan.

Mamlakatimizda geografik obyektlarning nomlarini belgilash, nomlashtirish, davlat ro'yxatidan o'tkazish, qo'llash va saqlashni muvofiqlashtirish va o'tkazish ishlarini amalga oshirish bilan O'zbekiston Respublikasi Yer resurlari, geodeziya, kartografiya va Davlat kadastro davlat qo'mitasi tarkibidagi «Toponomika» xizmati shug'ullanadi.



3.8-rasm. Niqoblar, areallar va bo'rttirib ko'rsatuvchi shartli belgilar karta foni o'zgarganda yaxshi foyda beradi.

Nashr qilish prinsiplari.

Uslublar kartalarni yaratishda va kartadan foydalanuvchilar tomonidan juda ko'p tanqidga uchraydigan jihat hisoblanadi. Kartadan foydalanuvchilar tomonidan «o'qilishi qiyin» va «qo'pol yozuvlar» kabi izohlar beriladi. Agarda karta tuzuvchi tahririyl tayyorgarlik ishlari jamoasi kartada uslublar va yozuvlarni to'g'ri tanlay olishsa, bunday e'tirozlarga yo'l qo'yilmaydi.

Kartalarni nashr qilish atamalari.

Boshqa sohalar kabi kartalarni nashr qilish ham o'zining o'rni va xususiy lug'at, so'z va iboralariga ega. Ko'plab atamalar o'zining qisqa turini yoki o'lchash turini izohlab beradi. Hozirgi kunda bunday holatlar kuzatilmasada, lekin ilgari yaratilgan kartalardan haligacha foydalanib kelinadi.

3.1-jadval

Geografik nomlarning yozilishi

O'zbekcha	Inglizcha	Fransuzcha	Nemischa	Ispancha
Tog'	Mountain	Mont, montagne	Berg	Montaca
Daryo	River	Rivire	Fluss	Rio
Ko'rfaz	Bay	Baie	Bucht	Bahia

Burun	Cape	Cap	Kap	Cabo
Ko'l	Lake	Lac	See	Lago

Yozuvlarning o'lchamlari.


Yozuvlarning o'lchami, ya'ni balandliklari birligi punktlarda hisoblanadi. 72 punkt taxminan 1 duymga tenglashtiriladi. Shunda bir punkt $0,0138$ duymga yoki $0,39$ mm ga teng. Karta mazmunini o'qiy boshlaganda, avvalambor geografik nomlariga e'tibor qaratiladi. Turli geografik obyekt nomlarining kartada to'g'ri yozilishi va yozuvning joylashtirilishiga qarab, kartaning mazmunini tezroq tushunish mumkin. Yozuvlarni to'g'ri joylashtirilishining asosiy talabi, har bir yozuv tegishli geografik obyektni aniq ko'rsatishi kerak. Kartada obyektlarning bir joyda to'planish xususiyati yozuvlarni joylashtirishda qiyinchiliklarga sabab bo'ladi.

Yozuvlarning bo'limlari.

3.9-rasmda harflarning bir tizimda joylashtirilgani tasvirlangan. Bazali chiziqdan o'rta chiziqqacha bo'lgan masofa X balandlik deb nomланади (X – bu harfning balandligi); ushbu o'lchov kartada shristlar o'lchamini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Shunday harflar borki, ular o'zining asosiy qatoridan yuqoriga qarab davom etadi (d, b) va unga teskari (f, j) harflar mavjud (3.10-rasm).



3.9-rasm. Bazali chiziqdagi harflarning joylashishi.



3.10-rasm. Harflarning qismlari.



3.11-rasm. Shrift turlari.

3.4. Shriftlar

Shriftlar harf va raqamning ayrim elementlari kengligi, balandligi, yo'g'onligi, rasmning qanday holatdaligiga ko'ra aniqlanadi. Shriftli belgilar orqali asosiy elementlar (yo'g'on chiziqlar), qo'shimcha elementlar (birlashma hosil qiluvchi shriftlar, burchaklarni birlashtiruvchi, tomchisimon elementlar, tubi qirqilgan elementlar) va harfning ichki qismi yorug'liklarini tasvirlashi mumkin. Ular orasidagi farqlarni kartografik shrift turiga qarab xarakterlash mumkin. Ushbu shriftlarning ko'pgina turlari kompyuterlarning standart shriftlarida tashkil topgan, lekin ularning hamma ko'rinishlari ham mavjud emas (3.11-rasm).

Garniturlar.

Mingdan ortiq shrift ko'rinishlari mavjud bo'lib, ularni kartografik ishlarda qo'llash mumkin. Shriftlar quyidagi belgi-alomatlarga ega:

Shriftning kontrasti – asosiy elementning qo'shimchaga nisbatan yo'g'onligi. Agar elementlar yo'g'onligi qancha farq qilsa, shrifti shuncha kontrastroq (ko'zga tashlanadigan) bo'ladi. 2:1 yoki 3:1 nisbatda o'rta kontrastli shriftlar yaxshiroq o'qiladi.

Ravshanlik (*yo'g'onlik*) – asosiy element yo'g'onligi bilan harfning ichki qismidagi yorug'ligiga nisbatan kengligini anglatadi.

Kenglik – harf enining balandligiga nisbati. Harf kengligiga qarab ensiz, normal va enliga bo'linadi.

Yo'naltirilgan – to'g'ri, o'ngga, chapga, qiya va nishabroq.

Yozilish shakli – kursiv, bosma. Kursiv shriftli yozuvlarda bosh harf va satrdagi harflar turlicha ko'rinishda, bosma shriftlarda esa harflar asosan bir xilligicha qoladi.

Shriftning o'lchami (harfning balandligi) kartografiya sanatida texnik vositalar yordamida tayyorlanayotganda harflarning ko'rinishi o'zgarishi mumkinligini hisobga olib, muayyan tizim ishlab chiqilgan.

Shriftning rangi – kartaning o'qilishi, ko'rgazmaliligi, badiiy jihatdan sifatli bezatilishida muhim tasviri vositadir. Kar-

tografik shriftlar majmuasining asosi qilib, asosiy belgilardan biri – shriftning kontrasti, shuningdek yorug‘likning bo‘lishi va elementlarning bir-biri bilan bog‘liqliklari xarakteri qabul qilingan.

Ko‘pgina avtorlar tomonidan 11 turdag'i kategoriylar taqdim qilingan, lekin biz maqsadimizga erishishimiz uchun, 4 ana’naviy kategoriylar xizmat qiladi. Shulardan bir turi bu – Oldstyle, ya’ni hech qanday nuqsonlarga ega bo‘lmagan zamonaviy dizayn (3.12-rasm).



3.12-rasm. Yozuvlar stili (uslubi).

Shriftlar 6 ta asosiy guruhga bo‘linadi:

1) farqi yaqqol seziluvchi, bog‘lab turuvchi elementi asosiga nisbatan notejis va uzun-ingichka qirqilgan; 2) o‘rtacha farqlanadigan (kontrastli), bog‘lanish elementi asos bilan bir xil silliqlikda va kalta qirqilgan;

3) deyarli kam farq qiladigan, bog‘lanish elementi asos bilan bir xilda va to‘g‘ri burchak shaklida qirqilgan;

4) kam farqlanadigan, notejis, keskin bog‘langan va uchlari asos kabi yo‘g‘onlikda to‘g‘ri qirqilgan;

5) ko‘zga yaqqol tashlanmaydigan, qirqilish chizig‘isiz;

6) turli xildagi shriftlar, grafik belgilariiga ko‘ra yuqoridagi hech qaysi guruhga mansub emas. Bu guruhga badiiy shriftlar xosdir. Karta va atlasning mazmunini ochib berish va bezatilishi: geografik nomlar, kartaning mazmuni bilan bog‘liq tushuntirish yozuvlari;

karta legendasini tushuntirish uchun; tashqi ko'rinishining bezatilishi (karta va atlasning nomi, diagramma, grafika va boshqalar ning tushuntirish yozuvlari, kartaning mazmunini boyituvchi matn, qo'shimcha ma'lumotlar va h.k.)da shriftlardan foydalaniladi.

Aniq bir yo'nalishdagi va turli yo'nalishdagi qator kartalar, atlasmalar uchun aniq shriftlar tizimi ishlab chiqilgan.

Turlarni tanlash.

Mavzuli kartalarda shriftlar soni cheklangan tarzda bo'ladi. Kartal mazmunini yetkazishda shriftlarning vazifasi turlicha. Birinchi navbatda ular geografik nomlar guruhini kengroq talqin etish uchun xizmat qiladi. Shriftlar ayrim geografik belgilarning (masalan: daryoning boshlanish qismi; ularning burlishi, quyilish joyidagi yozuvlar) kuchaytiradi, shrift o'lchamining turlichaligi tasvirlanayotgan belgilargagina xos xususiyatini va me'yorini ta'kidlaydi.

Obyektning sifat va son xususiyatlarini shartli belgilar o'rni ga bevosita shrift ko'rsata oladi. Obyektning sifatini shriftning ko'rinishi, yo'nalishi va rangi aks ettiradi. Mavzuli kartalarda shriftni ranglarda ko'rsatilishi yaxshi natijalar berib, u obyektni turli xususiyatlariga ko'ra tabaqlashga yordam beradi. O'lcham yordamida obyektning nisbiy va me'yoriy xususiyati ko'rsatiladi. Kartaning mazmuniga ko'ra shrift o'lchamining o'zgarishi ulardan foydalanish turi va mohiyati bilan bog'liq.

Yonma-yon shriftlar orasidagi intervalni shriftning o'lchamiga mos tanlash maqsadga muvofiqdir. Juda kichik (0,1 mm) interval shriftlarning o'lchamini farqlash imkonini susaytiradi. Bunday hollarda grafika shriftlarining o'lchami, surati, qoraligi, enliligi, yo'naltirilganligi (biror mo'ljalga xosligi)dan birgalikda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ramz sifatida tasavvur qilish.

Kartografik shriftlardan kartaning legendasi yozilishida qo'llanilishi uning tuzilishi, xususiyatlari, shartli belgilarni tushuntirish: belgilarni batapsil yoki qisqa ta'riflash, turli darajadagi nomlar turkumining mazmuniga monand yozuvlarni aniqlash; indekslar tizimini, harf va hokazo bilan tasvirlash imkonini beradi. Legen-

daning o'qilishi uning shriftlar bilan bezatilganligiga to'g'ridan to'g'ri bog'liq. Kartaning tashqi ko'rinishini bezatishda kartadan foydalanish maqsad va xususiyatlariga qarab shrift tanlanadi. Od-diy ma'lumot (spravochnik) beruvchi kartalar aniq suratga va chizmaga ega bo'lgan bosma shriftlar bilan bezatiladi. Devorga osiladigan kartalarning masofadan o'qilishi oson bo'lishi uchun yirik o'lchamdagи badiiy shriftlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Atlaslarni (muqovasi, titul varag'ini) bezatishda rang-barang shriftlar qo'llaniladi, chunki atlasning formati bilan shrift moslashtirilib, dekorativ elementlar (emblemalar, xos suratlar va h.k.lar) bilan boyitiladi.

Aniqlik.

Kartani o'qish jarayonida shriftni oson va tez qabul qilish, o'qilish, shriftdan oqilona foydalanish barcha turdagи kartalarning talaqidir. Bu majburiyat aynijsa shrift shartli belgi bo'lib xizmat qilganda namoyon bo'ladi. Bunday holda shriftning shakli, o'lchami va boshqa grafik vositalarga ko'ra alohida turlarga ajratilishi muhimdir. Shriftni oson o'qish va farqlash uchun uni ranglarda ko'rsatish mumkin. Kartada havo rangda gidrografiya va jigarrangda relief elementlari tasvirlanganda, shriftga shunga mos rang beriladi.

Ma'lumotnomalarda shriftlarni ixchamlashtirish katta ahamiyatga ega, chunki bir joyning o'zida ham yozuvlarni joylashtirish, ham o'qilishini ta'minlash lozim. Mavzuli kartalarda ham shriftlarni ixchamlashtirish maqsadga muvofiq, chunki shriftdan rejalli foydalanish kartaning asosiy mazmunini ko'rsatish uchun joy ajratadi. Devorga osiladigan kartalar masofadan turib o'qilishi sababli, shriftlarni ixchamlashtirish katta ahamiyatga ega emas.

Shriftlarni tanlashga kelishuv.

Shriftlarni ortiqcha qoraligi (to'qligi) kartaga ortiqcha tafsilotlar yuklab, shtrix elementlarini qabul qilishni qiyinlashtiradi. Lekin shtrixlarning haddan ortiq ingichka bo'lishi ham kartaning o'qilishiga salbiy ta'sir etadi. Go'zallik, nafislik – barcha kartografik shriftlarning ajralmas fazilatidir. Kartadagi rasmining chiroylligi, o'qilishidagi qulaylik, nisbiy muvofiqlik, nafis bezak-

larning uyg‘unlashuvi va boshqa elementlar hozirgi zamon estetika talablarining asosini tashkil etadi.

Arial
Franklin Gothic
Lucida Sans

3.13-rasm. Sans shriftlari.

Blackadder Italic
Old English Text
Broadway


3.14-rasm. Maxsus effektlarni hosil qilish uchun maxsus shriftlar.

Naqsh bilan bezatilganlik, shuningdek, satrning aniq va ravshan ko‘rsatilishi – shriftning muhim xususiyatidir. Shrift sifatini tiklashning mohiyati kartani texnik jihatdan tayyorlash va

bosish usullari bilan bog'liq. Zamonaviy texnika istalgan shakl-dagi, asosiy va qo'shimcha elementlari uyg'unlashgan turli kontrastdagi va hokazo shriftlarni tayyorlash va bosish imkoniyatlari-ga ega.

Kartaning o'qilishiga shriftning umumiy vazifasi (nagruzka) katta ta'sir ko'rsatadi. Bunga zarur yozuvlar soni, turi va xarakteri, zinch joylashganligi bog'liq. Shrift vazifasi (nagruzka)ga muhim o'zgarishlar kiritish u yoki bu shrift turini, rasmning tafsifini, o'lchamini, harfning qoraligini va boshqalarni tanlash imkonini beradi.

Shriftning vazifasi maydon va son ko'rsatkichlari bilan belgilanadi. Maydon bo'yicha vazifa (nagruzka)si – bu I maydon hisobiga I li shrift yozuvlar; son bo'yicha nagruzka esa, I ga joylashtirilgan shrift soni bilan belgilanadi.



3.15-rasm. Matnlarning iyearxiyani tasvirlashi.

Keragidan ortiqcha shrift stillarini qo'llash kartadagi yozuv-larning tashqi ko'rinishini buzadi (3.16-rasm).

Umumgeografik kartalar (ayniqsa, spravochniklar)da shriftning vazifasi yuqoridir, bunda barcha grafika nagruzkasining 50–70% hajmini shriftlar tashkil etadi, bularning asosiy qismi aholi punkti nomlarini bildiruvchi yozuvlardir. Kartaning massh-tabi maydalashgan sari shriftlar nagruzkasi orta boradi.

Times New Roman

Microsoft Uighur

Goudy Old Style

ENGRAVERS MT

3.16-rasm. Ko'pchilik shriftlar birga ishlatalganda yaxshi natija beradi.

Kartani bezatishda shrift nagruzkasini hisobga olish muhim, chunki shriftning turini, grafika vositalarini (balandligi, qoraligi, kengligini) o'zgartirib, kartadagi yozuvning grafik (nagruzka) vazifasini oshirish yoki pasaytirish mumkin.

Shriftlarning mosligi.

Chiziqli tarqalgan obyektlarning nomi obyekt belgisiga parallel yoki uning o'qi bo'ylab joylashtiriladi. Daryo tarmoqlarini tasvirlashning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, bunda daryo irmog'i burilish joyining qiyaroqligini ravon ifodalash lozim. Bunday nomlar odatda qiya shrift bilan yoziladi, bunda har bir shriftning qiyaligi — yo'nalish taxminan qancha qiyaligini belgilaydi. To'g'ri shriftlar bilan yozilganda har bir harfning uchi qiyaroq chizilgan obyektga nisbatan perpendikulyar bo'ladi. Daryoning nomi yo'nalishini hisobga olmay, chiziqli belgining istalgan tarafida joylashtiriladi. Katta daryolar uchun turli o'lchamdagи shriftlardan foydalilanladi, bunda daryoning boshlanish qismi, oqim yo'nalishi keskin o'zgargan joyi, yirik irmoqlarning quyilish joyi va daryoning quyilish joyi nomini turli shrift bilan yoziladi; bunda yuqorida oqib tushuvchi jilg'a va irmoqlar kichikroq, daryoning quyilish qismiga kelib shrift kattalasha boradi. Agar daryoning kengligi karta mashtabiga ko'ra tasvirlansa, daryo nomini belgining o'rtasiga yoziladi.

Shriftlarning yaroqliligi.

Karta mazmunini o'qiy boshlaganda, avvalambor geografik nomlarga e'tibor qaratiladi. Turli geografik obyekt nomini kartada to'g'ri yozilishi va yozuvning joylashtirilishiga qarab, kartaning mazmunini tezroq tushunish mumkin. Yozuvlarni to'g'ri joylashtirishning asosiy talabi, har bir yozuv tegishli geografik obyektni aniq ko'rsatishi lozim.

Kartada obyektlarni bir joyda to'planish xususiyati yozuvlarni joylashtirishga sabab bo'ladi. Aholi punktlarini joylashishini ko'rsatganda, yozuvning bir joyda jamlanganligini ko'rish mumkin, bunday hollarda turli shakl va o'lchamga ega shriftlardan foydalaniladi. Barcha aholi punktlarining nomi parallelar bo'ylab, koordinata to'ri to'g'ri burchakli kartalarda – gorizontal, ya'ni kartaning shimoliy va janubiy chekkalariga parallel joylashtiriladi. Nomlar asosan o'ng tomonda, obyektga yaqin ($0,3-0,5$ mm) oraliqdagi bo'sh joyga yoziladi. Aholi punkti zinch joylashganda, uncha katta bo'limgan maydonda doimo bunday imkoniyat bo'lmasligi mumkin.

3.5. Kartadagi yozuvlarni tahrirlash

Kartadagi katta maydonni egallagan, katta maydonda cho'zilgan (masalan: tog' tizmasi, tekislik va boshqalar) obyekt nomi obyektning bor uzunligi bo'yicha cho'zib yoziladi, shu bilan uning egallagan maydoni ko'rsatiladi. Ba'zi hollarda obyektning joylashgan o'rni hech qanday shartli belgilarsiz, faqat yozuv orqali ko'rsatiladi, bunda obyekt nomining yozilishi uning joylashgan joyi cho'zilgan maydoni bilan mos kelishi kerak. Yirik maydonni egallagan obyektlar nomi (materik, okean, davlatlar) butun maydon bo'ylab, ba'zan ikki-uch qatorda katta shriftlar bilan yoziladi. Kartalarning asl nusxasini tuzish jarayonida, yozuvlarni joylashtirishda turli ketma-ketliklardan foydalanish mumkin.

Kartaning tayyorlanayotgan asl nusxasiga obyekt joylashgan joy tushirilayotganda uning nomini ketma-ket yozib ketish mumkin,

lekin bunda karta mazmuniga mos boshqa elementlarni yozuv bilan to'sib qo'yish mumkin. Shu sababdan, joy nomlarini kartaning asl nusxasida ham mazmuniga xos barcha elementlarni joylashtirib bo'lgach, nisbatan ochiqroq, bo'shroq joyga yozish maqsadga muvofiq. Bunda kartaning asl nusxasida eng muhim geografik nomlarning joylashgan o'rni aniqlanib, uni birinchi planda yirikroq shrift bilan, undan keyin ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan nomlar joylashtiriladi. Kartada obyekt nomini joylashtirish tartibi va ketma-ketligi har bir konkret karta uchun umumiy grafika ngruzka (vazifasi)ga bog'liq va asl nusxasini tuzish texnologiyalarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Kartalarda yozuvlar qanday maqsadga ko'ra xizmat qiladi?
2. Kartadagi yozuvlarni tahrirlash deganda nimani tushunasiz?
3. Niqob nima?
4. Shriftlar nechta asosiy guruhga bo'linadi?
5. Shriftlarning mosligi deganda nimani tushunasiz?
6. Shriftning vazifasi nima bilan belgilanadi?

4-bob. KARTOGRAFIK DIZAYNDA RANG

4.1. Ranglarning tabiatи

Dastlab «Handcolored» (qo'lda bo'yagan) kartalar nashr qilinishi boshlanganda kartalarda rangli tasvirlar ko'rina boshladi. Shunday bo'sada, XIX asrda rangli kartalarni katta hajmda ishlab chiqish imkoniy yo'q edi. Hattoki XX asrda ham rangli kartalar qimmatbaho hisoblanib, faqatgina yirik loyihalarda va atlaslarni yaratishda qo'llanilgan. Jurnal, gazetalar yoki boshqa materiallarda kartalar oq-qora ranglarda tasvirlangan. Hozirgi kunda kompyuterlar, rangli monitorlar va rangli printerlarning yaratilishi hisobiga rangli kartalar keng tarqala boshladi. Buning natijasida har qanday kartografiya sohasiga yaqin kishilar ham kartalarda ranglardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishdi.

Ranglar kuchli vizual effektlarni tasvirlaydi. Bu esa kartaning har xil elementlarini o'qishda, kartadan foydalanuvchilarning e'tiborini qaratishga yordam beradi. Ranglarni loyihalash ishlarini bajarish, moslashuvchanlikni (o'zgarishni) ta'minlaydi; u yerning shaklini farqlashda, quruqlik bilan suvni farqlashda hamda kategoriyalarga ajratishda ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, yo'llar va temiryo'llar qurilishi, qishloq va shahar yo'llari, o'simlik turlari. Ranglardan kategoriyalarni iyerarxiyalarga ajratishda foydalaniladi. Bunday holatlarda kategoriylar va iyerarxiyalarni oq-qora rangdagi kartalarda ham tasvirlash mumkin, lekin rang turlarining ko'pligi bu karta dizaynining imkoniyatlariga sezilarli ta'sir qiladi.

Odatda ranglardan foydalanish xohishga qarab amalga oshiriladi, lekin bu kartograflar uchun karta dizaynining eng yirik muammolaridan biri hisoblanadi. Rang tipografiya (nashr qilish) sifatida eng ko'p tanqid qilinadigan jihat hisoblanadi. Odatda kartadan foydalanuvchilar ranglar yordamida o'zlariga yoqadigan va yoqmaydigan elementlarni aniqlashtiradilar.

Oq-qora rangdagi kartalarni loyihalashtirishdan ko'ra rangli kartalarni loyihalashtirish murakkab jarayon hisoblanadi. Bu ja-

rayonda (rangli kartalarni loyihalashtirishda) kartadagi voqeя va hodisalarni va elementlarni ranglar bilan tasvirlashda ularning (ranglarning) uyg'unlashuvini, bir-biridan farqlanishini, boshqa ranglar bilan mosligini e'tiborga olish lozim. Ranglarni ro'y-xatdan o'tkazish (taqqoslash) nashr qilinadigan kartalar uchun muammo tug'dirishi mumkin va badiiy asarlarni tayyorlashda murakkabliklarga olib kelishi mumkin.

Biz «ranglar» haqida so'zlaganimizda ko'zimiz va miyamizdagi reaksiyalar ta'sirida elektromagnit spektrining bir bo'lagiga murojaat qilamiz (4.1-jadval).

Elektromagnit to'lqinlarining spektri bu hamma energiyaning yorug'lik tezligida harakatlanishidir. U o'zida radio to'lqinlarni, rengen nurlarini, infraqizil to'lqinlarni, ultrabinafsha to'lqinlarni, mikroto'lqinlarni hamda biz ko'radiang spektr oralig'ida-gi ranglarni mujassamlaydi. Elektromagnit spektrining kichkina bo'lagini inson ko'zi ko'rish imkoniyatiga ega. Bu bo'lak ko'rindigan spektr deb nomlanadi va o'zida 0,4 dan 0,7 mikrometr (mkm) to'lqin uzunligiga teng energiyani tarqatadi (mikrometrning milliondan bir bo'lagini tashkil etadi). 0,45 mkm diapazon-dan boshlanadigan rangli to'lqinlarda ko'k rang hamda 0,65 mkm uzunlikda qizil rang paydo bo'ladi. Agarda rang manbayi ushbu to'lqin uzunliklarining barchasini tarqatsa, unda oq rang paydo bo'ladi.

Quyoshdan keladigan nurda barcha to'lqin uzunliklari mavjud bo'lib, agarda ushbu nurlar osmondan tushayotgan yomg'ir tom-chilarida sinsa, unda bizga ko'rindigan eng qisqa to'lqin uzunliklarining qaysi tartibda joylashishini ko'rishimiz mumkin, ya'ni binafsha rang, to'q ko'k rang, ko'k, yashil, sariq, to'q sariq va qizil (4.2-jadval).

Bir xil jilodagi yashil, qizil va ko'k nur birlashishi natijasida oq nur hosil bo'ladi. Modomiki ushbu uch xildagi (yashil, qizil va ko'k ranglar) to'lqin uzunliklarini har xil birlashtirishi natijasida inson ko'ziga ko'rindigan barcha ranglarni yoki oq rangni ishlab chiqishimiz mumkin va buni praymeriz deb atashadi.

4.1-jadval

Elektromagnitli spektr

TO'LQIN UZUNLIGI								
QISQA								UZUN
Gamma nurlar	X nurlar	Ultrabinafsa nurlar	Ko'rinadigan nurlar	Yaqin infraqizil nurlar	Qisqa infraqizil nurlar	Orixa infraqizil nurlar	Qizil infraqizil nurlar	Mikro to'lqinlar
								Radio to'lqinlar

4.2-jadval

Ko'rinadigan spektr

TO'LQIN UZUNLIGI					
QISQA					UZUN
BINAFSHA RANG	KO'K RANG	YASHIL RANG	SARIQ RANG	TOQ SARIQ RANG	QIZIL RANG

Boshqa rang turlarini shakllantirish uchun har xil uzunlikdagi to'lqinlar bir-biriga qo'shiladi va bu birlashmali praymeriz deb ataladi (4.1-rasm) Rangli monitorlar va televizor ekranidagi ranglar birlamchi va qo'shimcha ranglardan tashkil topadi. Ular kompyuter ekrani orqali kartalar bilan ishlashda ishlatalidi. Hozirda bu sohada bat afsil tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda.

Ranglarning inson ruhiyatiga fiziologik ta'siri:

Qizil – qo'zg'atuvchi, elituvchi, serharakatlikka undovchi, singuvchi rang hisoblanadi. Butun organizmni hakatlantiradi, qon bosimini oshiradi, nafas olishni tezlashtiradi.

Zarg'aldoq – qizil singari, unga o'xshash ammo sustroq ta'sir etuvchi.

Sariq – fiziologik jihatdan optimal, charchatmaydigan, nerv va ko‘rish faoliyatini stimullashtiruvchi.

Yashil – fiziologik jihatdan optimal, ko‘rish organiga eng tanish, orombaxsh, qon bosimini kamaytiradi, kapillyarlarni kengaytiradi, tinchlantiruvchi, mushak harakatlarini qo‘zg‘atuvchi va hokazo.

Havorang – tinchlantiruvchi, mushaklar tarangligini va qon bosimini pasaytiradi, tomir urushini maromlashtirib nafas olishni sekinlashtiradi.

Ko‘k – tinchlantiruvchi, ta’siri asta-sekin siqilishga, ezilishga eltib boradi. Insonning fiziologik tuzilishi tizimi funksiyalarini to‘silishiga olib keladi.

Binafsha – qizil va ko‘k ranglar effektini o‘zida mujassamlashtiradi. Asab tizimini siquvchi, ezuvchi kabi ta’sir qiladi.

Umuman olganda turlicha och ranglar tonlari masalan, qizil, sariq, ko‘k, yashil, zarg‘aldoq va hokazo ranglarning oq rang qo‘shilib yoki o‘zaro aralashmasidan hosil bo‘lgan tonlar kishi ruhiyatiga murakkablashgan, nozik tuyg‘u chaqiradi va turlicha hissiyot qo‘zg‘atadi. Masalan, tongdagi osmon o‘ziga xos va kechki namozshom osmoni kishiga o‘zgacha kayfiyat bag‘ishlaydi. Bunda osmonda sodir bo‘layotgan nyuansli ranglar majmuasini farqlay olgan holda kishining kayfiyati o‘zgaradi. Shuningdek, har bir toza yoki aralashgan rang odam ongida assotsiativ tuyg‘ularni chaqiradi.

Jismoniy assotsiatsiyalar: ranglar vaznli, haroratli, fakturali va akustikali assotsiativ ko‘rinishga egaligini ta’kidlashadi. Masalan, ranglar og‘ir, yengil, havodor, bo‘g‘iq, bosiq ko‘rinishda (vaznli); issiq, sovuq, muzdek, kuydiruvchi (haroratli); yumshoq, qattiq, silliq, g‘adir-budir (fakturali); sekin, jarangdor, bo‘g‘iq, musiqaviy (akustik) ko‘rinishlarda yoki bo‘rtib chiquvchi, uzoqlashuvchi, chuqurlikni eslatuvchi, yuzida bo‘lib ko‘rinuvchi kabi fazoviylik xususiyatlarga ega bo‘ladi.

Emotsional assotsiatsiyalar chaqiruvchi: ijobi, quvnoq, yoqimli, ko‘tarinki, dadil, lirik; salbiy, g‘amgin, lanj, zerikarli, fojiali, sentimental; xolis-sokin, vazmin, bosiq, ahamiyatsiz.


Shunday qilib biz keltirgan har bir rang albatta biror fe'limizga to'g'ri keladi.

Ranglarning yana bir subyektiv taassurotlaridan biri bu milliylik omili bo'lib, hududning madaniy an'analari, yoshi, jinsi, shaxsning madaniy darajasi, kasbiy faoliyati, turi, psixologik tuzilishi kabilardir [21].

Ranglarning obyektiv xususiyatlari va ular chaqiradigan reaksiyalar:

- rang qancha yorqin va to'qroq bo'lsa, unga psixik reaksiya aniqroq, intensivroq va turg'unroq bo'ladi;
- ranglar murakkab, xiraroq, o'rta yorqin bo'lsa kishi diqqat-e'tiborini (reaksiyasi) kamroq, turg'unsizroq jalb qiladi;
- ranglarning haroratiga, og'ir yengilligiga, akustik sifatlariga e'tibor o'rtacha yoki umuman kam yengil qaraladi;
- ranglarni qabul qilish va rang didi odamlarda turlicha bo'lib, ya'ni ta'm, hid bilish, sezish, his qilish kabilarga assotsiativ reaksiyasi bir-biridan farqlanadi, ularning maxfiy ichki kechinmalari va sezgi organlari faoliyati bilan bog'liq bo'ladi;
- sariq va yashil ranglar eng boy va xilma-xil reaksiyalar chaqiradi. Chunki ular tabiatda boshqa ranglarga qaraganda ko'proq mavjud bo'lib, ularning xilma-xilligi kishi ruhiyatiga singib qolganligi tufayli ularning assotsiativligi ham boy bo'ladi.

Biz an'anaviy qog'oz kartalarda rangli chiroqlar bilan emas balki oddiy siyoh yoki pigmentlardan foydalanamiz. Qizil, yashil va ko'k pigmentlarning aralashishi oq rangni emas, balki biroz sovuq rangga yondashgan qoraga yaqinroq bo'lgan rangni hosil qiladi. Qizil rangda aks ettirilgan obyektlar qizil nurli to'lqinlardan boshqa hamma nurlarni yutadi. Ba'zi yorug'lik to'lqinlari sabab ranglar qog'ozda so'riladi, shuning uchun ayrim rang ishlab chiqarish uchun bir sahifada birlashtirilishi mumkin bolgan pigment ranglar subtraktiv deyiladi. Subtraktiv birlashgan ranglar qizil, ko'k va sariq (4.1-rasm). Bu ranglar va qo'shimcha qora rang har qanday rang yoki soyali ranglarni chop etish uchun ishlataladi.



4.1-rasm. Qo'shimcha va subtraktiv.

4.2. Rang o'lchamlari


Ranglar qatori yuqoridagi boblarda ham muhokama qilin-gan. Ranglar aslida uch o'lchamdan iborat bo'lgan yagona tiniqlikdagi rangdir. Biz muayyan rangning to'lqin uzunligi nurini ko'zning sezishiga bog'liq holda anglaymiz. Shunday qilib ranglar qizil, ko'k, yashil va binafsha ranglarda bo'ladi. Lekin biz bilamizki qizil yoki ko'k ranglarning ham juda ko'plab xillari bor.

Biz odatda «ochiq ko'k» yoki «to'q ko'k», «yashilsifat havorang» yoki «ko'kimtir» kabi ranglar haqida ko'p gapiramiz. Ko'k rangning ayrim turlari aynan «moviy» bo'lib ko'rindi. Bu ta'rif orqali boshqa bir ikkinchi o'lcham bayon qilinadi: tiniqlik va yorqinlik. Yorqinlik qiymat deb ham yuritiladi, lekin miqdoriy ma'lumotlar bilan ishlashda yuqori yoki past qiymatlarni aks ettirishda bu usul murakkab bo'lib, chalkashlikka olib kelishi mumkin. Odatda oq va qora ranglar orasida bir qator ketma-ket yorqinlashib borgan ranglarni tasvirlasak, kulrangning bir necha xil yorqinlikdagi ranglari kelib chiqadi (4.2-rasm).

Agar kulrang oq rangga yaqinroq bo'lsa, uning qiymati yuqoriligini bildiradi qora rangga yaqinroq bo'lsa, uning past qiymat-

li ekanligini bildiradi. Biz kulrang tuslarni bir-biriga solishtirish natijasida turli rangdagi darajani ko'rishimiz mumkin. Kulrangning oq rangga yaqin bo'lgan ko'kimdir rangi yuqori qiymatga ega va qoraga yaqin bo'lgan ko'k rangi past qiymatga ega ekanligini ko'rsatadi (4.2-jadval). Biz keyingi bo'limda bir necha rang tizimlarini, rangdagi yorqinlikni taqqoslashni va ularni farqlashni ko'rib chiqamiz. Yorug' ranglar tovlanuvchan bo'lib, shuningdek «boyitilgan rang» degan ma'noni anglatadi. Sof spektrli ranglar yuqori darajaga ega bo'lib to'liq to'yangan rang (4.1-rasm) hisoblanadi.

Shunday qilib biz, ranglar haqida gapirganimizda uning faqatgina asosiy rangini tasvirlabgina qolmay balki uning och yoki to'qligiga ham ahamiyat qaratamiz.



4.2-rasm. Ravshanlik shkalasi.

4.3. Rangni tasniflash tizimi

Bundan oldingi bo'limlarda biz to'q ko'k, yashilsifat-havorang yoki qizg'ishsifat-ko'k ranglar orasidagi tafovutni, ranglar sifatini, yuqori yoki past yorug'lilik darajasini aniqlashni ko'rib chiqdik.

Biz foydalanuvchilar ma'lum bir rangi tasvirlash uchun harakat qilsakda, aynan bir turdag'i rang haqida gapirayotganimizga ishonch hosil qila olmaymiz. Aynan «ko'k» deb ataluvchi rangdan foydalangan har bir kishi hatto musavvirning ham ko'k rangni

bayon qilishdagi harakat natijasi hayron qoldirgan va bu muammo bilan u tanish. Rassom bilan muomalada bir yechimga keliш uchun va bir turdagи ranglarni bayon etishda ranglar chipidan foydalanish yaxshi natija beradi. Lekin ko'p maqsadlarda rang chiplari bilan ta'minlashning iloji yo'q va boshqa bir ranglarni tasvirlash vositalarini topish kerak bo'ladi. Hozirda tasvirlashning bir necha tizimlari ishlab chiqilgan. Hozirda keng tarqalgan uch tasvirlash usullari bilan tanishamiz, ammo ranglar bilan ko'p ishlovchilarga to'liqroq muhokama uchun boshqa manbalardan ham foydalanishi tavsiya qilinadi.

CIE tizimi.

Xalqaro de l'Eclarage (Cie) komissiyasi, shuningdek ranglar texnikasi bo'yicha xalqaro komissiya, lampalarining yoritish standarti va yoritishga mo'ljallangan birlamchi standart tizimini qo'llashda standart kuzatuvchi vazifasini bajaradi. Har qanday rangni raqamli terminlar orqali aniq ta'rif berish mumkin. Bu standartlar milliy byurosi va Milliy Geospatial-Intelligence agentligi (NGA) tomonidan ishlataladi. Bu subtraktiv emas balki qo'shimchaga asoslangan. Shuning uchun keng tarqalgan boshqa tizimlardan ko'ra chop etishda karta dizayni uchun foydali bo'lmaydi.

Munsell tizimi.

Ushbu tizim Qo'shma Shtatlarda keng tarqalgan va ko'p ishlataladi. Bu 1898-yilda Albert H.Munsell tomonidan ishlab chiqilgan va u hozirgacha kengaytirilgan va takomillashtirilgan. Bu tizimda rangning uch o'lchamlari mustahkam bir rang yaratishda ishlataladi. Shaklda (4.3-rasm) qora yuqoriga ko'tarilgan sari bir qator ranglardan keyin oqni tashkil etadi va bu kulrang shkalada o'rta kulrang yoki neytral ranglar hisoblanadi. Ular 9 dan 1 gacha raqamlanadi va bir xil oraliqni tashkil etadi. Masalan 5-raqamli rang o'rtacha yorqinlikdagi kulrangni bildiradi. Bu nuqta orqali o'tgan obyekt yonalishi o'rta yengillikdagi rang bilan belgilanib doirada hisoblanadi. Munsell tomonidan «ekvator» deb nomlangan qattiq tashqi qism ichidagi asta-sekin bir rangdan boshqasiga

almashilgan ranglarning o'nlik shkalasi bo'lib, uning boshlanishi va tugashi qizil rangda ifodalanadi.

Ekvatorga yaqinlashgan sari ranglar kuchliroq, y'ani to'qroq ko'rinish aks etsa, o'qqa yaqinlashgan sari xuddi shunday natijani ko'ramiz. Barcha ranglar ham ketma-ket to'qlashib borilganda kutilgan natijani bera olmaydi, chunki hosil bo'lgan shakl aylana, doira ko'rinishida emas, balki asimmetrik hisoblanadi.


Kulrang shkalaning har bir pog'onasida doira bir qator turli qiymatlarni ko'rsatadi. Qora rang qutbga tomon o'zgarib boradi shu bilan birga oq qutbga tomon ham ochlashib boradi. Bu doira o'z-o'zidan ranglar g'ildiragini hosil qiladi.

Shunday qilib, bu tizimda har bir rang bitta bosh harf va ikki raqam bilan belgilangan bo'ladi, bu esa har qanday rangning aniq joyini ko'rsatib berish imkonini beradi.

Ranglarning farqlanishi.

Yuqorida tasvirlangan tizimlar rangni tushunish uchun foydali bo'lsa-da, printerda chop etish uchun ranglar alohida tanلانadi va tasvirlanadi. Xuddi rassom tomonidan taqdim qilingan bir tizimli bo'yoq singari. Printerlar rangli grafik xususiyatlariga ega va ular uch subtraktiv va qora rangdan aniq bir rangni hosil qilish uchun foydalanadi. Bu jadvalning eng keng tarqalgan turi «Pantone Matching System» hisoblanadi. 4.4 doira faqat ikki rangdan hosil bo'ladi va ularning ranglar oralig'i ko'rsatkichi hamda ishlataligan har bir rangning foizi ko'rsatiladi.

Kompyuterning dasturiy ta'minot tizimlari bir necha xil rang yaratish va rang modellarining miqdorini berish funksiyasiga ega. CorelDraw CMYK (ko'k, qizil, sariq, qora), RGB (qizil, yashil, ko'k), HSB (rang, yorqinlik), kulrang va LAB (Cie) tasvirlaydi; illustrator CS HSB, CMYK, RGBlar kulrangni tasvirlaydi. Bu dasturlar oq-qora kartani chop etishdan oldin ranglarni aniq ko'rish imkonni beradi.



4.5-rasm. Munsell tizimi.

4.4. Ranglarni tanlash

Ranglardan kartalarning maqsadiga mos ravishda foydalanish mumkin. Bu uning maqsadini yoritib berishga xizmat qilishi kerak. Foydalanimgan asosiy ranglardan tashqari yana qo'shimcha ravishda ranglardan foydalanishga to'g'ri kelsa bu qaror xarajatlarni oqlashi kerak. Ranglar karta yaratilishidagi oxirgi bosqichda emas balki karta dizaynnini loyihalash bosqichlarida rejalashtirilishi kerak. Artur Robinson kartografiyada ranglardan foydalanishning uch sababini keltiradi:

1. Bu tushunishni osonlashtiradi va soddalashtirish elementi sifatida qo'llaniladi. Ranglar sifatni oshiradi va bir butunlikni vizual darajada ko'rish imkoniyatini beradi.

2. Ranglardan kartada foydalanish o'quvchiga subyektiv reaksiyalar haqidagi yuqori samarali ko'rinishni aks etadi.

3. Bu kartaning sezilarli darajada o'quvchanlik va ko'rgazma-lilagini oshirishga ta'sir qiladi.

Bularga quyidagilarni qo'shish mumkin:

4. E'tiborni tortadi.

5. Ko'rksamligi bilan o'ziga jalb etadi.

Ranglardan foydalanish.


Kartograflarning ranglardan foydalanishining asosiy sababi ham uning jalb etuvchiligidadir. Ranglar kartaning asosiy ramzlaridan biri hisoblanadi (7-bob). Turli xil ranglardan foydalanish har xil raqamli qiymatlarni tasvirlash uchun qo'llaniladi. Turli shakldagi obyektlarni ko'rsatish uchun bir xil rang berilishi ularning bir-biri bilan bog'liqligini ko'rsatishi mumkin. Bir shakldagi ramzlarda turli ranglarning ishlatalishi ularni bir-biridan farqlashga yordam beradi, masalan yo'nalishlar transport turlari uchun bir xil shaklga ega bo'lgan chiziqli ramzlar bilan tasvirlansada turli rangda berilishi ularning turlarini ajratish imkonini beradi. Nuqtalar kartada rangli tasvirlangan va har bir rangli nuqta turli mahsulot va ekinga misol bo'ladi.

Kartani yaqindan bilish, undagi ma'lumotlarni osonroq qabul qilishda va uni rivojlantirishda ranglarning ahamiyati katta. 4.4-rasmdagi kartada yo'nalish oq-qora rangda ko'rsatilgan. Tasvirlangan chiziqlar turli ko'rinishda bo'lsada, bularni bir-biridan ajratish mumkin va ular legendada bayon qilinadi. Kartada chiziqlar qo'shimcha ranglar bilan ajratilsa yanada aniqroq va qulay bo'ladi. Rang ma'lumotlarni ochiq-oydin ko'rsatish, o'zaro bog'lash va vizual iyerarxiyani tashkil etishning qulay yo'llaridan biri hisoblanadi (4.3-rasm).

Ranglar jilosi.

Rang ko'zni jalb etishi va e'tiborni tortishi shubhasizdir. Ranglar ichida qaysi rang e'tiborni kuchliroq tortishi va jozibali-roq ekanligi aniq emas, ammo qarama-qarshi sinov natijalari va fikrlar mavjud. Umuman olganda, e'tiborni tortish qiymati uning

ko'rinishiga bog'liq. Binobarin masofadan yaqqol ko'rrib turgan rang e'tiborni kuchli jalb etadi. Bundan tashqari sof va yorqin rang ham ranglar qatorida ajralib turadi. Shu bilan birga, ko'rini-shi fonga ham bog'liq bo'ladi. Masalan, sariq to'q ko'k rang bilan juda yaxshi ko'rindi ammo oq sahifasida chop etilganda yorqin tasvir pasayadi. Ranglar o'rtasida tipografiya, chiziqlar, nuqtalar yoki joylar uchun alohida ishlatiluvchi ranglar mavjud.



4.4-rasm. Rangdan foydalanish kartadagi yo'nalishni yanada tezroq anglash imkonini beradi.

Chop etilgan kartalarda shuni ko'rishimiz mumkinki kartograflar qora va oq rangga qo'shimcha ravishda qizil rangni ham eng yuqori qiymatga ega deb hisoblashadi. Ko'p tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki eng ko'p ishlatiladigan rang qizil hisoblanadi. Ba'zi darsliklar kartalarida oq va qoraga rangdan, qo'shimcha ravishda jigarrang va yashildan foydalanilgan. Jigarrang odatda e'tiborni

tortishda past baholansada, bu kartada yaqqol ajralib turuvchi yagona rang ekanligi oddiy haqiqatdir. Bir mamlakat yoki mintaqaga kartasida bitta rangdan foydalanish zarur bo'lsa, maqsadni tasvirlashda qizil rang yaxshi samara beradi.

Rangning afzalligi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, rang kartani tahlil qilishda eng ko'p tanqid qilinuvchi jihatlardan biri hisoblanadi. Har bir kishining tanlovida rangning o'z afzalliklari bor. Biroq, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, rang tanlashda kishilar ko'proq tez-tez ishlataladigan aniq ranglardan ko'ra mavhum ranglarni tanlashga harakat qiladilar. Shunday qilib, ba'zilarga qizil avtomobil yoqсада ammo qizil yotoqxona ma'qul bo'lmaydi. Insonlar yoshining o'sishi bilan rangga bo'lган qarashlarda ham o'zgarishlar paydo bo'ladi, turli madaniyatlar ham turlicha ko'rinishga ega bo'ladi, qolaversa erkaklar va ayollarning ham qarashlari turlidir.

Rang assotsiatsiyasi.

Rangdan foydalanish assotsiatsiyasi va rang birlashmalari ko'rib chiqilishi mumkin. Ranglar hid va harorat kabi sifatlar bilan ham bog'liq, lekin bu birlashmalarning ko'pi individual yoki madaniydir. Harorat universal yondashuvlarning bir necha turlaridan biri bo'lib, ranglar aytishiga qarab «issiq» yoki «sovut» deyiladi. Qizg'ish, apelsin, sariq kabi ranglar issiq, ko'katlar rangi sovuq ranglardir. Bu assotsiyatsiya issiq haroratdagи joylarni odatda issiq ranglar bilan va salqin hududlar uchun sovuq ranglardan foydalanishda o'z samarasini beradi. Keng tarqalgan assotsiyatsiyalardan biri bu suv rangini moviy rangda berilishidir. Bu rang barcha kartalarda, hatto ifloslangan suvlar uchun ham universal tarzda ishlataladi. Ba'zan bu konvensiyalar chalkashlikga ham olib keladi. Iqlim kartalarida odatda sarg'ish yoki to'q sariq rang ishlatilsada ammo yog'ingarchilik yuqori bo'lган hududlar ham ko'k rangda tasvirlanadi. Ko'p hollarda balandlikka ko'tarilishni ko'rsatuvchi gipsometrik kartalarda ko'k rang bilan pastteklislik va qizg'ish jigar-rang bilan tog'li hududlar tasvirlanadi. Kartadan foydalanuvchiga issiq ranglar sovuq ranglardan ko'ra yaqinroq tuyiladi. Malaka-

siz foydalanuvchi bu gipsometrik rang pog'onalarini balandlashuv deb anglashi mumkin ular o'simlik qoplami, iqlim yoki yog'ingar-chilikni ifodalashi mumkin. Yashil hududlar namgarchilik yuqori bo'lgan hududlarni, jigarrang esa issiq va quruq joylarni anglatadi deb noto'g'ri idrok qilinadi. Bunda legenda bilan ishslash muhim ahamiyatga ega.

Ranglar vaziyatlarni ham aks ettirishi mumkin. Masalan qizil xavfni va sariq ehtiyyotkorlikni bildiruvchi ma'nolarga ega. Bu ma'nolarni hisobga olish mumkin bo'lsada, lekin yodda tutish zarurki bu kartalar aynan shu holatlarda ishlatilishi universal qabul qilinmagan.

Sariq rang qo'rqoqlikdan va qizil jasoratdan darak beruvchili-gi kartalardagi ranglarga mutlaqo bog'liq emas, ammo bu rangda tasvirlangan mamlakatdagilar bu rangdan salbiy ta'sir olishi ham mumkin. Mamlakatdagi aholining irqidan kelib chiqib hududiga rang berish katta jinoyat bilan teng hisoblanadi. Bunda mavhum ranglarni ishlatish qulaydir. Amerika Qo'shma Shtatlari-da daromad va boshqa moliyaviy vaziyatlar ko'pincha yashil rangda ko'rsatiladi, bu mantiqan hisoblanib birinchi navbatda valuta rangini bildiradi. Valutasi pushti yoki binafsha rangda bo'lgan boshqa mamlakatlar uchun bu usul ishlatilmaydi. Bunda reaksiyalar olish uchun to'liq ranglardan foydalanib bo'lmaydi lekin yanada keng tarqalgan rang assotsiyatsiyasidan xabardor bo'lib turish foydali hisoblanadi. Genri Dreyfussning «A Symbol» materiallar rangi ramziy ma'no uchun qimmatli yozuvlar bo'ladi. Kartani loyiha-lalashda boshqa jarayonlar kabi dizayn va rang tanlash uchun ham foydalanuvchilar auditoriyasini, ma'lumotlarni va karta mazmu-nini chuqr o'rganish zarur.

Foydalanuvchilar.

Foydalanuvchilarning vizual qobiliyatlarini hisobga olib, rang tanlovin o'rganib chiqqan holda ishga kirishiladi. Daltonik ko'rish aholining bir qismini tashkil etadi. Bunday yarimko'rlikning ko'p turlari mavjud bo'lib, masalan bilar qizilni yashil sifatida, ko'kni sariq holda ko'rvuchilardir. Jamiyatda bu kasallik bilan odatda er-

kaklar ayollarga nisbatan ko'proq aziyat chekadilar. Odatda bu qatlamdagi aholi uchun kartani loyihalashtirishda, muammolarni bartaraf etish uchun oqilona qaror bilan rang tanlanadi.

Karta ko'rinishi.

Kartani qayerda va qanday holatda ishlatalishi muhim ahamiyatga ega. Ekranda yoki qog'ozda aks etilgan ranglar deyarli hamma vaqt aslidan farq qiladi. Bir ko'rinishga ega bo'lgan rangli rasm va chizmada (sxema) karta rangli printer va bosmadan (poligrafiyada) chiqarishdan ko'ra monitor ekranida har xil ko'rinishi mumkin. Shu sababdan kartani loyihalashda CMYK palitrasidan foydalangan bo'sada ekrandagi rangni aniq tasdiqlash maqsadida oldindan qog'ozga sinov tariqasida chop etib ko'rish kerak. Kartalarda ma'lumotlar proyektor orqali kuzatilishi va PowerPoint prognozi uchun bo'lsa ham iloji boricha ranglar bir xilligiga e'tibor berish kerak bo'ladi. Afsuski kartograf ishlataladigan proyektor turini nazorat qila olmaydi, ammo ba'zi sxemalar boshqalardan ko'ra yaxshiroq ishlaydi. ColorBrewer proyektorlar uchun mos bo'lgan rang sxemalarini taklif etadi.

Ma'lumotlar xarakteri.

Ma'lumotlar xarakteri asosiy va muhim omil hisoblanadi. Ma'lumotlar sifatli, miqdorli yoki raqamlarning betartib joylashgan holat bo'ladi va bu toifalar, yana bir necha toifalarga bo'linishi mumkin. Cynthia Brewerning tadqiqotlari natijasiga asoslanib to'rt xil bir-biriga bog'liq bo'lgan konseptual ma'lumotlarni ranglar bilan tasvirlash qoidalari jadval asosida ko'rsatilgan (https://en.wikipedia.org/wiki/Cynthia_Brewer). ColorBrewer ranglarni (4.4-rasm) tanlash va o'rganish uchun foydali sayt (www.ColorBrewer.org).


Sifatni anglatuvchi sxemalar.

Sifatni anglatuvchi sxemalar hajmli yoki miqdorli ma'lumotlar uchun ishlatalilmaydi ular faqat sifatni bildiruvchi axborotni tasvirlaydi, masalan yerdan foydalanish yoki o'simlik turlarida. Sifatli sxemalardan foydalanib turli ranglar orqali toifalar orasidagi farqlarni ko'rsatish bilan birga, ranglar orqali hududlarni bir-biri-

dan yanada osonroq farqlash mumkin bo'ladi. Ular o'rtasida katta farq bo'lmasligi kerak, chunki ma'lumotlarning bir-biriga nisbatdan farqi kichik bo'ladi.

GATning paydo bo'lishi bilan rangdan foydalanish osonlashdi va shu sabab ko'plab yangi kartalar ishlab chiqarila boshlandi, chunki bu dasturda qirqdan ortiq ranglar toifasi mavjud.

Ranglarda mantiqning yo'qligini misol qilib, 4.5-rasmni olishimiz mumkin. Bu rasmda ignabargli daraxtlar uchun qizil rang, yaylovlari uchun pushti, qalin bargi daraxtlari yashil, quruq yer uchun och yashil, aralash o'rmonlar uchun jigarrang va butazorlar qizg'ish ranglarda tasvirlangan. Bu bir misol bo'lsada, ko'p kartalarda shunga o'xshash xatolarni uchratish mumkin. Yuqorida yashil rang barcha turdagisi daraxtlar va o'simliklar uchun mantiqiy to'ldirishni aks etadi.




4.5-rasm. Ranglar pog'onasi kartada va legendada turli ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Miqdorli sxemalar.

Miqdoriy kartalar harorat, yog'ingarchilik darajasi, balandlik va shu kabi hududiy taqsimotning ayrim raqamli jihatini ifodalaydi. Agar ma'lumotlar kichik miqdordan kattaga qarab o'shib borsa, odatda oddiy rang sxemasi ishlatiladi. Sxemani neytral ranglardan foydalanib ishlab chiqish mumkin. Misol uchun ko'k, kulrang yoki

sariq (4.6-rasm) ranglardagi bir rangdan ikkinchi rangga o'tish yo'li orqali hosil bo'ladi. Bunday hollarda farqlar yengil o'zgarishda aks ettiriladi. Kartograflar miqdorni tasvirlovchi kartalar uchun beshdan yettigacha bo'lgan pog'onalar orasidagi ranglardan foydalanaadi. Sariq rang yuvish uslubida qizil rangga nisbatan sifatli va yorqin pog'onalarga ajratilmaydi. Ikki xil rangdan foydalanish bir rangdan foydalanishdan ko'ra yaxshi natija beradi.



4.6-rasm. Grays ranglarining aniq farqlanishi unda joylashgan kvadratchalarda berilgan bir xil rang yordamida boyitilgan.

Ba'zi ma'lumotlar yuqori ham, past ham darajada bo'lmay o'rta nuqta sifatida markazdan boshlanadi. Ijobiy va salbiy o'zgarishlar noldan boshlanadi va bunga aniq bir misol keltiramiz. Ayrim misollarda ma'lumot markazdan yuqori yoki pastda joylashadi, masalan o'rtacha harorat ham muzlash nuqtasidan yuqorida yoki pastdag'i ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bu turdag'i ma'lumotlar uchun sхema qulay hisoblanadi. Ba'zi misollar 4.7-rasmda ko'rsatilgan.

Rangning o'zaro ta'siri.

Ranglar kartada yakka ko'rsatilishi mumkin emas, shuning uchun kartada turli ranglarning ishlatalish yo'llarini ko'rib chiqish kerak. Misol tariqasida ko'rsak bir rang atrofidagi ta'sir natijasida bir vaqtda turli va kontrast bo'lib ko'rinishadi. Kulrang atrofdagi yorug'lik ta'sirida kartada och yoki to'q ko'rinishda bo'lishi mumkin (4.8-rasm). Shundan kelib chiqib kartadagi rang va le-

gendadagi rang o'rtasida yengil tafovut paydo bo'lishi mumkin. 4.2-rasmdagi kulrang neytral shkala och va yorqin ranglar oldida joylashsa ochroq va, aksincha, to'q ranglar oldida to'qroq ko'rinishda bo'ladi. Bu muammo qisman maydonlar ichida chiziqlar joylashtirish yo'li bilan yechiladi. Kartadagi juda kichik hududlar ko'rinish turishi uchun yorqinroq ranglardan foydalanish tabab etiladi.

Yozuvlar karta fonida muhim masala bo'lishi mumkin. Yozuv uchun rangli fonda shu rangga yaqin bo'lgan rangdan foydalanishda ehtiyyot bo'lishi kerak. Ba'zi kombinatsiyalarni o'qish qiyinchilik tug'dirishi va ko'zga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Qora va sariq birga aniq va toza ko'rinishni beradi va shuning uchun tez-tez yo'l belgilarida ishlataladi. Oq fonda yashil, to'q ko'k, ayniqsa qora yaxshi o'qiladi va ko'lamni kengaytirib ko'rsatishga yordam beradi. Ranglarni ketma-ket joylashtirishda ayrim ranglar uzoqdan chalkash ko'rinishga olib keladi va bu kombinatsiyalarga yo'l qo'ymaslik lozim. Bu shuningdek yo'l-yo'l yoki boshqa naqshlar uchun ham taalluqlidir.

Qora va oq ranglar.


2-bobda ta'kidlanganidek rang har doim ham yagona yechim emas. Rang onlayn kartalash uchun umumiy ishlanib, bir printerda ishlab chiqarilib, bir necha nusxaga aylantirilayotgan bo'lsada, hali ham ko'p maqsadlar uchun oq-qora kartalar zarur bo'lmoqda. Jurnallar va gazetalar tobora rangli ishlab chiqarilayotgan sari ularning narxlari ham qimmatlashmoqda. Darsliklar va ayrim kitoblardagi kartalarning ko'pchiligi hali ham oq va qoroda yaratiladi. Shuni hisobga olib oq-qora dizayndan ham xabardor bo'lish zarurdir.

Asosiy e'tibor kulrangning turli ranglarga ajrata olishiga qaratiladi. 4.7-rasmda rang legendada bir-biridan alohida osonlik bilan ajratilsa, kartada esa bu birmuncha qiyin bo'ladi.

4.6-rasmda ikki kvadrat bir xil kulrang bilan tasvirlangan, lekin ularga o'ziga nisbatdan och yoki to'q rang bilan birga qaralisa, ularning rangi yaqqol ko'rinaldi. Bu kulrangning ochlashishi

yoki to'qlashib borishi yordamida 10 ta turli rangni yaratish das-turiy ta'minot orqali oson bo'lsa-da, inson ko'zi bularni osonlik bilan ajrata olmaydi. 4.2-rasmda kulrang 10 xil shkalada ket-ma-ket pog'onalarida ko'rsatadi, ammo qo'shni pog'onalarini bir-biridan farqlash oson emas. Bundan kelib chiqib kartograflar oq-qora kartalar uchun ko'pincha besh yoki olti pog'onali shkalan dan foydalaniladi. Ko'p hollarda ranglar miqdorini ham tasvir-lagani sabab rang pog'onalarining ko'pligi chalkashlikka olib ke-lishi mumkin. Bunday hollarda qo'shimcha ravishda naqsh va chiziqlardan foydalanish yaxshi natija beradi.


Chiziqlardan tashqari ramziy belgilardan foydalanish mum-kin boladi masalan, daraxtlar va yaylovlар shaklini tasvirlash orqa-li (4.7-rasm). Bu vizual o'zgaruvchilar 7-bobda yanada to'liqroq yoritilgan. Kartani loyihalashda ranglar oq va qora bilan cheklangan bo'lsa dizayn jarayoni oson bo'ladi. Kartada oq va qora rang ni ko'rish mumkin bo'lsa, kulrangdan ham ba'zi ranglar tanlangan bo'lishi kerak. Bu ba'zi bir ehtiyyotkorlikni talab qiladi. Misol uchun, oq-qora rangli karta bosma ko'rinishda bo'lsa, PowerPoint taqdimoti uchun bu ranglarni tanlashda yana qayta ko'rib chiqilishi kerak.



4.7-rasm. Oq-qora kartalar uchun shartli belgilar turi.

Rampa, ya'ni kulrang silliq gradatsiya ko'rinishida rang ketma-ketlik pog'onasida bo'lmay ular soni ham cheklangan bo'lishi (4.8-rasm) mumkin. ColorBrewer foto yoki bosma uchun rang tanlashda yordam berishi mumkin.

Yozuvlar rangi joyga va uning xarakteriga mos bo'lgan ranglarda bo'lishi kerak. Ko'p ishlataladigan ranglar ularning xususiyatlarini anglatishi lozim. ColorBrewer turli rang sxemalari, shrift turlari uchun shaxsiy jadval tuzish imkonini beradi va u shrift hamda chiziq o'lchamlarini o'z ichiga oladi.



4.8-rasm. Karta oq va qora rangda ishlansa ranglar diqqat bilan tanlanishi lozim bo'ladi, chunki bu karta chop etilganda yoki nusxa ko'chirilganda ranglarning o'zgarishi va ma'lumotlar yo'qolishiga olib kelishi mumkin.

Rang estetikasi va uyg'unlashuvi. Rangning yakuniy ko'rib chiqiladigan jihatni bu kartada ranglarning umumiy uyg'unlashuvi hisoblanadi. Ma'qul ranglar kombinatsiyalaridan ishlangan karta o'ziga o'quvchini yanada ko'proq jalb etadi va o'quvchanlikni oshiradi. Rang faqat ko'proq jaranglaydigan ranglar emas. Kartani tahlil qilishda barcha yozuvlarning fonga mos kelishiga, kichik hududlarni ko'rish qiyinchilik tug'dirmasligiga yoki haddan tashqari ahamiyat berilganligiga va ranglarda mantiqning borligiga ahamiyat qaratish kerak.

Takrorlash uchun savollar:

1. CIE tizimi haqida tushuncha bering?
2. Ko‘rinadigan spektrlarni sanab bering?
3. Kompyuterning dasturiy ta’minot tizimlarining bir necha xil rang yaratish va rang modellari miqdorini berish funksiyasiga ega qanday dasturlarni bilasiz?
4. Artur Robinson kartografiyada ranglardan foydalanishning qanday sababini keltiradi?
5. Ranglar aytishiga qarab qanday ataladi?
6. CMYK palitrasи haqida nimani bilasiz?
7. Qanday ranglar tabiyati jihatigan issiq ranglar turiga ajratiladi?
8. Inson ko‘ziga ko‘rinadigan spektrlarni sanab bering.
9. Kartada ranglar qanday vazifalarni bajaradi?


5-bob. MASHTAB, KOMPILYATSIYA VA GENERALIZATSIYA

Hayotda shunday kartografik paradokslar borki, unda foydali karta aniqligi va haqiqiy tasvir, haqiqatni ochiq-oydin aytishga majbur qiladi.

— Mark Monmonier (1996)

5.1. Masshtab: Yer sharini kichiklashtirish

Har qanday kartalar masshtabda chizilgan, ya'ni ular haqiqiy o'lchamga nisbatdan kichiklashtirilgan holda chiziladi. Bu kartadan foydalanishni oshiradi; masshtab Yer sharini tushunarli va ishlasa bo'ladijan holatga keltiradi. Karta masshtabi bu kartadagi o'lchamni haqiqiy hayotdag'i o'lchamiga nisbati hisoblanadi. Sonli masshtab o'zaro aloqadorlikni bildiradi. Misol uchun 1/1000000 yoki 1/24000. Bu haqiqiy holatni 1000000 dan biri yoki 24000 dan birini bildiradi. Biz karta yaratganimizda masshtab geografik bir bo'lak hisoblanadi. Masshtab 3 xil ko'rinishda bo'ladi: sonli, nomli yoki grafik ko'rinishda (5.1-rasm). Sonli masshtabni kartaning real hayotdag'i holatiga nisbati 1/1000000 yoki 1/24000 deb aytish mumkin.



5.1-rasm. Masshtab uch ko'rinishda ifodalanishi mumkin: sonli, yozuvli va chiziqli.

Bu degani kartadagi bir o'lcham birligi haqiqiy hayotdag'i 1000000 o'lchov birligiga teng; y'ani kartadagi 1 duym joydag'i 1000000 duymga yoki 1 sm esa joydag'i 1000000 sm ga teng.

Buni boshqacha qilib aytganda karta joyining 1/1000000 ga kichiklashishiga to‘g‘ri keladi. Ushbu mashtab turini kasr yoki natural mashtab yoki kartaning bosh mashtabi bilan aytildi. Kasrli mashtabga hech qanday raqamlarni birlik (duym, sm, km va mil) biriktirilmaydi chunki u kasr hisoblanadi.

1/1000000 yoki 1/24000 vizualizatsiya qilish qiyin bo‘lganligi sababli mashtab so‘zlar bilan ifodalanadi. Shuning uchun 1/1000000 da 1 duym joyda taqriban 16 mil yoki 1 sm da 10 km; 1/24000 1 duym 2000 fut yoki 1 sm da 240 metrni tashkil qildi. Bu nomli mashtab yoki so‘zli mashtab deb ataladi, bunda raqamlar yaxlitlashtiriladi. Misol uchun 1/1000000 mashtabda 1 duym 15,782828 mil ni yoki uni yaxlitlashtirgan holda 15 4/3 qism yoki taqriban 16 mil deb olish muhim bo‘ladi, chunki nomli mashtab odatda taqriban qiymatni ko‘rsatadi.

Mashtabning uchinchi uslubi vizual va grafik ko‘rinishda bo‘ladi. Chiziq kartada keltirilgan mashtab bo‘yicha chiziladi va u ma’lum bir o‘lchov birliklarida hisoblanadi. Shu sababdan 1/24000 kartada 1 duym masofa joyda 2000 futni va 0.5 duym joyda 1000 futni tashkil qildi. Ushbu mashtab grafik mashtab yoki chiziqli mashtab deb ataladi.

Yirik mashtab va mayda mashtab atamalari ko‘pincha o‘zaro aloqador hisoblanadi. Yirik mashtabli kartalar kichik maydonni batapsil ma’lumotlar bilan beradi; mayda mashtabli karta katta hududni kamroq ma’lumotlar bilan tasvirlaydi. Shundan kelib chiqib atlasdagi dunyo kartasi kichik mashtabda va atlasdagi shahar kartasi yirik mashtabda beriladi. Yirik yoki mayda mashtab o‘zaro nisbiy atama hisoblanadi; shu bois yirik yoki kichik mashtabda muqim qilib belgilanmagan. Atlaslardagi dunyo kartasi mayda mashtabda tuziladi. Shunga qaramay USGS topografik kartalari yirik, o‘rta va kichik mashtablarga bo‘linadi. Sonlar qiymati qancha katta bo‘lsa mashtab shuncha kichik bo‘ladi. 1/100000 mashtabda 1/500000 nisbatdan kichik hisoblanadi. Bu boshqa kasrlarga o‘xshab; pirogning 6/1 qismi pirogning 4/1 dan kichikroq qismi hisoblanadi. 5.2-(A), 5.2-(B), 5.2-(C) rasmlarda


bir xil hududlar turli mashtablarda keltirilgan. Bunda hududning hajmi va unda keltirilgan ma'lumotlarga e'tibor bering.

Masshtabni hisoblash.

Karta mashtabi odatda hisob-kitob qilinadi. Kartada keltirilgan kasr mashtab va nomli mashtab, chiziqli mashtab yoki kartaning mashtabi noaniq bo'lsa, kartograflar tomonidan mashtab aniqlanishi kerak. 5.1-jadvalda bir holatdan ikkinchisiga o'tish holatlari berilgan.

Masala.

1/253,440 kasrli mashtabni nomli mashtabga aylantiring. Nomli mashtabda mil ni aniqlash uchun 1 ni 253,440 ga bo'lib 1 mil dagi duym miqdori topiladi.



5.2-rasm. Bu kartada bir maydonni turli mashtablarda ko'rsatilgan. Turli xil mashtabda keltirilgan ma'lumotlarga e'tibor bering.

$253,440 / 63,360 = 4$ shu bois $1/253,440$ 1 duym joyda 4 mil ni tashkil etadi.

Yozuvli masstabda km ni hisoblash uchun 1 ni 253,440 ga bo'linadi bunda 1 km da necha sm borligi aniqlanadi. $253,440 / 100000 = 2,53$. Shu bois 253,440 1 sm joydagi 2,53 km ni ifodalaydi. Ba'zi hollarda karta yoki tasvirda masshtab bo'lmasa muammo keltirishi mumkin. Bu yerda berilgan ikki nuqta orasidagi masofani topish kerak bo'ladi, chunki bu maydon yuzasi hisoblanadi.

Kartadagi ikki nuqta orasidagi masofani aniqlash uchun kasr teng bo'ladi (kartadagi masofa bo'lingan joydagi masofaga). Shuni yodda tuting kasr masshtab $1/x$ ko'rinishida bo'ladi. Bu yirik masshtabdagi kartalar uchun qulay hisoblanadi va yirik hududlar uchun bu taqriban bo'ladi.

5.1-jadval

Konvertatsiya omillari


1 xalqaro dengiz mili	= 6,076.1 fut
1 dengiz mili	= 1.15 standart kilometr
1 dengiz mili	= 1.852 kilometr
1 standart mil	= 5.280 fut
1 standart mil	= 63.360 duym
1 standart mil	= 1,61 kilometr
1 standart mil	= 0.87 dengiz kilometr
1 kilometr	= 0,62 standart mil
1 kilometr	= 100000 santimetр
1 kilometr	= 1000 metr

Masshtabning tasvirlanishi.

Kartalarda masshtabning ko'rsatilishi 3 xil yo'l bilan namoyon bo'lishi mumkin. Odatda topografik kartalar va atlaslarda masshtabning 3 xil shaklini o'z ichiga oladi. Grafik masshtab ingliz va metrli o'lchamda ko'rsatilishi mumkin. Tematik kartalar, axborot beruvchi davriy nashrlar va gazetalarda ko'p holarda grafik masshtablardan foydalilanildi. Nima uchun degan savol yuzaga keladi. Chunki, kartograflar har doim ham kar-

taning aniq o'lchamiga amin bo'lishmaydi. Ular to'liq sahifa-da bo'ladimi? Bir qator yoki 1/2 sahifadami? Agar, karta o'zi-ning haqiqiy o'lchamiga qaraganda kattaroq yoki kichikroq nashr qilinsa, og'zaki mashtab aniqroq bo'lmaydi. Grafik mashtab kartaning asosida bir xil o'lchamlarda kattalashadi yoki kamayib ketishi mumkin. Kartalar uchun monitoring ko'rinishida, faqat-gina grafik mashtab hisoblanadi. Turli o'lchamdagি monitorlar ekranining o'lchamiga qarab karta kattaroq yoki kichikroq bo'li-shi mumkin.

Yangi o'rganuvchi karta yaratuvchilar grafik mashtablar yar-tishda odatiy xatolar qilishadi, ya'ni karta xuddi belgilangandek bo'ladi (5.3-rasm). Odatda mavzuli kartalar mayda mashtablar-da yaratiladi, masalan 1:1000000 bo'ladi, bu yerda 1 mil o'lcham-larning belgilanishida mashtab bo'laklarining muhim jihatlari bo'lmaydi. Buning kichik o'lchamlari kartada qilinmaydi va bu kartaning xato ketishiga olib keladi. 1:24.000 mashtabning 20 qadam kenglikda 0.1 intervalda nashr qilinadi va bu kenglik nor-mal hol sifatida qaraladi.



5.3-rasm. Grafik mashtab kartaga qaraganda aniqroq bo'limasligi kerak. Bu kartaning detallari 10 milyadan bo'lsa o'qib bo'lmaydi.

Masshtabni tanlash.


Karta uchun masshtabni topish muhim omil hisoblanadi: kartanining predmeti va maqsadi, ma'lumotning qayta yechimi, kartanining foydalanuvchiga muhimligi va maxsus format.

Kartani loyihalash uchun navigator, mototsikl va velosiped muhim detallar hisoblanadi, uning loyihasida suv havzalari, milliy parklar va reaksiyon hududlar umumiy ko'rinishda ko'rsatiladi. Bill Bryson «Walk Woods» jurnalida juda ham kichik masshtablardan foydalanib ommaga namoyon qiladi.

Brysonning aniq tushunchasi bo'yicha masshtabni topishda aniq hisoblarni joriy qilish lozim bo'ladi. Boshqa bir tomondan qaraganda foydalanuvchi kartadan muhim kengliklarni topishni xohlaydi, shunda umumiy joylashuv 1:100000 masshtabdan kattaroq bo'ladi. Ma'lumotning detallarini tasvirlanishida kartanining masshtabini topish muhim omillardan biri hisoblanadi, shundan keyin aniq masshtab kattaroq bo'ladi, ma'lumotlar qatori kamroq bo'ladi. Sahifaning format vaqtлari maxsuslanadi va kartada uning chetlari ham ko'rsatiladi. Kartadan foydalanishda asosiy muommo loyihalash paytida turli masshtablardan foydalanilganligi bo'ladi. Bu muommo gazetalarda, kunlik nashrlarda va veb-sahifalarda ommaviy holatda e'lon qilinadi, bir o'lchamli foydalanishda alohida yoki agentlik jihatlari nashrdan chiqariladi, chetki qismiga siyohli qatorlar kamayib ketadi (5.4-rasm). Ko'plab ma'lumotlar bu kamayishda yo'qoladi. Kartaning chetki hoshiyasi qizil formatda tasvirlanadi, vaqting aniqligi ham muhim bo'ladi. Shu sababga ko'ra, manba o'quvchi uchun aniq bo'lib ko'rinishi kerak. Kartaning masshtabida umumiy miqdorni topish omili muhim hisoblanadi, ya'ni bu kartada foydalaniladi.

Mayda masshtabli kartalarda kartografik to'r geografik kenglikda oriyentirlash uchun vosita hamda har xil umumlashtirish va xulosalar uchun asos bo'ladi. Nihoyat, punktlarning uzoqlik farqi ularning vaqt farqlarini ifoda etadi. Joyda (Yer yuzasida) nuqtalar orasidagi θ o'lchangan masofalar uzunligini gorizontal proyeksiyalarni qog'ozda kichraytilish darajasiga mashtab deyiladi.

Masshtabni son, so'z va chiziq bilan ifodalash mumkin. Masshtabning kichraytirilish darajasiga qarab uning yirik yoki maydali-gi aniqlanadi.



5.4-rasm. Agar, karta masshtabi kamaytirilgan holatda nashr qilinsa, informatsiya qayta ko'chirilishi kerak.

5.2. Kompilyatsiya: ma'lumotlarni yig'ish

Kompilyatsiya, ya'ni «toplash» – kartani tayyorlash uchun kerakli ma'lumotlarni jamlash tushuniladi. Bu yerda toplash jaronining ikkita bosqichi mavjud, turli manbalardan kerakli ma'lumotlarni jamlab olish va ma'lumotlarni saqlash kerak bo'ladi.

Ma'lumotlarni yig'ish turlari. Turli ma'lumotlarni toplash.

Itti turdag'i ma'lumotlar kartani yaratishda kerak bo'ladi. Bular ma'lumotlar bazasi, tematik va boshlang'ich ma'lumotlar.

Ma'lumotlar bazasi.


Ma'lumotlar bazasi tematik informatsiya uchun kelib chiqadigan ma'lumotlar sifatida aks etadi, aniqrog'i kartaning mavzusini yaratib beradi va uni tushunishni osonroq qiladi. Ma'lumotlar bazasi kartaga diqqat-e'tibor qaratmaydi. Ular loyiha uchun tuzilish holatini ta'minlab beradi va kartadan foydalanuvchi puxta o'yangan maqsadni amalga oshirishga yordam beradi. Muhim jihat, ya'ni informatsiya o'quvchi uchun, qo'shimcha ma'lumot-

larni o‘z ichiga oladi, ammo yetaricha ma’lumotlar bazasi bilan ta’minlanmaydi.

Dennis Fitzsimon ma’lumotlar bazasining foydali klassifikatsiyasi ichki va qo’shimcha jihatlarini ishlab chiqdi. Ichki ma’lumotlar bazasi boshqaruv chegara chiziqlari, sohilning shakli, shaharlar, transport yo’llari, joy nomlari, daryo, tog‘ va ko’llarni o‘z ichiga oladi, shuningdek, geografik informatsiyalar kartaning o‘zida joylashtiriladi. Bunday seriyadagi kartalarda ma’lumotlar shakli cho’zilib beriladi, ma’lumotlarning joylashtirilishi tufayli yuzaga kelgan kartalar ma’lumotli kartalar sifatida foydalaniлади. Qo’shimcha ma’lumotli bazada masshtab, sarlavha, legendalar, matnlarni o‘z ichiga oladi. Qo’shimcha ma’lumotli bazada qo’shimcha funksiyalar ham mavjud bo’лади. Buning elementlari haqida ikkinchi bobda to’liqroq holatda ma’lumotlar berilgan. Shuningdek u yerda ichki ma’lumotlar bazasi ham muhokama qilingan.

Kartaning foydalanish maqsadiga qarab qaysi turdagи ma’lumotlar bazasidan foydalanish tanlanadi. Tanlash jarayoni umumlashgan qismning keyingi boblarida muhokama qilinadi. Misol uchun, Amerika Qo’shma Shtatlarining iqlimini kartadan ko’rsatishda transport yo’llarni ko’rsatish kerak bo’lmaydi, bularning belgilari o’tasidagi munosabatlar obyektiv holatda ko’rsatiladi. Shu sababga ko’ra, Internetdagи transport vositalari tematik informatsiyaning bir qismi bo’lib keladi. Ma’lumotlar uchun asosiy shaharlarning joylashuvi izohlanib kelinadi.

Yuza hududlardagi muommolar ko’rsatilishi kerak, muammolarning tasvirlanishi kartaning sifatini belgilab beradi. Chegaralarning joylashuvi ham ajratilgan chiziqlarda belgilanadi (5.5-rasm). Bolalar odatda kartaning tugashi, davlatning tugashi deb taxmin qilishadi. Hatto o’rta yoshlilar va kattalar ham xuddi shunday noodatiy xatoni takrorlaydi. Amerika Qo’shma Shtatlarining yaqin hududi qilib belgilangan. Ammo ba’zi hududlar uchun foydalanuvchi uchun yaqinlik kamroq bo’lgan davlatlar Urugvay, Botswana, Chexiya Respublikasi shular jumlasiga kiradi.



5.5-rasm. Kartada yaqin bo'limgan hududda axborotning aylanishi, qo'shimcha kartadagi holat.

Ichki ma'lumotlar bazasining manbalari.

Odatda ma'lumotlar bazasi boshqa kartadan olinadi, ammo joylashgan aniq baza va kartalar ma'lumoti ba'zi vaqtida qiyin bo'lishi mumkin. Agar, bittasi karta qilivchi agentlik tomonidan qilinsa, boshqa biri uyda karta tuzuvchilar tomonidan foydalaniлади, ammo mustaqil kartografi boshqa manbadan foydalaniши kerak.

Aniq manbalar xususiy kompaniyalar, institutlar hukumat agentliklarida atlas yoki varaq kartalarda bo'ladi. Mahalliy karta manbalari, universitet kutubxonalari va xalq kutubxonalarida mavjud bo'ladi. Ba'zi karta manbalari to'plash uchun foydalaniladi. Qulay karta bazasi yaroqli bo'lmaydi. Boshqa ma'lumotlar tasviriy ifodada va havodon olinadigan fotosuratlarda bo'ladi. Varaq kartalar va tasviriy kartalar raqamli yoki tekshirilgan bo'ladi, ular raqamli shaklda yaraqli bo'lmaydi. Ko'plab ma'lumotlar Internet raqamli shakli orqali yaroqli bo'ladi. USGS ta'minlangan kartalar va onlayn chizma fayllar kutubxonada kartani jamlashda raqamlanadi, ayniqsa tarixiy kartalar. Dasturiy ta'minot paketida chizmali karta tarkib topgan bo'ladi. Karta bazasidan chiziqli ma'lumot tekshirilganda boshqa bir karta bilan to'g'riligini qiyoslab aniqlab beradi.

Boshlang‘ich ma’lumotlar.

Boshlang‘ich yoki tematik ma’lumot kartaning yuragi hisoblanadi. Bu kartaning obyektivligiga bog‘lanadi. Tematik tushunchasidan ikki xil usulda foydalaniladi. GAT, o‘zgaruvchi qatlam «mavzu» deb nomlanadi, mavzu yo‘l bo‘lishi mumkin, boshqa biri o‘simlik dunyosi va uchinchisi chegara chizig‘i, mavzuli karta uchun, mavzu kartaning subyekti hisoblanadi. Mavzuli karta o‘zining mavzusiga qaraganda normal tasvirlanmagan bo‘lishi kerak emas, mavzu yaroqli bo‘lishni talab qiladi.

Boshlang‘ich ma’lumotlar manbasi.

Bu yerda turli ma’lumot manbalarini keltirish mumkin emas, ammo bular quyidagi kategoriyalarni o‘z ichiga oladi:

- fanning sohasi;
- obrazlilik, sun‘iy yo‘ldosh tasvirini o‘z ichiga oladi;
- statistik manbalar;
- nashr qilingan kartalar;
- boshqa nashr qilingan ma’lumotlar;
- Internet ma’lumotlari;
- intervyular.
- barcha manbalarni ma’lum shartlilik bilan quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- astronomik-geodezik ma’lumotlar;
- umumgeografik va mavzuli kartalar;
- kadastr ma’lumotlari;
- masofadan zondlash materiallari;
- dala ma’lumotlari va o‘lchashlar;
- gidrometeorologik kuzatish natijalari;
- iqtisodiy-statistik ma’lumotlar;
- raqamli modellar;
- laboratoriya tahlil natijalari;
- matnli manbalar;
- nazariya va tajribaga asoslangan qonuniyatlar.

Fan sohalari turli agentliklar, kompaniyalar va mustaqil o‘rganuvchilarni o‘z ichiga oladi, ular o‘zlarini kartograflar deb hi-

soblashadi. Jurnalning maqolasida, dissertatsiyalarda kartalarni yaratish butunlay haqiqiylik saqlanadi, ularning tematik ma'lumotlari sohaga muallif tomonidan to'ldiriladi. Ko'plab kitoblarda geografiya fani muhim fan sohasi hisoblanadi.

Sun'iy yo'ldoshdan odatiy uzatiladigan raqamli tasvir oq va qora ranglardan tashkil topgan rasmlar yuzaga keladi. Bu tasvir muhim manba hisoblanadi. Hozirda ilmiy kartashunoslikning kelajagini rejalashda uzoq muddatga kuchli asos kerak bo'ladi. Kartograflar kartani yaratishda asosiy fan bilan yaqinroq bo'lib kuchliroq maslahat berishadi, boshqa tomondan kurs ishi yozishni tavsiya qiladi. Statistik ma'lumotlar mavzuli kartalarni butunlay to'ldiriladi. Boshlang'ich statistik ma'lumotlar ijtimoiy va aholini ro'yxatdan o'tkazish uchun mos keladi. Birinchi milliy aholini ro'yxatdan o'tkazish 1790-yil Shvedsiyada tashkil qilingan. AQSHda esa 1790-yilda aholini birinchi marta ro'yxatdan o'tkazish boshlandi va bu har 10 yilda amalga oshiriladi. Dastlabki aholini ro'yxatdan o'tkazish hisobotlarida ismi, yoshi, oilada yashaydigan a'zolar soni inobatga olindi. Hozirda aholini ro'yxatdan o'tkazish va uy berish jarayonida ko'plab turli xildagi informatsiyalarga ega bo'lindi. Qo'shimchasiga uylarni ro'yxatdan o'tkazish, aholini ro'yxatdan o'tkazishning har 10 yillikda, qishloq xo'laligini ro'yxatdan o'tkazish va iqtisodiyotni ro'yxatdan o'tkazish har 5 yillikda tashkil qilinadi. Bu informatsiyalarni online holatda tashkil qilinadi. AQSH ro'yxatdan o'tkazish davlat idorasi orqali www.census.gov sayti faoliyat ko'rsatadi. Aholini to'liq holatda ro'yxatdan o'tkazish har doim ham kerak bo'lmaydi. Shahar va davlatning ma'lumotlar bazasida turli xildagi yakuniy informatsiyalar bilan ta'minlanadi. Davlatning ishonchli informatsiyasi uchun AQSH abstrak statistika qiymatli hisoblanadi. Aholi uchun kerak bo'ladigan ma'lumotlarni istalgan holatda topish mumkin bo'ladi. Abstrak statistikalar ro'yxatdan o'tkazish davlat idorasining Internet saytida onlayn holatda berilib boriladi.

Internet sog'liq haqida statistik ma'lumotlar bilan ta'minlangan bo'ladi. Hukumatning aholini ro'yxatdan o'tkazilishida

shuningdek, shaxsiy va moliyaviy jihatlariga ham e'tibor qaratiladi. Bundan tashqari, maxsus qiziquvchi guruhlar ham odatda shunday tashkiliy tomonlarni ishlab chiqadi, masalan Kaliforniya instituti shular jumlasidandir.

Manbalarni baholash.

Manbaning aniqligi va to'g'riliqi bilan tashkil qilinishi kerak. Karta turli manbalar bilan normal holatda to'ldiriladi, baholash jarayonning tashkil qilinishida, ularning har biri ishonchli bo'lishi kerak. Agar, bu yerda har xil aniq manbadan foydalanilsa, natijada kartaning ba'zi nuqtalarida yoki ba'zi joylarida ishonch-lilik kamayib ketadi. Butunlay tayyor bo'lgan ma'lumotlar har doim to'g'ri holatda qabul qilinadi. Siz qabul qiladigan jihatlar amaliyotdan o'tgan bo'lishi lozim.

Mualliflik huquqining etikasi.

Kartografik asarni ishlab chiqish jamoa tomonidan olib borilishi natijasida, kartografiyada mualliflik huquqi masalasi mazmunan va yuridik jihatdan muhimdir. Har qanday kartaning muallifi uning mazmunini ishlab chiqqan kartograf yoki shu soha mutaxassisi bo'lishi kerak. Atlas va kartalarni yaratisha da mualliflar jamoasi, kartograflar, soha mutaxassislari muallif bo'lishi mumkin.

AQSH hukumati tomonidan kartalar va publikatsiyalar ishlab chiqiladi, ular hech qanday ro'yxatsiz amalga kiritilishi mumkin. Boshqa mamlakatdagi agentliklar tomonidan xususiy sektor da ham publikatsilar ishlab chiqiladi. Britaniya kartalari Crown muallifligi asosida ishlab chiqiladi. Tashkilotlar ishlab chiqargan mahsulotning ostida o'z yorliqlarini qo'yishi shart. Dunyoga mashhur kompaniyalar tomonidan original kartalar nashr qilinadi. Milliy Geografiya Jamiyati va Amerika Avtomobil Assotsiatsiyasi bunga misol bo'la oladi. Kartaning manbasi va tematik ma'lumotlar bazasidan foydalanadilar. Tarixiy kartalar hozirgi kunda muzeylarda saqlanib kelinmoqda ular har doim ham o'z sifatini mukammal qilib saqlamagan. Ba'zan muzeylarda eski kartaning faqatgina rasmlari yoki nusxasi qo'yilgan bo'ladi. Man-

balar karta haqidagi ma'lumotlarni aniq ko'rsatishi kerak. Aniq ma'lumotlar har doim ham mukammal ko'rinishni bermasligi mumkin, biroq informatsiya bilan to'ldirilgan karta boshqa kartalarga qaraganda yaxshiroq bo'lib ko'rindi.

Bir so'z bilan aytganda, muharrir kartani loyihalaydi, barcha karta tuzish ishlarini tashkil etadi, so'ngra kartani nashr ga tayyorlash va nashr qilish ishlarini nazorat qiladi. Shu sababli kartaning mualliflik huquqi soha mutaxassisiga emas, balki muharrir-kartografga ham berilishi mumkin [1].

5.3. Generalizatsiya

Kartalar har doim ham biz ko'radigan dunyoni aniq ko'rsatishga harakat qilishi kerak. Shuning uhun kartograflar ham bunday xatolarga yo'l qo'ymasliklari kerak. Ularning kichik xatolari ham juda katta muommolarni keltirib chiqaradi. Generalizatsiya kartaning masshtabi va maqsadli belgilarni aniq qilib ko'rsatib beradi va ommaga taklif qiladi. Ma'lumotlar bazasi va tematik ma'lumotlar tematik kartalarda umumiy xulosalanishi kerak. Generalizatsiya hamma kartada talab qilinadi. Unda ba'zi darajalar cheklangan bo'ladi, bu salbiy omilni ko'rsatmasligi kerak. Generalizatsiya kartaning ommaviyligini belgilab beradi.

Generalizatsiya jarayoni daryolar yo'nalishi va qirg'oq bo'ylini ifodalashda juda oddiy bo'lmasligi kerak. Maqolalar va kitoblar haqida adabiy xulosalar aniq nuqtalarda yaratiladi. Generalizatsiya katta aqliy salohiyat bo'lib kartografdan talablarni rivojlanish talab qilinadi. Kartogarf kartaning umumiy maqsadini aniq tushunishi kerak.

Generalizatsiyaning maqsadi.

Generalizatsiya kartadagi mavzuli ma'lumotlarning geografik tushunchasini o'zida saqlab turadi. Kartograf har qanday holatda karta yoki atlasning mukammalligini ta'minlashi zarur. Generalizatsiyaning aniqligi va sifati ikki jihatdan: kartaning geometrik aniqligi nuqtayi nazaridan va karta mazmunining ishonchliligi jihatidan baholanadi.

Geometrik aniqlik — bu kartadagi alohida nuqtalarni va obyektlarni ularning haqiqiy holatlariga moslik darajasini tafsiflovchi miqdoriy o'lchov. Geometrik aniqlik kartani joy bilan yoki yirik mashtabli manbalar bilan taqqoslaganda aniqlanishi mumkin.

Kartaning mazmunan ishonchhliligi — bu real borliqning kartografik tasvirini uning asosiy xususiyatlarini va obyektlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorligini hisobga olgan holda mos kelishi ni sifatli baholash demakdir.

Generalizatsiya qilishda sifat tafsiflarini umumlashtirish keng qo'llaniladi, ularning farqlarini kamaytirish har doim tasniflash belgilarini umumlashtirish bilan bog'liqdir. Masalan, obzor kartalarda ko'pchilikni tashkil etadigan o'rmon daraxtlarining turlari o'rniga yagona o'rmon belgisi beriladi. Geologik kartalarda yirik mashtablardan mayda mashtablarga o'tishda svita va yaruslarni bo'limlarga qo'shib yuborish bilan stratigrafik bo'linishlar umumlashtiriladi, so'ngra bo'limlar tizimlarga qo'shib yuboriladi.

Generalizatsiya jarayoni.

Ba'zi texnikalarda to'g'ri tasvirlar yaratilib foydalaniladi. Hamma kartograflar ham operatsiyalar yoki ba'zi metodlardan, xuddi 5.2-jadvalda ko'rsatilgandek foydalanadi. Ushbu o'quv qo'llanmada generalizatsiyaning 8 ta jarayonidan foydalanilgan: tanlash, soddalashtirish, to'g'irlash, guruhlash, sinflash, bo'rttirish, ko'chirish va belgilash.

Tanlash.

Tanlash — kartada ko'rsatilgan belgilarni tanlab olish, umumiyl xulosalash jarayoni ikki xil yo'l bilan jalb qilinadi:

Aks ettirilgan ma'lumotlar toifasini tanlash: misol uchun, gidrografik belgilari va yo'llar ko'rsatiladi, ammo temiryo'llar tasvirlanmaydi. Bu tanlangan omil umumiyl xulosalashdan faol holatda ajratiladi hamda buni kartograflar hisobga olishadi.

Toifaning ichida axborotning miqdori tanlanadi: misol uchun asosiy daryolar, aniq o'lchami ko'rsatilgan ko'llar ko'rsatiladi.

Umumiy xulosalashning operatsiyalari

O'sish	Robinson	Dent	Kryger	Slokum	Tyner
Soddalashtirish	tanlash, soddalashti- rish, sinflanish, belgilash, bo'rttirish, jamlash, turlash, bo'rttirish, to'g'irlash, tanishtirish	tanlash, sodda- lashtirish, sinflanish, belgilash	tanlash, sodda- lashtirish, bo'rttirish, o'rin al- mashtirush	tanlash, sod- dalashtirish, belgilash, bo'rttirish, jamlash, turlash, bo'rttirish, to'g'irlash, tanishtirish	tanlash, sodda- lashtirish, guruhash, belgilash, bo'rttirish, jamlash, turlash, bo'rttirish, to'g'irlash, tanishtirish

Tanlash jarayoni har doim ham oddiy bo'lmaydi. Xulosalash uchun ba'zi algoritmlar takomillashtiriladi, maxsus sifatning qarorlari amalga joriy qilinadi. Saudia Arabistonining aks ettirilishi fikrimizga misol bo'la oladi.

Soddalashtirish.

Jamlangan belgilar, mayda masshtab karta detallari mukammal ko'rsatilmaydi, bunga asosan qirg'oq va daryolar bo'ladi. Ko'plab tematik kartalarda qirg'oqning joylashuv detallari muhim bo'lmaydi. Bu yerda kichik ichki ruxsatnomalar kerak emas yoki tematik kartaning nuqtalari bunga misol bo'la oladi. Qirg'oqning asosiy qismi tanilgan belgi bilan ko'rsatilgan bo'ladi, ammo boshqa belgi emas. Boshqa tabiiy kartalarda qirg'oq soddalashgan holda tasvirlanishi kerak.


Tekislash jarayoni soddalashtirishning bir qismi hisoblanadi. Ko'plab orqa tugunlar bilan yo'llar tekislanadi, buraladigan daryolar bilan soddalashtiriladi (5.6-rasm). Buning muhim tomoni, ya'ni belgining xususiyati tekislash jarayonida ko'rsatiladi, switchback yo'llari chizilmasligi kerak, to'g'ri linyalar va

qayriladigan daryolar asosiy o'zgaruvchi yo'nalishda ko'rsatilishi kerak.


Guruhash.

Ko'plab kichik belgilar tez-tez guruhanadi. Bunga juda oddiy misol keltiramiz, alohida daraxt o'rmonning ichida guruhanadi. Masshtabda bir necha kichik belgilarga ruxsat berilmaydi.

Ular bir-biriga yaqinlashtirib, guruhanishi mumkin. Ko'plab kartalar GAT dasturi bilan yaratilib, katta detallar ko'rsatiladi. Karta nashr uchun kamaytiriladi. Shuningdek, bu yerda guruhashning ko'plab toifalari ko'rsatilgan. O'simliklar dunyosi haqidagi katta masshtab karta izlanuvchi uchun juda foydali hisoblanadi (5.7-rasm).



5.6-rasm. Belgilar (A)da soddalashtiriladi va tekislanadi.



5.7-rasm. Ma'lumotlarni kategoriyalar bo'yicha guruhlash.

Sinflanish.


Sinflashtirish va kategoriyaga ajratish jarayoni kartografiya maqsadiga muvofiq bo'limgan holatda amalga oshiriladi. Kartografik maqsadlar uchun ma'lumotlar kategoriyalarga ajratiladi, bu esa ularning ma'noli bo'lishiga yordam beradi. Bundan tashqari kartada joylashgan ixtiyoriy (tartibsiz) sonli qiymatlarning ma'lum tartibda ekranda joylashishiga erishiladi. Qoidaga ko'ra, generalizatsiya aspekti mavzuli ma'lumotlar hajmining tasvirlanishiga bog'liq bo'ladi.

Kattalashtirish.

Oldinroq, misol qilganimizdek daryo, avtomobil yo'llari va temiryo'llar tor vodiyya tasvirlangan edi. Agarda kartaning masshtabi yuqoridagi uchta elementlarni vodiy hududini to'sib qo'ysa, bu holatda karta mazmunini boyitish maqsadida kengaytirib yoki kattalashtirib tasvirlanishi mumkin (5.8-rasm).

Siljish.

Avtomobil yo'li va temiryo'l bir-biriga parallel holatda joylashgan bo'lsa, ular bir-birlaridan ajralib turishlari uchun siljtiladi (5.8-rasm). Tor vodiy misolida avtomobil yo'li, temiryo'l va daryo chiziqlari bir-biridan ajralib turishlari uchun vodiy maydoni eniga qarab, me'yor darajasida kengaytiriladi.



5.8-rasm. Bo'rttirish va xato joylashtirish. Vodiy kengaytirilgan va liniyalni belgilar tor vodiydag'i uchta belgilarni ko'rsatish uchun umumlashtirilgan.

Belgilashtirish.

Belgilashtirish kartadagi geografik fenomenlarni ko'rsatish uchun belgilarning tanlanishi dizaynlashtirilishni o'z ichiga oladi. Kartograflarning barchasi ham simvollashtirishni generalizatsiyaning bir qismi bo'lishiga rozi bo'lmaydilar. Turli fenomenlar uchun belgilarni baholash kartografiya jarayonida markaziy bo'lganligi bois, ba'zi hisobga olingan belgilarni to'liq ajratilishi kerak.

Boshqarish omillari.

Mutaxassis mavzuli kartalar uchun turli umumlashtirish haqidagi o'ylashi mumkin. Barcha kartalarga tegishli bo'ladigan umumlashtirish uchun biror qonuniyat bo'lmasligi ham mumkin. Mutaxassis yo'riqnomalar ishlab chiqishi mumkin, biroq ular bir qancha omillar orqali boshqariladi: karta maqsadi, karta masshtabi, o'quvchi mahorati va idrok qilish qobiliyatları, kartografining anjomlari va qobiliyatları. Umumlashtirish, shuningdek, bazaqa asoslanuvchi yoki tematik ma'lumotlarni ishlab chiqaruvchi ma'lumotlar orqali ta'sirlanadi.

Ma'lumot.

Oraliq asosli ma'lumotlarning umumlashtirilishi.

Oraliq asosli ma'lumotlar tematik ma'lumotlar uchun mazmun kasb etadigan ma'lumot turi hisoblanadi. Ma'lumot turlari gidrografiya, chegaralar, egor chiziqlar, topografik, transport liniyalari va shaharlardan tashkil topadi. Bular ko'pincha tanlash va soddalashtirishga jalb qiladi, biroq bo'rttirish yoki siqishni ham talab etishi mumkin.

Tematik ma'lumotlarni umumlashtirilish.

Tematik ma'lumotlar ko'pincha tanlangan, kategoriyalangan va simvollashtirilgan bo'ladi. Formulalar kartada ko'rsatilishi kerak bo'lgan ko'plab predmetlarning tanlanishidan iborat bo'ladi.


Mavzu va maqsad.

Karta maqsadi asosiy boshqaruvchi yoki generalizatsiya omilini nazorat qiluvchi bo'lishi mumkin. Generalizatsiyaning bir xil miqdori daryolar uchun kerakli bo'lmaydi, asosiy ma'lumotlardan iqlim kartalarida va mavzuli ma'lumotlardan tuzilmaviy kartalarni tasvirlash uchun foydalilanadi. Egri chiziqlar aholi kartasida juda ham soddalashtirilishi mumkin, vaholanki boshqa kichik shkalali, umumiyligi maqsadli karta koproq ma'lumotlarni talab etadi va navigatsiya uchun mo'ljallangan karta katta ma'lumotlardagi kosliniyani ko'rsatib o'tadi. Kartaning maqsadi odatda kartada nima ko'rsatilishi va ko'rsatilmasligini tanlashda muhim sanaladi. Kartografiya karta ishlab chiqilishidan avval kartaning mavzusi va maqsadlarini belgilab olishi kerak.

Karta masshtabi.

Barcha teng sanaluvchi narsalar, mayda masshtabli kartalar yanada umumlashtirgan karta hosil qilishi kerak. Bir xil maqsad, mavzu va auditoriya uchun, yirik masshtabdagi kartalar kamroq soddalashtirilishni talab etadi va u mayda masshtabdagi kartalarga qaraganda kamroq ma'lumotlarni namoyish etadi. Ya'ni eng asosiy cheklovchi omil sanaladi bunday jarayonda chizish va qayta ishlab chiqish masshtablarini yodda saqlash kerak bo'ladi. Agar kartaning liniyali dimensiysi bir yarim hajmga kamaytiril-

sa, chizma mashtabidagi umumlashtirish karta bir xil hajmda ishlab chiqilsagina kattaroq bo'lish mumkin (5.9-rasm).



5.9-rasm. Generalizatsiya darajasi kartaning mashtabi, mavzusi va maqsadiga bog'liq bo'ladi.

O'quvchining mahoratlari.

Barcha kartografik faoliyatlar kartadan foydalanuvchining ehtiyoji va xohish-istagini hisobga olib amalga oshirilishi zarur. Bundan tashqari kartograf auditoriyaning karta haqidagi bilimlarini bilmasada, ba'zi ilmiy va amaliy qobiliyatlari inobatga olinishi kerak. Masalan, normal inson ko'zi kartadagi qora va oq o'rtaсидagi ko'lankalarning oltitadan ko'prog'ini farqlay olmaydi. Shuning uchun, ko'lankalarning o'n ikkita farqli tuzilishi statistik kartadagi 12 ta turli kategoriyalarni ko'rsatish uchun foydalaniladi. Simvollashtirishning har ikki metodi topilishi yoki ma'lumot bir qancha kategoriyalarga guruhlashtirilishi kerak.

Ko'z juda yaxshi liniyalarni qabul qila olmaydi yoki 0.04 duymdan kichikroq belgilarni o'qiy olmaydi; shuning uchun, bunday liniyalar yoki kichik belgilardan foydalanish kartaning aloqa maqsadlarini namoyon qiladi.

Ekologik faktorlar ham bunda hisobga olinishi kerak. 2-bobda ta'kidlanganidek, karta uchun talablar past yorug'likli holatlarda ko'rsa bo'ladigan bo'lishi kerak, turli kartalar uchun foydalanilgan mazkur samolyot yo'llari xonada yanada yorug'roq bo'lib ko'rindi; avtomobil GPS ekrani uchun mo'ljallangan kartada yo'l karta qog'ozlariga qaraganda turlicha talablar mavjud bo'ladi. Mazkur faktorlar soddalashtirish darajasi, kategoriyalar raqami yoki belgi turlariga ta'sir ko'rsatadi. Ba'zan guruhlarga diqqat qaratgan holda kerakli ishlab chiqarish turlari va miqdorini aniqlash uchun bajarish juda muhim sanaladi.

Kartografning anjomlari va mahorati.

Garchi ko'plab professional kartalar va hafaskor kartalar kompyuter, turli xil uskunalar va hamon muhim sanaluvchi kartashunoslar tomonidan ishlab chiqilgan. Ekran, printer va boshqa skaner qiluvchi moslamalar barchasi ko'rsatilishi yoki chop etilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar miqdoriga ta'sir o'tkazadi.

Dasturiy ta'minot imkoniyatlari juda muhim omil hisoblanadi. Dasturlar o'zlarining dizayni va ishlab chiqarilishi unumdorligiga ko'ra keng farqlanadi. Ko'plab dasturiy ta'minotlar deyarli yilda bir marta yangilanib turadi, ya'ni kartashunoslar uning joriy holati bo'yicha diqqatli bo'lishi talab etiladi.

Chizma chizish qobiliyatları GAT, ko'rsatish yoki CADD dasturlarida unchalik muhim sanalmaydi. U biror dasturiy ta'minotga masterlik qilish uchun vaqtini oladi. Bittasi sodda kartani dasturning to'liq imkoniyatidan foydalanmasdan taqdim eta olar ekan, yana biri yanada mukammal karta ishlab chiqarish uchun texnik imkoniyati yuksak darajada hisoblanadi.

Ma'lumotlarning sifati.

Ma'lumotning sifati va tabiiyligi hisobga olinishi kerak. Xato yoki kuchsiz ma'lumotlar xato karta yasashga imkon bermay-

di. Ma'lumot faqatgina yaxshi bo'lishi emas, balki biz foydalanmoqchi bo'lган karta uchun juda muvofiq bo'lishi kerak. Misol uchun, miqdorli karta miqdor ma'lumotlaridan foydalanib ishlab chiqilishi mumkin. Agar biror ma'lumot shakli o'rinsiz bo'lsa, o'rinli ma'lumotni topish yoki karta turini o'zgartirish juda muhim sanaladi. Ushbu holatda kartada tasvirlanayotgan ma'lumotning yo'naliشiga ham e'tibor qaratish lozim. Garchi u ishontirish uchun kartani dizaynlashtirilayotgan bo'lsada, kartograf obyektiv bo'lishi talab etiladi. Yo'naliш kartaga fenomen bo'lib kartaga tushirilishi mumkin bo'lган ma'lumotlar orqali kiritilib, ma'lumotlar belgilar yoki nazorat nuqtalarida foydalaniлadi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Topografik kartalar va atlaslar masshtabning necha xil shaklini o'z ichiga oladi?
2. Kompilyatsiya deganda nimani tushunasiz?
3. Ma'lumotlar bazasidan foydalanish kartaning qanday elementlariga qarab tanlanadi?
4. Boshlang'ich ma'lumotlar manbasi qanday kategoriyalarni o'z ichiga oladi?
5. Generalizatsiya nima?
6. Generalizatsiya so'zining tarjimasi qanday bo'ladi?

6-bob. YERNING KOORDINATA TO'RI VA PROYEKSIYALAR

6.1. Yerning koordinata to'ri

Yerning o'lchami va shakli.

Agar Yer tekislik yuzasi bo'lganda, karta tuzishning ko'plab jihatlari anchagina soddalashgan bo'lardi. Vaholanki, kartografiya tarixidanoq anglab yetilganidek, Yer – tekis emas. Shunday bo'lsada greklar tomonidan haqiqiy yuzani imkon qadar kichik xatolik bilan ko'rsatishga urinishlar bo'lgan.

Yerning haqiqiy shakli shar yoki ellipsoid kabi yaqqol emas, balki soddagina «yer shaklidagi figura» ma'nosini anglatuvchi geoid deb nomlangan qattiq yuzadir. 6.1-jadvalda ko'rsatilgandek, qutb radiusi ekvatorial radiusuga nisbatan taxminan 20 kilometr kam. Bu katta farqdek tuyilmaydi (30 santimetr Yer sharida farq atigi 0.05 santimetr), lekin topografik kartalar yoki navigatsiya sxemalari kabi katta mashtabli kartalar uchun bu farq sezilarlidir. Qutblar tekislanihiga qo'shimcha ravishda boshqa kichikroq xatoliklar ham bor.

Yerning shakli bilan mavzuli yondashuvchi geodezistlar katta mashtabli shahar kartalarini va shunga o'xshash kartalarni tuzuvchi GAT mutaxassislari hamda topografik kartalar tuzuvchi kartograf va muhandislar kabi haqiqiy yer o'lchovlarini hisobga olishlari zarur. Biz umuman olganda geodezik aniqlik asosiy masala bo'limgan juda kichik maydonlar yoki mayda mashtabli kartalar yaratishimiz sababli, ko'pincha mavzuli karta tuzish uchun yer shaklining xatoliklari bilan qiziqmaymiz.

6.1-jadval

Yer o'lchamlari

Nomi	Kilometr	Mil
Ekvatorial diametri	12,752.401	7,926.677
Qutbiy diametri	12,713.45	7,899.988
Ekvator aylanasi uzunligi	40,074.788	24,902
Meridian aylanasi uzunligi	40,007.198	24,860

Kenglik va uzoqlik.

Sharning ma'lum boshlanish va tugash nuqtalari bo'lmaganligi sababli uning yuzasida nuqtalarni joylashtirish tekis yuzada-giga nisbatan kop'roq qiyinchilik tug'diradi. Joylarni aniqlik bilan joylashtirish uchun yerga mos referens tizimini yaratish zarur. Yerning harakati sababli unda ikkita aynan belgilangan nuqtalar yo'q, referens tizimini yaratishda foydalansa bo'ladigan shimoliy va janubiy qutblarga ega Yer oxiri qutblarda tugaydigan xayoliy o'qda o'ralgan va uning shimoliy qutbi fazoda doimo bir xil nuqtada bo'ladi.


Qutblar orasidagi yarim yo'lida va qutblarga to'g'ri burchak ostida chizilgan *katta aylana* (yerni ikkita teng yarim sharlarga ajratadi) *ekvator* deb ataladi va referens tizimi uchun boshlang'ich yo'nalish sifatida xizmat qiladi.

Ekvatordan masofalar qutblarga qarab shimoliy yoki janubiy darajalarda o'lchanadi. Ekvatorning shimoliy yoki janubiy burchak masofasi *kenglik* deb ataladi va ekvatoria 0° dan mos qutblarda janubiy 90° va shimoliy 90° gacha o'lchanadi (6.1-rasm).

Agar biz berilgan kenglikka ega barcha nuqtalarini bog'lasak, ekvatordan tanlangan kenglik o'lchamiga teng masofada bir *kichik aylana* hosil bo'ladi. Bu *kichik aylana parallel* deyiladi. Parallel bu ekvatordan bir xil burchak masofa (kenglik)ga ega barcha nuqtalarni birlashtiruvchi Yer sharidagi chiziqdir. *Parallel va kenglik o'zaro sinonim emas; parallel muayyan chiziq bo'lib, kenglik esa masofa hisoblanadi.*

Daraja, daqiqa, soniya va soniya ulushlariga bo'lingani uchun cheksiz parallellar tuzilishi mumkin. Bu bizga biron-bir joyni yerda ekvatorga nisbatan aniq topish imkonini beradi.

Agar Yer chindan ham sharsimon bo'lganda edi, kenglikning har darjasasi o'rtasida mil dagi masofa bir xil bo'lgan bo'lardi. Bi-roq ko'rganimizdek, yer mukammal shakl emas va shuning uchun kenglikning darajali uzunligida bir qancha o'zgarish bor. Ko'pincha mayda mashtabli kartalashda bu o'zgarish muhim bo'lishi uchun juda kichik.



6.1-rasm. Parallellar – teng kenglik chiziqlari.

Parallellar tizimi – Yer referens tizimining faqatgina yarmidir. Har bir parallel bo'ylab 360° bor va manzilni aniq belgilash uchun biz shuningdek, u parallellning qayerida yotishini aniqlashimiz kerak. Afsuski, yerda qutblar yoki ekvator bilan qiyoslaganda parallellar bo'ylab o'lchash uchun qulay manba sifatida ishlatalishi mumkin bo'lgan o'rnatilgan aniq bir nuqta yoki chiziq yo'q. Ko'p yillar davomida har bir mamlakat o'zining poytaxti yoki boshqa bir muhim joy orqali o'tadigan to'g'ri shimali-janubiy chizig'ini ishlatdi. Masofalar mazkur chiziqlardan darajalarda o'lchandi va *uzunlik* deb nomlandi. Faqatgina bitta mamlakatning kartalari qo'llanilganda, bir necha muammojar bor edi; lekin yer atrofida tezroq sayohat qilish va turli kartalardan foydalanish bilan, ushbu tizim samarasiz bo'lib qoldi. XIX asr davomida Amerika Qo'shma Shtatlarida ko'plab atlaslar

Vashingtondan uzunlik bir chegara bo'ylab chop etilgan va juda uzoq taqqoslash va hisob-kitoblarni bartaraf etish uchun Londondan qarama-qarshi chegara bo'ylab uzunlikdagi kartalarni o'z ichiga olgan edi.

1884-yilda Xalqaro Meridian Konferensiyasi Grinvich (Angliya)dagi Royal rasadxonasida tranzit vositasi orqali sharq-g'arb o'lchov uchun boshlang'ich yo'nalish sifatida chiziq barpo etdi; bu chiziq *bosh meridian* deb ataladi. Bosh meridianning g'arbi yoki sharqidan boshqa nuqtalarga nisbatan 0° dan 180° gacha o'lchangan burchak masofa uzunligi hisoblanadi. Agar bir qator chiziqlar parallelarga nisbatan to'g'ri burchak ostida chizilgan bo'lsa va qutblarni birlashtirsa (qutblar orqali tekisliklardan o'tsa), bu chiziqlar haqiqiy shimol-janub chiziqlari va katta aylanalarining yoylari bo'ladi. Bu chiziqlar *meridianlar* deyiladi. Meridian bir xil uzunlikka ega barcha nuqtalarni birlashtiruvchi chiziqdir (6.2-rasm). Har bir meridian katta aylananing yarmi ekanligini unutmang. Shuningdek, parallel va kenglik kabi meridian va uzunlik ham o'zaro sinonim emasligini unutmang. Meridianlar bu chiziqlar, uzunlik esa burchak masofadir. Parallelar va meridianlar yordamida hosil bo'lgan to'r *koordinata to'ri* hisoblanadi.


Masofa.

Garchi *masofa* va *yo'nalish* atamalari kundalik nutqda tez-tez ishlatsada, yerning sharsimon sirti nazarda tutilganda, bu atamalarning haqiqiy ma'nosi bo'yicha chalkashlik bor.

Tekislikdagi ikki nuqta orasidagi eng qisqa masofa bu – to'g'ri chiziq, lekin sharning yuzasida har qanday ikki nuqta orasidagi eng qisqa masofa bu – katta aylananing yoyi hisoblanadi. Shunday qilib, agar ikki nuqta bir xil parallelda joylashgan bo'lsa, ular orasidagi eng qisqa masofa bu parallelda joylashmaydi (bu parallel ekvator bo'lgan holat bundan mustasno), lekin katta aylana bo'ylab ular qo'shiladi. Bu aylana Yer sharida ikki nuqta orasidagi cho'zilgan bir chiziq orqali topilishi mumkin.

Yer sharida masofani o'lhash uchun qulay birlik bu – *dengiz mili*. Dengiz mili yer bilan bir xil yuza maydoniga ega shar kat-

ta aylanasidagi yoyning bir daqiqasi sifatida belgilangan. Ko‘pchilik globuslarning berilgan masshtabi oddiygina katta aylanadagi yoyning bir daqiqasi sifatida qabul qilinishi mumkin.




6.2-rasm. Meridianlar – teng uzunlik chiziqlari.

Biz ikki lahzani ajratuvchi daqiqaning sonini ma'lum bir masofani sayyoramizning ekvatoridagi xuddi shunday masofaga taqqoslash orqali aniqlaymiz. Agar bu masofa mil yoki kilometr bo'lishi kerak bo'lsa, u osonlik bilan (5.2-jadval) aylantirilishi mumkin.

Yo'nalish.


Yo'nalish sharga tatbiq etilganda murakkab tushuncha hisoblanadi. Yo'nalish bu – bir nuqtaning boshqa bir nuqtaga nisbatan

yerdagi holati. Odatda, u bir referens chizig'i va kuzatish nuqtasi hamda qiziqtirgan nuqtadan chizilishi mumkin bo'lgan eng qisqa chiziq orasidagi burchak orqali o'lchanadi. Shardagi eng qisqa masofa bu katta aylana ekan, demak Yer yuzidagi nuqtaning yo'nalishi bu referens chizig'i (meridian) bilan kuzatuvchi va nuqta orasidagi ishlayotgan katta aylananining yoyi o'rtasidagi burchagi bo'ladi. Yo'nalish *azimut* sifatida ifoda etiladi. Azimut referens chizig'idan soat mili bo'yicha o'lchangan burchak bo'lib, 0° dan 360° gacha qiymatlarda bo'ladi (6.3-rasm).



6.3-rasm. Azimut – haqiqiy shimoli-janubiy chizig'i va kuzatuvchi hamda kuzatilgan nuqta orqali o'tuvchi katta aylana orasidagi burchak.

Shimol, janub, sharq, g'arb, janubi-g'arbda va hokazo kabi kompas yo'nalishlari, asosan yo'nalishlarni gapirganimizda ishlatiladi, ya'ni barcha meridian bir chiziqdagi kesuvchi doimiy kompas yo'nalishi *loksodromiya* yoki *rumb chizig'i* deyiladi. Shimoliy yoki janubiy yo'nalishdan ko'ra doimiy kompas kursiga amal qiluvchi tekislik qutb tomonga spiralning izidan borgan bo'lar edi, lekin nazariy jihatdan unga hech qachon yetib bormaydi. Bu *loksodromik egri* hisoblanadi (6.4-rasm).




6.4-rasm. Loksodromiya egri chizig'i (rumb chizig'i) har bir meridianni bir xil burchak ostida kesib o'tadi. U qutb tomonga buraladi.

Bu kitobda «loksodrome» yoki «doimiy kompas yo'nalishi chizig'i» bu yo'nalishlarga tegishli va «azimut» atamasi «yo'nalish» bilan sinonim holda ishlatiladi. Bu atamalarni farqlash muhim ahamiyatga ega, chunki biz keyinchalik ko'rishimiz mumkinki, ba'zi proyeksiyalar doimiy kompas yo'nalishi chiziqlarini va boshqalari esa, katta aylanalarni to'g'ri chiziqlar sifatida ko'rsatadi. Bular meridianlar va ekvatoridan tashqari o'zaro ekskluziv bo'ladi.

Boshqa Gridlar va koordinatalar.

Ba'zi maqsadlar uchun, kenglik va uzoqlikdan boshqa gridlar ham ishlatiladi. Amerika Qo'shma Shtatlari uchun Merkator ko'ndalang koordinata tizimi asosiy hisoblanib, bundan tashqari aeroportlarning davlat koordinata tizimi va davlat yer tuzish koordinata tizimlari ham mavjud. USGS topografik kartalar esa kenglik va uzunlikdan tashqari mana shu uch tizimning barchasini tasvirlaydi.



6.5-rasm. O'zbekiston uchun WGS 84 zonalari.

Universal Transverse Merkator koordinata tizimi.

Universal Transverse Merkator (UTM) koordinata tizimi kenglik va uzunlik kabi yer yuzida joylarni aniq belgilash uchun ishlataladi. UTM gridi 1940-yilda AQSH armiyasi tomonidan ishlab chiqilgan va ko'ndalang Merkator proyeksiyasiga asoslangan. Bu tizim yerni 6° keng uzunlikdagi 20 ta zonalarga ajratadi. Har bir hudud bir meridianda markazlashgan. Zonalar 180° da boshlanib, 1 dan 60 gacha raqamlanadi va sharqqa ketadi. Shunday qilib, 1-zona 180° dan 174°W (g'arb)ga ketadi va 177°W da markazda joylashadi (6.5-rasm). Har bir uzunlik zonasiga 20 ta kenglik zonalariga bo'linadi. Bu zonalarning har biri shimaldan janubga 8° bo'ladi. Kenglik zonalariga 80°C (janub)da boshlanadi va 84°N (shimol)gacha kengayadi. Oxirgi zona 4° ga uzaytiriladi va shunda eng shimoliy yerlar qoplanadi. Kenglik zonalariga janubda «C» bilan boshlangan harflar berilgan va u shimalda «X» harfigacha davom etadi. «I» va «O» harflari bir va nol raqamlari bilan adashtirib yuborilishi mumkinligi uchun ishlatilmaydi.

«A», «B», «Y» va «Z» Antarktida va Arktika hududlari bo'limlari uchun ishlataladi. Hosil bo'lgan gridlar uzunlik raqami va birinchi uzunlik bilan kenglik harfi orqali nomlanadi. Shunday qilib, Los Anjeles 11S zonada va Nyu-York 18T zonada bo'ladi. Yer yuzida bir joy uzunlik zonasini hamda *sharqqa tomon* va shimalga tomon koordinata juftlari orqali aniqlanadi. Sharqqa tomon *bu nuqtaning* uzunlik zonasini markaziy meridianidan uzoqligi va *shimolga tomon* *bu nuqtaning* ekvatoridan uzoqligi hisoblanadi. Bunda masofalar metrlarda o'lchanadi.



6.6-rasm. Kaliforniya uchun Davlat tekislik koordinata tizimi.

State Plane koordinata tizimi.

6.6-rasmida ko'rsatilgan State Plane koordinata tizimi (*State Plane Coordinate System SPS yoki SPCS*) davlat va mahalliy hukumatlar tomonidan keng qo'llaniladi va zonalar kichik bo'lgani uchun UTM tizimiga qaraganda aniqroq hisoblanadi. Zonalar kichik, chunki ular shtatlarga asoslangan, SPCS milliy va mintaqaviy kartalar tuzish uchun foydali emas.


SPCS koordinata tizimi UTM kabi zonalarga asoslangan, lekin ular odatda siyosiy chegaralarga amal qiladi va bunda zonalar kartasi ko'proq betartib ko'rindi. Shtatdagi zonalar soni shtatning o'lchamiga bog'liq bo'ldi; davlat ichidagi chegaralar Alyaskadan tashqari shaharcha chiziqlariga amal qiladi. SPCS AQSH hududini qamrab olish uchun 120 zonalardan foydalanadi. UTM kabi, manbaning sharqiy va g'arbiy masofalari hisoblangan *sharqqa tomon* va *shimolga tomon* koordinata juftlari ishlataladi. Manba odatda zona markaziy meridianining 2000000 fut g'arbida.

AQSH Public Land Survey System tizimi.

AQSH ommaviy yer tuzish tizimi (Public Land Survey System, PLSS) birinchi marta Tomas Jefferson tomonidan taklif etilgan va Inqilob urushi oxirida ko'p vaqt o'tmay amalga oshirilgan. 1785-yili Uchastka qarori va 1787-yilning Shimoli-g'arb qarori federal yerkarning tizimli to'g'ri burchakli tekshirilishi uchun kiritilgan va bundan mazkur yerlar xususiy shaxslarga o'tkazib berilishi mumkin bo'lgan. PLSS bu *kadastr* yoki mol-mulkni kartalashtirish tizimidir. PLSSda barcha shtatlar qamrab olinmagan, chunki u aholi yashash joylarini tekshirishni ta'minlagan. Shunday qilib, haqiqiy mustamlakalar qamrab olinmagan va Texas o'zining tizimiga ega bo'lgan (6.7-rasm). PLSS dastlab Ogayoda boshlangan edi, ammo tizim hali to'liq rivojlanmagandan, Ogayo va Indianada tadqiqotlar boshqa qamrab olingan shtatlardan farq qiladi. Shuningdek, fransuz *arpent* tizimi yoki uzoq uchastkalardan foydalangan Luiziana; Yangi Angliya shahar tizimini ishlatgan Yangi Angliya; Ispan tizimlarini ishlatgan janubi-g'arb kabi boshqa kadastr tizimlarida amalda bo'lgan ba'zi hududlar ham bor.

PLSS 6.7-rasmida ko'rsatilganidek, manbalarni ta'minlovchi 37 nomdag'i asosiy meridianlar va tayanch chiziqlariga asoslangan. Haqiqiy shimol-janub chiziqlari (meridianlar) va mazkur manbalardan 6 mil intervalda chizilgan sharq-g'arb chiziqlari «bosqichlar va chegaralar» deb nomlangan (bunda «bosqichlar»

bu asl atama, umumiy qo'llanilishi «shaharchalar va chegaralar» bo'lgan). Shaharchalar deb nomlangan 36 kvadrat mil ga teng hududlar shakllantirilgan (6.8-rasm). Har bir shaharcha 640 akrdan iborat *bo'limlar* deb nomlangan 36 kvadrat milga teng hududlarga bo'lingan va bo'limlar yana chorak, nimchorak va hokazo bo'limlarga bo'linishi mumkin va yerning har qanday uchastkasi o'zining yagona bir chiziqli nomiga ega. Misol uchun, NE1/4, SW1/4, SW1/4, NE1/4, 23-bo'lim, T1SR3W, Mt.Diablo Meridian tayanch chizig'inining 1-bosqichida joylashgan yerning 2 1/2-akr qismi, Mt.Diabloning uchinchi qator g'arbiy 23-bo'limning shimoli-sharqiy choragining janubi-g'arbiy choragi janubi-g'arbiy choragining shimoli-sharqiy choragidagi bosh meridianni ifodalagan.



6.7-rasm. Public Land Survey System. PLSS orqali haqiqiy 13 mustamlakalar va Texas qamrab olinmagan.

6.2. Yerning koordinata to‘rini o‘zgartirish: kartografik proyeksiyalar

Proyeksiya bu Yerning sharsimon koordinata to‘rini tekislik yuzasiga o‘tkazish hisoblanadi. Rasmiy ta’rifи bu tekislikda yer to‘rini tizimli va *tartibli tasvirlashdir*. Konus kabi ba’zi shakllardan farqli o‘laroq, shar ma’lum buzilishlarsiz tekislanishi mumkin emas. Proyeksiya karta nuqtalarining joylashuvini boshqalariga nisbatan e’tibor bilan boshqargani uchun u bir asos hisoblanadi. Proyeksiya karta uchun baza hosil qiladi va shuning uchun u avvalo kartaning loyihalash bosqichlarida qaysi proyeksiya ishlatilishi haqida qaror qabul qilishda muhim. Garchi faqatgina ayrimlari doimiy ishlatilsa ham proyeksiyalarning cheksiz soni bo‘lishi mumkin va 400 dan ortiq proyeksiyalar mavjud.

Karta tuzishda dastlab meridian va parallel chiziqlari chizildi va ular bir-biri bilan kesishib kartografik to‘r hosil qiladi. So‘ngra bu to‘rga planli asos (tayanch) punktlari tushiriladi. Shundan keyin u boshqa geografik obyektlar bilan to‘ldiriladi. Har bir alohida olingan kartaning kartografik to‘ri shu kartaning oldiga qo‘ygan maqsadi va vazifasidan kelib chiqqan holida ma’lum bir proyeksiyada chiziladi. Kartografik to‘r chizilganda tasvirlanishi kerak bolgan hudud dastlab tuzilayotgan karta masshtabidagi globus yuzasiga (sirtiga) tushirilgan deb faraz qilinadi. Yerning shakli oldingi bo‘limda muhokama qilindi. Bu yerda biz geoid yoki sharsimon nomini kiritmaymiz, lekin tushunishga oson bo‘lishi uchun yerni shar deb ko‘rib chiqamiz. Garchi topografik kartalar kabi keng masshtabli kartalar uchun yerning aniq shakli hisobga olinishi kerak bo‘lsada, ko‘pchilik mavzuli kartalar uchun yerni mukammal shar deb olish mumkin.

6.2.1. Topografik kartalar, ularni grafalash va nomenklaturasi

Kartalarning masshtabi 1:1000 000 dan mayda-obzor va 1:1000000 dan yirik-topografik turlarga bo‘linadi.


Masshtablari 1:1000 000, 1:500 000, 1:300 000, 1:200 000 bo'lgan kartalar obzor-topografik kartalar deyilib, yirik masshtabli kartalar bo'yicha tuziladi.

Topografik kartalarni varaqlarga ajratish grafalash deyiladi va uni amalgalashga oshirishga asos qilib 1:1000 000 mashtabli karta varag'i qabul qilingan. Nomenklatura deb topografik kartalar ayrim varaqlarini belgilash sistemasiga aytildi. 1:1000 000 mashtabli kartani tuzish uchun Yer sirtining tasviri Grinvich meridianidan boshlab uzoqlik bo'yicha har 60 dan 60 ta ikki burchak (ustun)larga bo'linadi, ular arab raqamlari bilan 1800 meridiandan boshlab sharqqa tomon belgilanadi (raqamlanadi).

Agar raqamlash 00 dan boshlansa bunday ikki burchaklar – zonalar deyiladi. Zonalar hisobi ustunlarnikidan 30 ga farq qiladi, masalan 34 ustun 14 zona. Yer sirti tasviri kenglik bo'yicha har 40 dan parallelar bilan ekvatoridan shimalga va janubga lotin alifbosini bosh harflari bilan belgilanadigan qatorlarga bo'linadi (6.8- va 6.9-rasmlar).



6.8-rasm. Yer sharining 60 dan 60 ta ikki burchak (ustun)larga bo'linishi.



6.9-rasm. 1:1000 000 masshtabli karta varag'i nomenklaturasi.

Nomenklaturali bo'lingan karta va planlardan foydalanish uchun quyidagi masalalarni yechishga to'g'ri keladi.

1. Topografik kartalar, ularni grafalash va nomenklaturasi to'g'risida tushunchalarga ega bo'lish;
2. Geografik koordinatalari ma'lum punktda joylashgan karta varag'ining nomenklurasini aniqlash;
3. Ma'lum nomenklatura bo'yicha trapetsiya romi burchaklarini geografik koordinatalarini aniqlash;
4. Berilgan karta varag'iga yondosh (qo'shni) karta varaqlarining nomenklurasini topish.

Turli masshtabdagi karta va plan varaqlarining nomenklatura si assosida xalqaro karta deb qabul qilingan 1:1000 000 masshtabli varaqlari yotadi. Yer sirtining shunday bo'linishi natijasida hosil bo'lgan qismlari (trapetsiyalari) 1:1000 000 masshtabli karta varaqlarida tasvirlanadi. Karta varag'ining nomenklaturasi qatorni belgilovchi harf va ustunni belgilovchi sondan tashkil topadi.

Qator va ustun belgilarini, trapetsiya romi burchaklarining geografik koordinatalarini aniqlash uchun 6.2-jadvaldaggi ma'lumotlardan foydalaniladi.

Misol. Nuqtaning geografik koordinatalari kengligi $\varphi=54^{\circ}41'49''$ va uzoqligi $\lambda=30^{\circ}05'25''$ ma'lum bo'lsa, 1:1000 000 mashtabli kartanering shu nuqta joylashgan varag'inining nomenklaturasini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$m = \frac{\lambda}{6} + 31 = \frac{30}{6} + 31 = 36, \quad n = \frac{\varphi}{4} + 1 = \frac{54}{4} + 1 = 14$$

Agar $\lambda > 180^\circ$ bo'lsa,


$$m = \frac{\lambda - 180^\circ}{6} + 1$$

bu yerda, m – ustun raqami, n – qator raqami.

Yuqorida qatorni topish formulasi yordamida aniqlangan raqam bo'yicha 1-jadvaldagи qator harfi tanlanadi.

6.2-jadval


Qator harfi	A	B	C	D	E	F	G	H	I	J	K	L
Qatorlar raqami	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
Qator harfi	M	N	O	P	Q	R	S	T	U	V	Z	
Qatorlar raqami	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	



6.10-rasm. 1:1000 000 mashtabli karta varaqlari nomenklaturasi.

Ustun raqami va qator harfi N-36 deb qo'shib yuritiladi. Mazar-kur ustun raqami va qator harfi 1:1000 000 mashtabli trapetsiyaga tegishli nomenklatura sanaladi.


6.11-rasmda 1:1000 000 mashtabli karta trapetsiyasi nomenklaturasi bilan ko'rsatilgan.



6.11-rasm. 1:1000 000 mashtabli karta trapetsiyasi nomenklaturasi.


1:1000 000 karta varag'i nomenklaturasi qator harfi va ustun nomeridan yig'iladi. Masalan, *N-36*.

Bitta 1:1000 000 mashtabli karta varag'ida 4 ta 1:500 000 mashtabli karta varag'i millionli karta varaqlarini tashkil etadi va millionli varaq nomenklurasiga A, B, V, G bosh harflarni qo'shib belgilanadi *N-36-A* (6.12-rasm).




6.12-rasm.

Bitta 1:1000 000 mashtabli karta varag'ida 9 ta 1:3000 000 mashtabli karta varaqlarga bo'linadi. Millionli varaq nomenklaturasi oldiga joylashadigan I dan IX gacha rim raqamlari bilan belgilanadi *I-N-36* (6.13-rasm).




6.13-rasm.

1:200 000 mashtabli kartaning varag'i 1:1000 000 mashtabli karta varag'ining 1/36 qismini tashkil qiladi va 1:1000 000 varaq nomenklurasidan keyin joylashgan rim raqamlari bilan belgilanadi *N-36-VII* (6.14-rasm).




6.14-rasm.

1:100 000 mashtabli karta varag'ini hosil qilish uchun
 1:1000 000 mashtabli karta varag'i 144 qismga bo'linishi va 1
 dan 144 gacha arab raqamlari bilan belgilanishi kerak N-36-37
 (6.15-rasm).




6.15-rasm.

Berilgan misol uchun bu karta varaqlarining nomenklaturalari
 mos ravishda *N-36-A*, *I- N-36*, *N-36-VII*, *N-36-37* larga bo'linadi (6.16-rasm).




6.16-rasm.

N-36-37 nomenklaturali 1:100 000 mashtabdagi karta varag'i undan yirik mashtabdagi karta varaqlarini bo'lish va nomenklaturasini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi (6.17-rasm).




6.17-rasm.

